


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Amaliy san`at va rangtasvir kafedrası**



**CHIZMATASVIR**

Fanidan

**O'QUV USLUBIY MAJMUA**

**2023/2024 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli, 3-kurslari uchun**

**Bilim sohasi:** 200 000 - San`at va gumanitar fanlar  
**Ta`lim sohasi:** 210 000 - San`at  
**Ta`lim yo`nalishi:** 60210500-Rangtasvir (dastgohli)

**NAMANGAN – 2023**

Fanning o'quv uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020 yil 18-avgustdagi 418 sonli buyrug'i bilan maqullangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

M.Sharipjonov

NamDU, Amaliy san'at va rangtasvir kafedrasida katta o'qituvchisi

**Taqrizchi:**

X.Rizayev.



NamDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida dotsenti

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Amaliy san'at va rangtasvir kafedrasining 2023 yil 28-iyundagi 11-sonli yig'ilishidagi muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**



**p.f.n., dots. A.Amanullayev.**

Fanning o'quv uslubiy majmuasi San'atshunoslik fakul'tet kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya qilingan. (2023 yil 29-iyundagi 11-sonli bayonnoma)

**Fakultet dekani:**



**A.Sayfitdinov.**

Ushbu o'quv uslubiy majmua Namangan davlat universitetining 2023 yil 11-iyuldagi 12-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llanishga tavsiya etilgan.

# MUNDARIJA

<b>I.</b>	<b>O'QUV MATERIALLAR.....</b>
1)	Ma'ruza mashg'ulotlari.....
2)	Amaliy, seminar mashg'ulotlari.....
<b>II.</b>	<b>MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI.....</b>
1)	Kurs ishi bo'yicha tavsiyalar.....
2)	Mustaqil ish bo'yicha tavsiyalar.....
<b>III.</b>	<b>GLOSSARIY.....</b>
<b>IV.</b>	<b>ILOVALAR.....</b>
1)	Fan dasturi.....
2)	Ishchi fan dastur.....
3)	Tarqatma materiallar.....
4)	Testlar.....
5)	Baholash mezonlari.....
6)	Boshqa ma'lumotlar.....
7)	O'UM elektron variant.....

**O'QUV**

**MATERIALLAR**


*Amaliy mashg'ulot*

**1-Mavzu: Libossiz odam qomatini taxlili. Libossiz erkak qomati. (kontropost holatida, kekxa chayir kishi). Inson qomatini turli holatlarida o'rganish.**

***Reja:***

- 1. Interyerda inson qomatining turli holatlardagi qalamchizgilari.***
- 2. Odam qiyofasini tasvirlashda qalamtasvirning o`rni va ahamiyati.***
- 3. Tirik odam rasmini chizishning talab va bosqichlari.***


Tasviriy sanat har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallaydi. Shu sababli akademik surat ishlash bilimi tasviriy faoliyatning barchasida qo'l keladi, muvaffaqiyatni ta'minlaydi. qalamtasvir ishlashga va uni o'z manaviy hayotida foydalanishta odamlar qadimgi paytlardan oq intilib kelganlar. Shu sababdan ham rasm chizishning ma'lum qonun-qoidalarini ishlab chiqilgan va yillar, asrlar mobaynida takomillashtirilib kelingan. qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi, negizi desak xato bo'lmaydi. O'quv-mashq vazifalarni puxta, ifodali qilib tasvirlay olish akademik rasm qonun-qoidalarini atroflicha ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. ular ish faoliyatini sifatli tashkil etilishiga ham ko'p tomondan bog'liqdir. Bundan tashqari chizishda ishlatiladigan asbob-anjomlar sifatli, talabga javob beradigan bo'lishi kerak. qalamtasvir ishlashning eng asosiy talabi chizish ob'ektini har tomonlama




o'xshatib aks ettirishdop iborat faoliyatni ta'minlashdir. Buning uchun tasvirni qog'oz sathida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarini to'ri aniqlash, buyumlarning o'zaro masofasini va perspektiva holatlarini aniq topish talab etiladi. Ishning maqsadga muvofiq chiqishida albatta bilim, tajriba va mahorat etarli darajada kerak bo'ladi. Bilim o'qish, o'rganish, mutolaa qilish orqpli orttirilsa, tajriba va mahorat ko'p ishlash, tinmay mashq), intilish evaziga orttrilishi ma'lum.

Ta'lim olishning yana bir muhim sharti har bir tasvir etiladigan narsa, hodisa, laihani aslidan, ya'ni naturadap qarab aks ettirilishiga juda bog'liq ekanligi sir emas. Chunki chizishdl hayot haqiqatini ko'rsata olish pifati eng muhimdir desak aslo yanglishmaymiz.

Tasvir chizishni o'rganish oddiy natyurmortlarni, shuningdek alohida-alohida turgan buyumlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Ish tasvirni qog'ozga to'g'ri va chiroyli tarzda joylashtirishdan boshlanadi, so'ng har bir narsani o'zaro





joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlar aniqlildi. Bunda qalam engil, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak. Aks holda moto'g'ri chiqqan joylar va yordamchi chiziqlarni o'chirg'ich bilan ketkazish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'rtacha yumshoqlik darajasidagi «TM», «M», «2M» rusumli qalamlardan foydalanish apcha qulay. Tasvirlarni ishlashda perspektiva qoidalariga amal qilinishi zarur. Ma'lumki' har bir narsa boshqa narsadan uzoqroqda turgan bo'lsa, u ko'zimizga kichrayib ko'rinadi, tarxlari ham hiraroq bo'ladi, unga tushayotgan yorug'lik, soyalar ham birinchi plandagi buyumnikidan farqlanib turadi. Bularning hammasi chiziqli va havo perspektivasi hodisasining tabiatda namoyon bo'lishidir. Ana shu jiatdan to'g'ri aks ettirilsa tasvir haqqoniy chiqishi ta'minlanadi. har bir narsa qog'ozda tasvirlanar ekan, albatta uning turishiga nisbagan ufq chizig'i topib olinishi kerak. U chizuvchi kishining ko'zi balandligidan o'tuvchi tasapvur etiladmgan gorizonta to'g'ri chiziqni tashkil etadi. Natyurmortlarda uni to'g'ri aniqlab olib tasvir yaragishd! foydalanish zarur shartlardan asosiysi bo'lib, tasvirning haqqoniy chiqishni ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizonta sathga va vertikal kartina saghiga nisbatan holati ham perspektiva ko'rinishiga muvofiq



topiladi. Bunda tomonlarning qisqarib, uzoqlashib borgan sari qisqarib ko'rinishi ufqning tutashish nuqtasiga asosan topib chiziladi. Tasvir yaratishda fazoviy perspektivaga ham ahamiyat berilishi zarur. Chunki yaqinda joylashib turgan buyum uzoqroqdagisidan tusi, rangi, to'q-ochligi bilan ajralib turadi. Soya-yorug'liklarni tasvir tarxlariga monand o'xshatib aks ettirish ular o'rnini to'fi mutanosib topishga ham bog'liqligini uytmasligimiz kerak. Natyurmortlarda manzara tasvirlariga nisbatan perspektiva qoidalarini qo'llash murakkabroq, chunki buyumlar, narsalar orasidagi farq, masofalar kamroq bo'lib, ular diqqat bilan kuzatilib aniqlanadi. Manzara, tabiatdagi perspektiva esa yaqqolroq seziladi. Masalan, tekis yo'nalgan temir yo'lni kuzatsak bu hodisa aniq ko'rinadi. Undagi relslar uzoqlashgan sari bir-biriga yaqinlashib, ufqqa borib birlashib, nuqta bo'lib ikki tomondagi sim yog'ochlar tobora kaltalashib borayotgandek tuyulishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu hodisani kuzatib perspektiva qonuniyatlarini anglab olish, tahlil qilish, tegishli bilimlarni olish mumkin. Rasm chizish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etilishi tasvir yaratishning eng muhim pedagogik hajmiga. ifodasiga ham, har bir narsaning o'zi mavjud bo'lib turgan atrof muhitiga ham ob'ektiv tarzda yoidoshilishi haqqoniy tasvirlanishi kerak.

### **Interyerda inson qomatining turli holatlardagi qalamchizgilari.**

Tasvirlarni chizishda, xoh u natyurmort bo'lsin, xoh odam tasviri, yoki manzara bo'lsin, barchasida aks ettirishning turli-tuman vositalari va usullaridan unumli foydalanilish kerak. Bunday yo'l tutish bilimni, mahoratni, tajribani oshirishga xizmat qiladi. Odam qiyofasini chizishni o'rganish jarayonida grafik uslublarni qo'llash esa eng sinalgan yo'ldir. Chunki eng qulay va tez bajariladigan har xil ashyolar (qalam, sangina, sous, pastel retush va boshqalar) yordamida amalga oshiriladigan tasvir ainiqsa qiziqarli chiqadi. Bunday qalamchizgilarii ishlaganda rangli (tus berilgan) qog'ozlardan foydalanish o'quv-mashq ishlarining badiiyligi darajasini ham oshiradi. Voqelikni obrazli ifoda etish omili bo'lib xizmat qiladi.

Interyerdagi odam qiyofasini tezlavhalarni turli holatlarda tasvirlashda atrof muhitning ko'rinishi ham etiborga olinishi kerak. Yorug'lik manbaining qaysi tomondaligi chizilayotgan obyektning naqadar hajmli va bo'rtiq tasvirlanishda rol o'ynaydi. Shu sababli ish o'quv mashq sifatida bajarilayotganligidan qat'iy nazar jiddiy e'tiborli yondashuvni talab etadi.

Ma'lumki, odamni tasvirlashni o'rganishda uni tezlikda chizish mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mashq vazifalar kichikroq qog'ozlarda, so'ngra kattaroq qog'ozlarda bajarilishi maqsadga muvofiq. Kichik-kichik qalamchizgilar ko'pincha yumshoqroq oddiy qalamda, kattaroq tasvirlar esa iloji boricha kumir qalamchalari, retush, sangina, sous va lastelda ishlansa qulay bo'ladi. Buning sababi ularning ishlatilishi qulayligidadir. Bunday vositalar bilan tezkorlikda katta sathlarda ifodali tasvirlar ishlash mumkin. Ammo bu ularni ishlatish



oson ekan degan tushunchani tug'dirmasligi kerak. Masalan: retush qalami o'ta qora bo'lganligi uchun uni rangli, ya'ni biror xolis tus berilgan qog'ozga rasm solishda ishlatish mumkin. Oppoq qog'oz sathida undan foydalanish ancha tajriba va mahoratni talab etadi. Ayniqsa tezkor qalamlavhalarni chizilishida ratush juda qulay bo'lib, kerakli joylarda chiziqlarini qo'l barmoqlari rangli qog'oz parchasi bilan surkatib tasvirlanayotgan qilib narsaning soya, hatto yarimsoyalarini juda ifodali va chiroyli qilib ko'rsatish imkoniyati bor. Rangli qog'ozda ishlanganda rotush qalami va ko'mir qalamchalerini oq rangli pastel eki bo'r bilan aralash texnikada ishlatish yaxshi samara beradi. Ma'lumki, sousni suvga qorib mo'yqalam da qogozga surtib tus berilsa, so'ngra tasvirni retush qalamida ishlansa, o'chirg'ichdan ham unumli, bilib foydalanilsa har qanday o'quv-mashq vazifani namunali va chiroyli qilib chiqarish mumkin. Tasvirning eng yorug' qismlarini

o'chirg'ich yordamida ustalik bilan o'chirib bo'rttirilsa, eng to'q soyalarning sathi quyuq, qora sous bilan bo'yab yopilsa ish hajm tomondan juda fazoviylik kasb etadi. Sangina qalamtasvirlarni ishlashda qo'llanilishi ham foydali. U bilan har qanday tasvirni tez va ifodali qilib chiqarsa bo'ladi. Faqat buning uchun uing texnikasini egallash kerak. Ma'lumki, sanginaning to'q jigarrang hamda qizg'imir jigarrang turlari bo'ladi. Ularni ham tus bsrilgan oxrasimon rangli qogozlarda unumli



qo'llash mumkii. Sanginani surkatib soyalarning katta-katta qismlarini yopish imkoniyati ham borligi ish rivojini gezashtiradi. Yuqorida keltirib o'tilgan barcha tasvirlash vusitalarini uzok, muddatda bajariladigan, hamda gezkorlik bilan ishl shadigan qalamtasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin. Odam qomatini turli holatlarda. vaziyatlarda harakagli ko'rinishlarda interer muhiti sharoitida tasvirlash ancha murakkab vazifalardan hisoblanadi. Agar ular tez muddlgda ishlanishi kerak bo'lsa, tezchizgi lavhalari ko'rinishida bo'lsa, bir nechta tasvirni bitta qog'oz sathida chiroyli kompozitsiyada joylashtirib bajarish ko'p samara beradi. Chunki bunda har bir chizilgan har turli holetlarda turgan odamlar qiyofasi o'zaro solishtirib ishlanadi, o'lchamlari bir-biriga moslanadi va shuning nagijasida tasvirlar guruhi bog'langan mazmun kasb etib badiiy ko'rinishga ega bo'ladi. Inson qaddi-qomatini chizishga albatta tezkor tasvirlar ishlash. ko'proq mashq qilish talab etiladi. Ayniqsa suratning qismlari nisbatlari, katta shaklning yaxlitligiga e'tibor qaratilishi kerak. So'ng tana holati uning qanday harakat holatida namoyon bo'layotganligi muhim bo'lib, uni to'g'ri topish va aks ettirish kerak. Yuqorida aytilgan barcha holatlarda nazariy va amaliy



tomondan yaxshi o'rganilsa, kitoblar maxsus adabiyotlar mutolaasiga e'tibor berilsa har qanday quntli talaba uning oldiga qo'yilgan murakkab vazifalarning barchasini muvaffaqiyatli ado etadi. Yaxshi, a'lo natijalarga erishadi.

Badiiy ta'lim va umuman tasviriy sanat sohasida qalamchizgilarning ahamiyati naqadar katta ekanligini rassomchilikka qiziquvchi har bir inson yaxshi biladi. Bo'lajak o'qituvchi-musavvir nafaqat amaliy ishni, balki nazariy masalalarni ham puxta o'zlashtirishi zarur bo'ladi. U qalamtasvir yaratishning muhim ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntira bilishi kerak. Bunda albatta u kitob, qo'llanmalardan foydalanadi. Ularda esa rasm chizishning barcha qonun-qoidalari tushungirib berilgan.

Malumki, qalamtasvirning muhim chizish qoidalari qadim zamonlardan kashf etilib, takomillashtirilib kelingan. Aytishlaricha birinchi gashkil etilgan ilk Badiiy akademiyalardan rasmni qalamda chizish etakchi o'ringa qo'yilgan. Uni yaxshilab o'rganib olmagan talabz tasvirga rang berish mashg'ulotiga, yani rangtasvir yaratish ishiga yaqinlashtirilmagan. Shu sababdan akademik rasm chizish mashg'uloti muhim hisoblanib o'quv-ta'lim jarayoning ko'p qismini egallagan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi qush va hayvonlarning tasvirini chizishni ham boshqa vazifalar qatorida puxta o'rganishi kerak. Chunki maktab amaliyotida, o'qitish, o'rgatish dasturlarining barchasida bu mavzu mavjuddir. Animalistik (jonli tabiat, hayvon va qushlarni aks ettirish sohasi) rasmlar ishlash tasviriy san'atning juda qiziqarli sohasidir. U ko'pincha turli voqeaband kompozitsiyalar, kitob bezaklari yaratilishida foydalaniladi. Ayniqsa bolalar uchun chiqariladigan adabiyotlarda qo'l keladi.

Mamlakatimiz va chet el rassomlari ijodida ham animalistik mavzularni ko'plab uchratamiz. qadimgi usta rassomlardan Dyurerning, Rembrandtning, Delakruaning Hayvonlar va qushlarni aks ettirgan qalamchizgilarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yaponiyaning qadimiy tasviriy san'atiga oid namunalarda Ham qush va gurli jonivorlarning ajoyib-ajoyib tasvirlar ko'p uchraydi. Rus animalis rassomlari P.Sokolov, V.Serov, A.Stepanov, I.Efimov, V.Vatagii grafik ishlarida ham jonzodlar tasvirining yaxshi namunalari bor. O'zbekiston rassomlari

ijodida ayniqsa grafika va Haykaltaroshlik sohasida bu mavzudagi ijod namunalari uchraydi. Masalan, T.Esonov, P.Ivanov, T.Tojixo'jaev, A.Boymiltov na boshqa Haykaltaroshlar, shuningdek X.Rahmatullaev, A.G'ulomov, Q.Basharov kabi bir qator grafik rassomlari asarlarida bu mavzuga oid ijod namunalari mavjud. Rangtasvirda asar yaratuvchilr orasida aiimalistik mavzudagi namunalarning mualliflarn sifatida



M.Toshmurodov va Q.Akbarovni ko'rsatishimiz mumkin. Qush va hayvonllrning tulumlarini rasmini chizish tirik jonzotlarni tasvirlashdan avvalgi bosqichdir. desak yanglishmaymiz. Chunki harakatdagi jonivorlarni chizish ancha murakkab bo'lib, bu ishni boshlashdan avval puxta tayyorgarlikni o'tash kerak. Shunda tulumlarni batafsil o'rganish ancha qo'l keladi. Ular orqali hayvon va qushlarning.skeleti va tana tuzilishi xususiyatlari tahlil qilinib o'rgailadi. O'ziga xos o'lchamlari, ularning yaxlitligi, mutanosibliklari chizish-tasvirlash jarayonida aniqlanadi, ifodalanadi. Agar shunday maqsad qo'yilgan bo'lsa hajmi ham ishlab aks ettirilady. Yana bir muhim tomoni shundaki, qush yoki hayvonning rasmini chizganda shakldan tashqari uning ichki sinch tuzilishini belgilovchi umrtqa pog'onalari va boshqa suyak bo'ginlariga ham ahamiyat berilishi kerak. Tasvirning soyaga va yorug'ligini ko'rsatish uchun turli tasvirlash vositalaridan unumli foydalanish mumkin. Ular chiziqlarni turli yo'nalishlarda yo'naltirib ishlov berishga imkon beradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki qushlarni va turli jonivorlarni chizishdan avval ularning skeletini qanday tuzilishga ega ekanligini bilib olish, mavjud bo'lsa skeletini alohida tasvirlab mashq qilish kerak. Odam boshini chizishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan narsa uning asosi, ya'ni bosh chanoq suyagidir. Uning gipsdan gayorlangan namunasini chizib mashq qilish ancha foydali bo'lib, hamma qismlari yaxlit ko'rinib turadi. Bosh suyagini chizishga gips namunali o'rganib olgach kirishish mumkin. Bunda iloji boricha uchta turli tomondan, gurli holatlarda

ko'ringan vaziyatdagi bosh chanog'i bitta yaxlit qog'oz sathida tasvirlanishi shart. Chanoq ikkita asosiy qismdan tarkib topgan bo'lib, ular miya qismi va yuz qismlaridir. Miya qismi o'z navbatida chakka, peshona, ensa bo'laklaridan iborat. Ular va boshqa mayda ichki qismlar o'zaro tishsimon bo'rtma ulanmalar bilan birikib turadi. Suyakning peshona qismi bosh shakliii belgilab turuvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari yonoq, burun bo'rtmasi ham inson yuzining shaklini qanday bo'lishida muhim ro'l o'ynaydi. qisqa qilib aytganda bosh chanoq suyagining barcha maydon bo'laklari uning qanday nomlanishini talaba o'rganib, plastik aiatomiyasiga oid kitoblarni mutolaa qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bosh suyagini to'g'ridan, yondan va burchak ostidan ko'rinishini bitta qog'ozda bir paytda ishlab navbatma-navbat ishlov berilsa uni o'rganish qulay bo'ladi. Asosiy ko'p davom ettiriladigan qalamsuratni ishlashdan avval albatta kichik qoramalar chizish shart. Shunda har bir tasvirni o'zaro muvofiqlashtirib kompozitsiyasini topish engil ko'chadi.


### **Odam qiyofasini tasvirlashda qalamtasvirning o`rni va ahamiyati.**

Qalamtasvir- barchatasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni avvalo, qalamda chizishdan boshlaydi. Inson a'zolari va qomatini perspektiva jihatdan to'g'ri tasvirlashda u oddiy geometrik shakllardan foydalanish usulini ishlab chiqqan. Bu usul qalamtasvir bajarishda katta malakaga ega rassomdan tortib, badiiy ijodga endigina qadam qo'yayotgan o'quvchiga ham katta yordam beradi.

Madumki, tasviriy san'atda, xususan, qalamtasvir bajarishda mashg'ulotlar tizimi soddadan murakkabgacha tartibida tuzilishi kerak. Shuning uchun o'quvchi birinchi bor naturadan kiyimdagi inson tasvirini chizishdan oldin uning gipsdan ishlangan namunasini tasvirlab, o'z malakalarini osliirishi lozim. Bunda o'quvchiga inson skeletini chizish davrida olgan bilim va malakalari qo'l keladi. Shuningdek, u turli qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun naturadan insonning turli holatlarini tasavvur yoki xotiraga asoslanib, mashqlar bajarsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Insonning anatomik tuzilisliini tirik, harakatdagi inson

misolida o'rganish mushkul bo'lgani sababli mazkur vazifani bajarishda mashhur fransuz haykaltaroshi Jan Antuan Gudonning «Ekorshe» gips modelidan foydalanib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Gipsdan ishlangan ushbu anatomik model o'zida inson tanasining terisiz holatini aks ettiradi. Uni chizish orqali odam tanasining plastik asosi hisoblanuvchii muskullar tuzilishini o'rganish imkonini beradi. Model old tomoni bilan biroz balandlikka o'rnatiladi. Bunda jism yoritilganlik darajasiga e'tibor beriladi va yorug'lik yuqori-yon tomondan tushishi va hosil bo'lgan soyada model shakli yaxshi anglashi kerak. Shuningdek, rassomning yon tarafga uzoqroqqa skeletni xuddi shunday holatda joylashtirish bir-biri bilan bo'g'im va paylar orqali birikgan alohida suyaklardan tashkil topgan karkas modelni aniq tasavvur etish imkonini beradi. Skelet suyaklari inson tanasining plastik va nisbiy tuzilishini namoyon etadi. Chunki suyaklarning o'lchami tana qismlari o'lchami va nisbatlarini belgilab beradi. Ularning o'zaro birlashgan joyi esa, tana harakatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, suyaklar qattiq va ularning shakli o'zgarmas, mushaklar esa, harakat davrida kichrayib yoki kattalashib turadi, bu esa, endi ijodga kirayotgan yosh rassomlarni chalg'itishi mumkin. Rasm chizuvchilar bir-birlaridan eng kamida bir-ikki anatomik model uzunligiga teng masofada joylashadi. Shunda model va uning markaziy chizig'i barchaga ko'rinadi. Markaziy chiziq juft (simmetrik) shakllarni ishlash chog'ida mo'ljal vazifasini o'taydi. Yosh rassomlar modelni yon tarafdan, markaz chizig'i tos suyagi bilan aralashib ketgan ko'rinishidan rasm chizmasligi kerak. Chunki bu yerda rassom uchun simmetrik juft shakllarni solishtirish imkoni bo'lmaydi. Anatomik model rasmini ishlashning boshlang'ich bosqichi boshqa jismlar rasmini ishlashdan farq qilmaydi. Bunda jism sinchkovlik bilan tahlil qilinadi. Rassom modelni o'rganadi va ko'rish nuqtasini tanlaydi. Ijodkor tasvir vositalarini tayyorlab ishga kirishadi. Model berilgan bichimdagi qog'ozga to'liq sig'ishi uchun, avvalambor, modelning eng yuqori va eng pastki nuqtalarini aniqlab olishi zarur. Rasm ishlash jarayonida tasvir qog'ozning markazida joylashishi kerak. Rasmni bir ko'rish nuqtasidan chizish katta ahamiyatga ega, ammo jismning turli tomonlarini bilish va kuzatish kerak. Shuning uchun tajribali rassomlar aytganidek,

jismni old tomonidan chizayotganda, uning yon tomonlari va orqa qismini ham tasavvur etish lozim. Odam rasmini ishlash vaqtida doimo shuni yodda tutish kerakki, hajmli shakllar rasm chizishning asosi bo'lib hisoblanadi, rasm chizish ketma-ketligi esa, umumiydan alohida qismlarga va qismlardan boyitilgan umumiy tasvirga o'tish tartibida amalga oshirilishi lozim. Naturadan rasm chizish tartibiga amal qilmaslik natijasida, ishlangan tasvir notabiiy ko'rinish kasb etadi. Har bir ish o'z boshlanishi, davom etishi va





yakunlanishiga ega bo'lganidek, rasm chizish jarayoni ham ushbu to'rtta bosqich asosida amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, umumiydan qismlarga, oddiydan murakkabga o'tish tartibi rasm chizish jarayonidagi asosiy bosqichlari hisoblanadi. Ish boshlash avvalida rassom rasmning umumiy ko'rinishini belgilab oladi. Bu yerda u shaklning joylashuvi, harakati va xarakterini hisobga olishi lozim. Rasm chizishda modelni u joylashgan gorizontal yuzaga nisbatan kenglikda, tik holatda to'g'ri joylashtirish katta ahamiyatga ega. Buning uchun, avvalambor, bo'yin chuqurchasidan tos suyagi tomon cho'zilgan va dum suyagi bilan yakunlangan markaziy o'q chizig'i holatini aniqlash zarur. Inson tanasi simmetrik va uning markaziy o'q chizig'i tors (tana asosi) harakatini aniq ko'rsatib beradi.

Ko'pincha yosh rassomlar tomonidan ishlangan tik holatdagi model yiqilayotgan ko'rinish kasb etadi. Buning asosiy sababi markaziy og'irlik chizig'i bo'ylab tushirilgan vertikal tasvirlanayotgan inson oyoqlariga yoki tana og'irligi tushayotgan oyoqqa to'g'ri kelmaydi. Rassom tananing asosiy qismlari bir-biriga nisbatan qanday holatda joylashganini aniqlashi muhimdir (qaysi oyoqqa tana tiralgan, tos suyagi oyoqlarga nisbatan qanday holatda joylashgan va u qay darajada egilgan, bosh va qo'llarning burilganligi va h.k. Model harakati rasmda



to'g'ri ifodalanishi uchun esa, o'quvchi uning harakatini va joylashuvini to'g'ri tahlil qilishi muhimdir.

Shakl holatini aniqlash uchun og'irlik tushish markazi va uning yo'nalishini aniqlash zarur. Og'irlik tushish markaziga ko'ra, tana qismlari shunday joylashishi kerakki, bunda tana muvozanatda yiqilmay turishi kerak. Rasmda inson tasvirini chizish vaqtida tayanch o'q holatini to'g'ri belgilab olish sxematik tarzda ko'rsatilgan. Mukammal tuzilgan odam tanasining og'irlik tushish markazi bilan, tik turgan holatda og'irlik tushish markazining o'rtasida ancha farq bor. Yosh rassomlar ishidagi asosiy kamchilik ko'p hollarda quyidagi asosiy nisbatlarni aniqlash bilan bog'liq bo'ladi: Bosh butun tana uzunligiga nisbatan haddan tashqari katta yoki kichik, oyoqlar qisqa, qo'llar uzun va h.k. Model tasvirini to'g'ri



ishlash uchun doimiy ravishda asosiy nisbatlarni e'tiborda tutish kerak. Buning uchun o'lchov vositasi sifatida, masalan, bosh balandligini olish mumkin. «Ekorshe» gips modeli rasmini ishlashning dastlabki bosqichida rassom butun modelning umumiy ko'rinishini belgilab olishi lozim. Model qog'ozda belgilab olinganidan keyin, chizishni ko'rsatilgan ketma-ketlik bo'yicha quyidagi suyaklar birlashgan joyini topishdan boshlanadi. Buning uchun quyidagilarni anglab olish kerak:

- Modeldagi oyoqlarning holatini belgilash uchun tos va son suyaklari birlashgan joyni aniqlash;

- Tizza bo'g'imi va qopqog'i holatini topish uchun son va boldir suyaklari birlashgan joyni aniqlash;

- Ichki va tashqi tovon yuqorisidagi do'mboqlar holatini belgilash uchun boldir suyaklarining tovon bilan birlashgan joyini aniqlash;

- Ikki o'mrov suyagining ko'rak va yelka suyaklari bilan birlashgan joyini aniqlash;

- Tirsak bo'g'imi joylashuvini belgilash uchun yelka suyagining bilak va tirsak suyaklari bilan birlashgan joyini aniqlash;

- Bilak va tirsak suyaklarining qo'l kafti bilan birlashgan joyini aniqlash lozim. Rasm chizishda ushbu joylar mo'ljal vazifasini o'taydi. Anatomik model rasmini chizishni oyoqdan ham boshlash mumkin. Oyoqni tosdan boshlab qismlarga bo'lib chiziladi. Bunda qismlar juft-juft (ikki oyoqdagi mushaklarni bir-biri bilan solishtirgan holda) chiziladi. Avvalambor, sonning tizzagacha bo'lgan qismi, so'ngra tizzadan boldirgacha bo'lgan qism va eng oxirida tovon shakli aniqlanadi. Son shakli teri ostida joylashgan mushaklar tuzilishiga bevosita



bog'liq. Dastlab rasmda tos suyagidan pastga tushuvchi sonning to'g'ri mushagi yengil chizgilar bilan belgilab olinadi. Shundan so'ng, sonning ustki qismini shakllantiruvchi ustki tashqi serbar mushagi va ichki keng mushak chiziladi. Ko'rsatib o'tilgan mushaklarning pastki qismi tizza qopqog'i hisoblanadi. Chizishda qulaylikka erishish uchun taranglashtiruvchi serbar mushakni hamda undan biroz yuqoriroqdagi o'rta dumba mushagini belgilab olish kerak. Sonning yuqori-ichki qismidan yaqinlashtiruvchi uzun mushakni aniqlash lozim.

Boldir suyagi tuzilishiga o'tish davomida, avvalambor, katta boldir suyagining qirradi yo'nalishini to'g'ri aniqlanadi va u tizza bo'g'imidan ichki tovon do'mbog'igacha belgilanadi. Shundan so'ng, ichki va tashqi tovon holati va shakli aniqlanadi. Boldirning butun ustki yuzasi bo'ylab, kichik boldir suyagining boshchasidan tortib kichik boldir mushaklarini belgilab chiqish kerak. Boldirning ichki tarafidan boldir mushakning lateral boshchasi va kambalasimon mushak belgilanadi. Shu yo'l bilan rasmda boldirning old va yon tarafdagi yuzalari aniqlab olinadi. Tovonning umumiy shaklini chizishda boldir va tovon suyaklarini birlashtiruvchi boldir-tovon bo'g'imini e'tiborga olish muhimdir. Boldir-tovon birikmasi birlashtiruvchi (sharnir) vazifasini o'taydi. Uning ko'ndalang o'qi tovonning tovon usti suyagi blokidan o'tadi. Boldir suyaklarining pastki qismi tovonning oshiq va oshiqboshchasi qismi bilan ichki va tashqi tomondan birikib boldir-tovon bo'g'imini hosil qiladi. Rasmning umumiy tasvirini ishlash uchun o'quvchi sxematik tarzda tovonning yoysimon tuzilishini tushunib oshlari lozim. Bunda tovonning kaft suyagi va oyoq kaft usti suyagi yoy hosil qilib bir-biriga tiralishini ko'rsatib berish kerak. Yoylar prujinasimon xususiyatga ega bo'lib, ular oyoqning ammortizatsiyasi bo'lib hisoblanadi. Barmoq falangalari ham tovonning ba'zi holatlarida og'irlik tushish markazi bo'lib xizmat qiladi. Rassom tovon rasmini chizishni oyoqning tag qismi holati, tayanch qismlar va barmoqlaming shaklini aniqlashdan boshlashi kerak. Tovondagi oyoq-kaft suyagiga bosh barmoqning birlashgan qismi hamda bosh




usti suyagi yoy hosil qilib bir-biriga tiralishini ko'rsatib berish kerak. Yoylar prujinasimon xususiyatga ega bo'lib, ular oyoqning ammortizatsiyasi bo'lib hisoblanadi. Barmoq falangalari ham tovonning ba'zi holatlarida og'irlik tushish markazi bo'lib xizmat qiladi. Rassom tovon rasmini chizishni oyoqning tag qismi holati, tayanch qismlar va barmoqlaming shaklini aniqlashdan boshlashi kerak. Tovondagi oyoq-kaft suyagiga bosh barmoqning birlashgan qismi hamda bosh

barmoqning shaklini yengil shtrixlar bilan belgilab olib, tovonning ichki yoysimon qismi va qolgan to'rt barmoqning umumlashgan shakli aniqlanadi. Shuningdek, tashqi yoy shakli ham belgilab olinadi. Tovu rasmining umumiy ko'rinishini chizish so'ngida tovon payining holati va shakllarining orqa tomondan ko'rinishi aniqlanadi, har bir barmoq shakli va tovonning yoysimon qismi (old va yon tomondan ko'rinishi) alohida belgilab olinadi. «Ekorshe» gips modeli oyog'ini chizib bo'linganidan so'ng tananing tos qismi shakli va tana asosi (torsni) aniqlashga kirishiladi. Bunda dastlab tos suyagining yonbosh suyagi holati va shakli aniqlanishi kerak. Tos rasmi ishlanganidan keyin yonbosh suyakdan boshlanuvchi qorinning o'rta chizig'idan mo'ljal chiziq sifatida foydalanish mumkin. o'rta chiziq juft shakllarni chizishda mo'ljal vazifasini o'taydi. Tana asosi (torsni) quyidagi ikki qismdan tashkil topgan, deb tasavur qilishimiz mumkin:

- Pastki qism- tosning yonbosh suyagi hamda jins va kindik oralig'idan boshlanuvchi, yon tomondan qorin mushaklari va yuqorisida qovurg'a yoyigacha bo'lgan qism;

- Yuqori qism- qovurg'a yoyidan boshlanuvchi va ko'krak qafasini hosil qilgan qism. Ko'krak qafasi rasmini chizish davomida, awalambor, o'mrov suyagi, to'sh suyagi va yuqoridagi beshta qovurg'a va ularning yuqori qismiga birikuvchi yelka suyagidan boshlanuvchi katta ko'krak mushaklarining holati va umumiy shaklini aniqlash lozim. Katta ko'krak mushaklari orasida to'sh suyagi yuzasi va uning pastki uchini (xanjarsimon o'siqni) belgilab qo'yish kerak. Shundan so'ng, o'ng qo'l yuqoriga ko'tarilganda ko'krak qafasining yon tarafida tish shaklini eslatuvchi va shuning uchun ham oldingi tishli mushaklar, deb nom olgan mushaklarning umumiy shakli aniqlandi. Bunda belning eng keng mushagining bir qismi ham ko'rinadi. Ushbu mushakni ham rasmda



belgilash zamr. Qorinning tashqi egri muskullari shaklini aniqlash va chizish bilan rassom tana asosi (torsni) yon tomoni yuzasini chizishni tugallaydi. Tana asosi (tors)ning oldingi pastki qismi eng oxirgi o'ringda chiziladi. Bunda asosiy e'tibor shartli o'rta chiziqqa mos keluvchi qorinning mushaklari yaxshi rivojlangan odamlarda yaqqol ko'zga tashlanuvchi qorinning to'g'ri muskullari va paylariga qaratiladi. Rasmda ko'krak qafasining oldingi tomonidan tosning oldingi tomonigacha cho'zilgan qorinning to'g'ri muskullari holatini tasvirlab, ko'priksimon pay shakli xarakterini va kindikni belgilash kerak. Yelka kamari rasmini ishlashga kirishish oldidan yosh rassomlarga o'mrov suyagining ichki boshchasi to'sh-o'mrov bo'g'imi yordamida birikishi va o'mrov suyagining uch yo'nalish bo'yicha harakatlanishini tushuntirib berish zamr. Shundan so'ng, o'mrov suyagining ikkinchi uchi yelka kamari va ko'krak bilan birikishi ko'rsatib beriladi, yelka kamari va qo'lning harakatlanishida muskullarning (deltasimon muskul, katta ko'krak muskuli, trapetsiyasimon muskul va h.k.) ahamiyati haqida tushuncha beriladi. Yarim chuqurchasi aniqlanadi va yelka kamarining tasviri juft holda tasvirlanadi. Bosh rasmi umumiy chizgilarda harakat xarakterini mujassamlashtirgan holda yelka kamari va bo'yin holatiga moslab bajariladi.

Qo'llar tasvirini ishlashga o'tishdan oldin, yelka kengligini tos kengligi bilan solishtirish kerak. Qo'llarning umumiy shakli ilk chizgilarda belgilab olingan edi. Shaklni aniqlashtirishda alohida bo'laklar holda ishlanadi: dastlab yelka bo'g'imidan tirsak bo'g'imigacha, keyin tirsak bo'g'imidan bilak-kaft bo'g'imigacha, oxirida esa, kaft rasmi chiziladi. Butun tana rasmini ishlashda bo'lgani kabi qo'llarni ham juft, parallel holatda ishlanadi. Bu juda ham qulay va foydadir, chunki bunday holatlarda chap va o'ng qo'lning turli ko'rinishda bo'lganida, shakldagi o'zgarishlarni kuzatish imkoni tug'iladi. Deltasimon muskulning holati va shakli tekshirilganidan so'ng, ushbu muskul yelkaning ikki boshli muskuli va uning tagidan chiquvchi yelka muskuli orasidan chiqadigan joy belgilab qo'yiladi. Kurakdan boshlanuvchi yelkaning ikki boshli muskuli deltasimon muskul ostidan chiqadi va pastga yo'naladi, tirsak chuqurchasida bilak suyagining yuqori qismiga birlashgan pay bilan birikadi. Yelka suyagidan tirsak

suyagi boshchasigacha davom etgan yelka muskuli teri ostida qisman ikki boshli muskul oldidan o'tadi. Ikki boshli muskulning ikki tomonida chuqurchalar mavjud va ular rassomga yelka va ikki boshli muskul chegaralarini aniq belgilash imkonini beradi. Qo'lning yon yuzasi yelka suyagining ichki tomonidan yelka muskullari bilan chegaralanadi. Bilak yuzasining umumiy shakli bir guruh muskullarning tashqi ko'rinishi asosida aniqlanadi: bular kaftni harakatlantiruvchi uzun va qisqa yelkabilak muskullaridir.

Model rasmini chizish yakunlanganidan so'ng, uni uzoqroq qo'yib, uzoqlashtiriladi va tasvirni natura bilan tez-tez nazar tashlash yo'li bilan solishtiriladi hamda yuqoridan pastga tomon nisbatlar aniqligi tekshirib chiqiladi. Model rasmini chizishda, awal yorug'lik-soya munosabatlarini hisobga olgan holda shtrixlar yordamida umumiy chizgilar chiziladi. Model umumiy hajmga ega bo'lishi uchun shakllarning bir yuzadan ikkinchi yuzaga o'tishini shtrixlar bilan ajratib ko'rsatish lozim. Shundan so'ng modelning alohida qismlari tasvirini ishlashga va har bir detalni aniqlashtirishga o'tish mumkin. Shaklni hosil qilish uchun faqatgina model tuzilishi tamoyillarini umumiy tarzda o'rganish vazifasi qo'yilgani uchun modelning mayda bo'laklarini ishlashga unchalik hojat yo'q. Masalan, quloq g'ovagi, burun, barmoq bo'g'imlari va hokazolar chegaralangan vaqt davomida ishlanayotgan rasmda ifodalanmaydi. Chiziqli-konstruktiv rasmlarda rassom modelning katta va kichik qismlarini umumiy lashtirib bir shakl ko'rinishida tasvirlay olishi, hamda shaklning konstruktiv tuzilishidan foydalanib, ushbu modelning tabiiy shaklini ko'rsata olishi yetarlidir

Shunday qilib, gipsdan ishlangan anatomik model rasmini chizish bosqichlarini ko'rsatib o'tamiz:

1. Model cliizish awalida yengil chiziqlar va shtrixlar bilan kompozitsiya jihatidan qurib, cliiziqli konstruktiv asosida chiziladi.
2. Chiziq shakl ajralib cliqqunicha bosqichma-bosqich doimiy ravishda qalinlashtirib boriladi.
3. Model shaklini simmetrik qilib chizish kerak, bunda juft shakllar va ularning perspektiv o'zgarishi solishtirib boriladi.

4. Modelga tez-tez qarab gohida rasmning tuzilishi, goliida esa, qismlari va umumiy shakli tekshirib boriladi.


5. Vazifani bajarishda rassomni chalg'ituvchii kichik detallar tasviriga rasm so'nggida, umumiy tasvir hosil qilingandan so'nggina e'tibor berilishi kerak.

***Tirik odam rasmini chizishning talab va bosqichlari:***

Tasviriy san'atda inson qiyofasini tasvirlash qadimdan rassomlami o'ziga jalb qilib kelgan.

Tabiatda inson eng mukammal va serqirra obyekt hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha badhy o'quv dargohlarida inson qiyofasi, uning portretini tasvirlashga ko'p vaqt ajratiladi. Tirik modelni (yalang'och model tasvirini) chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy mashg'ulotlar davomida egallangan malaka talab etiladi. Tirik modeldan rasm chizishning mushkul tomoni shundaki, bunda model qimirlamasdan, bir xil holatda tura olmaydi, ya'ni chizish davomida u bir necha bor o'z holatini o'zgartiradi. Boshqa tomondan tirik modelda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib turishi, ulaming tuzilishi, nisbati, vazifasi

va harakat xarakterini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, model o'z holatini o'zgartirganida, rassom tasawuri va xotirasiga asoslanib, chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda muhim bo'lib, qalamlar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir. Tirik inson modeli (yalang'och inson qiyofasijni chizish mashg'ulotlarini tashkil etish va undagi rasm chizish ketma-ketligi gipsdan ishlangan model tasvirini ishlash jarayoni bilan deyarli



bir xil. Model taglik ustida taxminan 40 sm balandlikda erkin holatda, rassomga qarab, bir oyog'iga tiralib - ushbu holatda chap oyog'iga tirahb turishi kerak. Model holati Gudonning «Ekorshe»sini eslatadi. Bukilgan chap qo'l tana qismining orqa tarafida bo'lib, o'ng qo'l erkin holatda pastga osilib turibdi. Bu yerda chap oyoq og'irlik markazidir. O'ng oyoq esa, chap oyoqqa nisbatan biroz oldimoqda joylashgan va erkin holatda turibdi. Modelga yuqori-yon tarafdin kuchsiz yorugMik tushishi kerak. Anatomik tuzilish bo'yicha to'liq tasavur hosil qilish uchun, modeldan uzoqroq masofada odam skeleti yoki Gudonning «Ekorshe»sini joylashtirish tavsiya etiladi. Bundan asosiy maqsad, oldingi vazifada olingan bilim va malakalami tirik odam rasmini chizishda taqqoslab, nisbatlar hamda muskullar tizimini yanada aniqroq tasavur etishdan iboratdir. O'quvchilar bir-birlaridan eng kamida model bo'yiga bir barobar keladigan masofada, naturadan esa, eng kamida qomatning uch barobari darajasidagi masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyog'igacha perspektiv o'zgarishlarda ko'rish imkonini beradi. Rassom tasviming joylashish o'rni va o'lchamlarini - rasm kompozitsiyasini belgilaydi. Model pozasi va harakatidan kelib chiqqan holda modelning umumiy holati va model massasi qalam bilan yengil chizib chiqiladi. Turgan holatdagi model rasmini chizishni dastlab old tarafdin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatda



rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyoq osti va ular orasidagi masofa turgan modelning tayanch maydoni hisoblanadi. Og'irlik markazidan o'tuvchi tik chiziq tayanch maydonidan o'tganda ham model muvozanat holatida tik turgan, deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo'ladi. Bir oyoqqa tiralib turganda, model holati og'irlik markazi bo'ylab tushirilgan tik tayanch oyoqning tovon



qismidan yoki uning yonidan o'tadi. Yalang'och odam tasviri chizilganda model holati ana shunday bo'lishi lozim.

Rasm chizishning dastlabki bosqichida harakat holati va asosiy nisbatlarni ko'rsatgan holda butun modelni umumiy ko'rinishini yordamchi chiziqlarda tasvirlash muhimdir. Tasviriy san'at qonun va qoidalaridan bizga malumki, tabiatdagi barcha shakllar geometrik sirtlarga o'xshash shakllar tarkibiga asoslanadi. Shuning uchun ham ushbu holatga misol tariqasida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin. Bu yerda model harakati yaqqol ko'zga tashlanadi. Yelka kamari tosga nisbatan deyarli to'g'ri burchak bo'yicha burilgan, bosh orqaga qayrilgan. Yanada oydinlik kiritish maqsadida A. Dyurer ko'krak qafasini geometrik shakl asosida, perspektiv o'zgarishlarni ko'rsatib, sxematik tarzda tasvirlagan. Og'irlik markazidan podium yuzasidagi kesishish nuqtasigacha tik chiziq chiziladi. Ushbu nuqtaga asoslanib, ikki tovonning o'zaro joylashuvini izlash kerak. Har bir oyoq turgan joy tovon uzunligi darajasida belgilanadi. Katta oshiq (sonning tos bilan birlashgan qismi)dan pastga, oyoq joylashadigan joy markazi tomon tana tiralgan oyoqning umumiy yo'nalishini ko'rsatuvchi to'g'ri chiziq chiziladi; ikkinchi sonning katta oshig'idan erkin turgan oyoqning avval tizzagacha bo'lgan qismi, keyin esa, tovon markazigacha bo'lgan qismi chiziq bilan belgilanadi. Og'irlik markazidan o'tuvchi va rasmda belgilangan boshning yuqori qismigacha davom etuvchi tik chiziqning umumiy uzunligi model balandligini tashkil etadi. Tos erkin holatda turganida, og'irlik markazidan tushirilgan vertikal yarim chuqurchasidan o'tadi. Hosil bo'lgan umumiy tik chiziqqa tananing quyidagi alohida qismlari chegaralarini ko'rsatuvchi belgilar chiziladi: oyoq, ko'krak va bosh o'lchamini ko'rsatuvchi belgilar. Bu yerda boshning o'rta chizig'i mo'ljal qilib olinadi va bosh holati oval shakl bilan belgilanadi; shu usul bilan boshning burilish darajasi va harakati aniqlanadi. Ishning bu bosqichida rasmning obrazli xarakteriga ta'sir qiluvchi modelning yuqori, o'rta, pastki qismi nisbatlariga to'xtalib, pedagog rassomlarga baland, o'rta va past bo'yli odamlarda boshning butun tana uzunligiga nisbati qanday bo'lishini,

shuningdek, erkak, ayol va yosh bola qomatlari nisbatlari o'rtasidagi farqlarni tushuntirib berishi kerak.

Bosh balandligi va yarim chuqurchasining joylashuvi butun model balandligiga nisbatan belgilangandan so'ng, yengil chiziqlar bilan o'mrov suyaklari yo'nalishi chiziladi. So'ngra modelning yarim chuqurchasidan to'sh suyagining xanjarsimon o'sig'i, undan kindik va rasmdagi asosiy o'zgarmas nuqtalardan biri bo'lgan tos suyagining boshlang'ich qismi - yonbosh suyak tomon cho'zilgan shartli o'rta chiziq aniqlanadi. Rasmga ko'krak so'rg'ichlaridan o'tuvchi gorizontaal chiziq chiziladi; keyin tos suyaklarining qirralaridan chiziq o'tkaziladi va shu yo'l bilan tosning gorizontaal chiziqqa nisbatan qiyalik darajasi aniqlanadi. Ikki oyoqqa tiralib turgan model holatida tos gorizontaal holatda bo'ladi. Tananing barcha og'irligini bir oyoqqa o'tkazilganida, tos og'irlik tushmagan oyoq tomonga egiladi. Tosning yuqori qismi chizig'i yonbosh suyakning ko'rinib turgan qirralariga asoslanib belgilanadi.

Keyin ikki son suyagi boshchalari o'rtasidagi chiziq belgilanadi. Tana og'irligini ko'rsatib turgan sonning tos bilan birlashgan boshchasi aniq ko'rinib turadi; ikkinchi oyoqning son boshchasining joylashish o'rni o'zgarganligi tufayli, uning o'rnida chuqurcha hosil bo'ladi. Ikki son boshchalari o'rtasidagi chiziqqa parallel ravishda, rasmda shtrixlab qo'yilgan tosning yuqori qismidan o'tuvchi, chiziq belgilanadi. Tos chizig'iga parallel ravishda ikki oyoqning tizza qopqoqlaridan o'tuvchi chiziq chiziladi (son boshchasi va to'piq o'rtasida). Bunday usulda chizilgan belgilar tik chiziq bo'yicha model nisbatlarini aniqlashga yordam beradi. Modelning asosiy qismlari kengligi - tosdan tovongacha va tosdan boshning yuqori chegarasigacha bo'lgan qismi shtrixlar yordamida oydinlashtiriladi. Ikki oyoqning yon tomonlari va tos, tors, yelka, qo'l, bo'yin va bosh ham shtrixlar bilan chizib chiqiladi. Ishning keyingi bosqichida o'chirg'ich bilan yordamchi chiziqlar va tasvirlangan model ichidagi barcha belgilangan yordamchi chiziqlar o'chiriladi, shundan so'ng tasvirning o'tchami va chegaralari natura bilan yana bir bor solishtiriladi. Buning uchun dastlab tasvir hajmini ko'rsatib beruvchi asosiy soya va tus munosabatlari rasmda aks ettirilib, natijada

nisbatlarni to'g'rilash va konturlarga shtrix bilan aniqlik kiritish imkonini paydo bo'ladi. Bunda modelning to's va boshdan boshlab, oyoq va qo'lgacha bo'lgan qismlari ustida ish olib boriladi. Oyoq-qo'lning - yelka, tirsak, tizzalarning bukilgan joylariga shtrixlar yordamida yorug'-soya yordamida tus beriladi. Qo'l kaftlari va tovonlar birgalikda ishlanadi, model tasviri shtrixlar bilan ishlanadi va shakl hajmi yorug'lik-soya munosabatlari asosida ko'rsatiladi. O'quv mashqni bajarish davomida qalamni botirib chizish mumkin emas, chunki xatolarni tuzatishda rasm qorayib ketadi va tasvir yaxshiligi buziladi. Odamning gips anatomik modellari va tirik inson qiyofasini amaliy jihatdan o'rganib chiqish hamda ularning tasvirini amaliy bajarish bilan bir qatorda, yosh rassomlar oyoqning tovon qismi va qo'l kaftini chizishni o'rganishlari kerak. Inson tana a'zolarining anatomik tuzilishini bilmay turib, ularni mahorat bilan chizib bo'lmaydi. Qo'lning kafti va oyoqning tovon qismini turli holatlarda chizish ko'nikmasini egallash tasviriy san'at asoslarini o'rganayotgan o'quvchilar uchun katta ahamiyatga ega. Usta rassomlarda bir naql borki, insonning portreti bilan qo'l kaftlarini tasvirlash birdek qiyin hamda maroqli va o'ziga xosdir. Qo'l-oyoqni chizish ijodiy amaliyot uchun juda muhim, shuning uchun ularni anatomik bilimlarga asoslanib alohida o'rganish tavsiya etiladi. O'rganuvchilar uchun qo'l-oyoqni chizish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirishlii mumkin, ammo ularni erkin chizish olish yosh rassomdan ushbu yo'nalishda professional mahoratga ega bo'lishni talab etadi. Bunda oyoq tovonini va qo'l kaftini chizishga mo'ljallangan maxsus mashg'ulotlarning o'tkazilishi maqsadlidir. Oyoq shaklini chizish mashg'ulotlari quyidagicha o'tkaziladi. Naturni auditoriya o'rtasida joylashtirilishlii uni turli tomonlardagi ko'rinishini chizish imkonini beradi. Model yoniga uning oyoqlar holatini takrorlovchi holatda oyoq skeleti joylashtiriladi. Shuningdek, yordamchilii model sifatida tovonning gipsdan ishlangan namunali shakl joylashtirilishlii kerak. Model shakli har tomonlama yaxshilii ko'rinishlii uchun, u bir qancha yorug'lik manbalari orqali yoritiladi. Qo'l va oyoqning har biri bir necha ko'rinish nuqtasidan chiziladi. Model shunday joylashtirilishlii kerakki, bunda o'quvchilar yaqin masofadan turib tasvirlanayotgan shaklni to'liq ko'rinish imkoniga

ega bo'lishsin. Modelning yuqori old tomoniga o'rnatilgan chiroq umumiy hajmli massani ifodalash bilan birgalikda, muhim ahamiyatga ega bo'lgan detallar, ya'ni yorug'-soya va tusalarda ifodalanuvchi bo'g'imlar relyefmi ham ko'rsatib beradi. Bunda shaklning katta qismini to'suvclii va tasvimi borligicha qabul qilishga to'sqinlik qiluvchi soyalar bo'lmaydi. Ushbu topshiriqni bajarishda asosiy e'tibor qo'lning anatomik tuzilishiga qaratiladi. Topshiriqni bajarish jarayonida o'quvcliilar anatomik qo'llanmalar va katta rassomlar asarlaridan foydalanishlari juda mulimdir. Oyoqlar qo'llar singari katta tasviriy ahamiyatga ega. Oyoqning tuzilishi va plastikasini aniqlab uning tuzilishi, ta'sirchanligi, odamning qadam tashlashi ma'lum miqdorda oyoq tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, nisbatlari aniqlanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, oyoq tuzilishli tananing eng muhim qismlaridan biri sifatida o'rganilishi lozim. Tovuinning o'ziga xos tuzilishi butun tana tuzilishiga asoslanib, u turli burchaklar bo'yicha harakatlanish imkonini yaratadi. Oyoq tovonni tuzilishini o'rganish va ularni chizish bo'yicha amaliy bilimni o'zlashtirish jarayoni bosh suyagi tasvirini chizish malakasini egallashdagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Dastlabki bosqich skeletni turli burilishda anatomik qismlar bo'yicha chizishdan iborat. Oyoqning tovon qismi - bu kenglikdagi hajmli shakl bo'lib, u murakkab tuzilishga ega. Tovuon yurish, yugurish, sakrash va h.k.larda sakrash prujinasi vazifasini o'taydi. Tana tovonga bosim berganida, u tekislashadi, ya'ni prujinasimon spiral qirqimiga o'xshash ko'rinishga ega bo'ladi. Bosim kamayganida yoy o'zining dastlabki shakliga qaytadi. Tovuinning yoy qismi shakli paylar yordamida o'z holatini saqlab turadi. Tovonga birlashgan barmoqlar ham prujina singari amortizator vazifasini o'taydi (108-rasm). Skeletda tovonni katta suyakdan boshlab ko'rsatib va oyoq kafti, kaft usti suyaklari, barmoq falangalarini birlashtirib, tovonning turli harakatlar qilishini ta'minlovchi boldirning qo'zg'aluvchi pastki bo'g'imi xususiyatiga e'tiborni qaratish lozim. Naturadagi tovonning turli ko'rinish va burilishdagi chiziqli-konstruktiv tasviri tovon shaklini to'liq eslab qolishga ko'maklashadi. Tovuon shaklining o'quv mashq vazifasi quyidagi bosqichlar asosida chiziladi.

***Qisqa muddatli o'quv va xomaki rasmlar chizish.***

Xomaki rasm, odatda, qisqa, ba'zan esa, juda qisqa va o'ta cheklangan vaqt davomida, ko'p hollarda rasm chizuvchining o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda bajariladigan predmet dunyosining umumlashtirilgan to'liqsiz tasviridir. Bunda ishni tezlashtirish maqsadida eng kam grafik vositalardan foydalaniladi. Murakkab shaklni faqat uning asosiy, mayda ikir-chikirlarsiz tipik, o'ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmet dunyosining realistlik tasvirini umumlashtirilgan, deb hisoblamoq kerak. Shuning uchun ham xomaki rasm ko'p hollarda «yaxlit, ko'zga ko'rinib turgan predmetning qism, bo'lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi». Xomaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umumlashtirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniladi. Shuning uchun o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmni boshlashdan avval o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng, kerakli joyni tanlab olgandan so'ng asosiy ishga kirishishni maslahat berishadi. Chunki xomaki rasm muvaffaqiyat bilan topilganda, naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chizgi - xomaki rasimga nisbatan ancha to'liq hisoblanadi. Lekin ba'zi hollarda u davomli o'quv rasimga qaraganda, ancha qisqa vaqt oralig'ida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo'lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishlash vaqtini, odatda, rasm chizuvchining o'zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek, uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga qo'yadigan talablariga bog'liq.

Naturadagi chiziladigan chizgi xuddi xomaki rasmning detallar bilan boyitishni kabidir. Naturaning qay holda yuzaga chiqarishiga qarab, chizgi xomaki rasm bilan davomli rasm o'rtasidagi oraliq bir vosita bo'lib qoladi. Boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, naturadan chizilgan xomaki rasm ishida o'sha naturadan davom ettirilgan ish sekin-asta chizgiga aylanishi mumkinki, bunda rasm ikir-chikirlariga batafsilroq to'xtaladi. Xomaki rasm bilan chizgi o'rtasidagi farq u yoki bu rasmni chizish uchun sarflanadigan vaqtdan emas, balki asosan ish usulining o'zidan ham iboratdir. Chizgi boshidan oxirigacha naturadan

chizish orqali bajariladi. Xomaki esa, nafaqat, naturadan, balki xotiradan, tasawurdan, idrokdan, shuningdek, barcha usullarni ham qo'llab chizilishi mumkin. Xomaki rasmlar ijrosining aynan shu xildagi usullari keyinchalik, nafaqat, umuman rasm chizishga o'rgatish, balki yuqorida aytib o'tilgan bo'lajak rassom uchun zarur bo'lgan sifatlar yig'indisini tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Xomaki rasm va chizgilarga o'rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo'llaniladigan shaklan yaqin bo'lgan (yoki mazmunan shu kabi) obyektlardan foydalaniladi:

- 1) «O'lik» (tirik bo'lmagan) natura, (nalyurmorl);
- 2) O'simliklar;
- 3) Hayvonlar;
- 4) Inson.

Ta'lim uslubiyatini qisqa muddatli rasmlarda qurish uchun, ya'ni o'quv mashg'ulotlari izchilligi va mazmuni hamda ularni hal qilish usullarini belgilab olish uchun har xil xomaki rasmlar ijrosining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib yetish kerak va birinchi navbatda, qisqa muddatli rasmlar ijrosi bilan (xomaki va chizgilar) davomli rasmlar ijrosi usullarida o'rtasidagi farq nimadan iborat ekanligini bilib olish zarur

Xomaki rasmlar va ularni bajarish usullari. Idrok etishning «umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan - umumiylikka» tasvirlash usuli ta'lim jarayonida bosqichlar bo'yicha davomli o'quv rasmini bajarishda o'z tasdig'ini topadi. Tasvirlanayotgan predmet shaklini umumlashtirilishining so'nggi yakuniy bosqichi qog'ozga tushirilgan narsani yaxlit birlikka yig'ish va birlashtirishdan butun rasm bo'ylab aniqlik kiritish va nur soya nisbatlarini bitta yaxlitlikka keltirish, ya'ni tasvirlanayotgan shakl va ana shu shakl turgan kenglikni tutashtirishdan iboratdir. Naturadan uning o'ziga xos xususiyatlari bilan qisqa xomaki rasm chizib olish, asosan, tez ko'rish va idrok qila bilish qobiliyatlarini o'stirish uchun mo'ljallanadi. Kuzatish, idrok qilish va xomaki rasmni ijro etishlar ko'p hollarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Shuning uchun xomaki rasm ustida ishlashning yakuniy bosqichi sifatida umumlashtirish haqida alohida to'xtalishga to'g'ri kelmaydi.

Xomaki rasmlar chizishda foydalaniladigan usullarni farqlash xomakilarning olti turini belgilab olish imkonini beradi. Xomaki rasmlar va ularning turlari quyidagilardan iborat:

- Naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha bevosita ijro etiladigan xomaki rasmlar;
- Kombinatsiya usuli bilan (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz - xotira bo'yicha) ijro etiladigan xomaki rasmlar;
- Faqat xotiradan bajariladigan, ya'ni kuzatishdan keyin biror vaqt o'tgandan so'ng, ongda ko'rish qobiliyati mustahkamlanganidan keyin chiziladigan xomaki rasmlar;
- Insonning avval ongida qabul qilingan ba'zi predmetlar, tirik obyektlar va atrof-borliq hodisalar haqidagi tasawurlarni jonlantirish qobiliyati bilan bog'liq tasawurlar bo'yicha ishlanadigan xomaki rasmlar;
- Kompleks usul bilan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ish usullarini, jumladan, tasavvur bo'yicha usullarini qo'llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar;
- Xayolga keltirish bo'yicha - biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, sujet va hokazo predmet va hodisalar haqida o'z tasawurlarini jonlantirib tiklash asosida dastlabki umumlashgan tasvimga xomaki rasmlarini chizish.

Xomaki rasmlarning ikkinchi, uchinchi va beshinchi turlari bitta umumiy alomatlar bilan birlashadi, chunonchi: xomaki rasm chizish bilan bir vaqtda sodir bo'ladigan yoki xomaki rasm chizishdan sal oldin bo'ladigan naturani ancha yuzaki va tez kuzatish bilan yuzaga keladigan majburiy alomat bilan.

Agar bunda ijro vaqti cheklanmasa, u holda bunday naturadan chiziladigan xomaki rasm chizgiga aylanib qolishi mumkin. Bu shart-sharoitlardan bittasi - naturani kuzatish va xomaki rasm ijrosi uchun vaqtning cheklanganligi yoki cheklanmaganligidir. Bu o'z navbatida naturaning qo'zg'almasligi yoki qo'zg'alish darajasi (harakat tezligiga) bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xomaki rasm chizish usuliga, eng avvalo, ikki omil ta'sir qiladi: vaqt va naturaning holati. Bu o'zaro bir-biriga bog'liq omillardan tashqari ijrochi va uning ishlash

qobiliyatiga (binobarin, xomaki rasmdagi tasvir xarakteri va sifatiga) shuningdek, tashqi obyektiv shart-sharoitlar ham ta'sir qiladiki, ularga rasm chizuvchi moslashishi kerak bo'ladi (sinf, xona yoki ko'cha, ishlab chiqarish yoki transport, jamoa joyi, sport maydonchasi, yo'lka, sayilgoh va h.k.lar). Naturadan kuzatish bo'yicha xomaki rasm chizish faqat bitta shart bilan, ya'ni natura umuman qo'zg'almas, harakatsiz turgandagina boshidan oxirigacha bajarihshi mumkin. Bunday qiyofa natura, eng avvalo, so'zsiz jonsiz predmet (masalan, san'at, haykaltaroshlik asarlari, me'morchilik inshootlari, bezaklar, sabzavot, meva, gul, daraxtlar, ba'zi manzara turlari, shuningdek, maxsus qiyofa uchun turgan model (inson ham) bo'lishi mumkin. Xomaki rasmning maqsadi naturani to'liqsiz umumlashtirilgan ko'rinishini aks ettirishdan iborat bo'lgani uchun rassom nisbatan ancha bamaylixotir ishlaydi. Agar maqsad amalga oshgan bo'lsayu, natura hali qimirlamay turgan bo'lsa, u holda xomakilikdan chizgiga (lavhaga) o'tish mumkin. Bunda hatto qog'oz chetiga qo'shimcha, naturaning ba'zi bo'laklarini ancha batafsilroq chizgilarini ham chiqarsa bo'ladi (albatta, bunga zarurat tug'ilsa). Bunday holatda vaqt omili ish xarakteriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar naturaning qo'zg'almasligi shartli va tasodif bo'lsa, ba'zi hollarda u vaqtinchalik bo'lsa, ya'ni natura istalgan paytda, rasm chizuvchi uchun noma'lum bir soniyada o'z holatini, yuz qiyofasini, imo-ishorasini o'zgartirib qolsa va hatto nuqtayi nazardan umuman yo'qolib qolsa, u holda naturadan xomaki rasm chizishda ish xarakteri jiddiy tarzda o'zgaradi. Bunday holat tasodiflariga quyidagilarni keltirish mumkin: sayilgoh o'rindig'ida o'tirgan kishi o'midan turib ketsa yoxud jimgina yotgan it birdaniga akillay boshlasa, ushbu holat xomaki rasmini chizayotganda sodir bo'lishi mumkin. Peyzaj xomaki rasmi (yoki chizgi)ni chizayotganda, ob-havo yoki yoritilish holati o'zgarishiga ishonch hosil qilish kerak emas. Chunki birdan shamol turib qolishi, tekis suv yuzasini to'lqinlar, osmonni to'satdan qora bulutlar qoplashi mumkin. Tabiatda tirik natura rassom ustaxonasi yoki sinfdagi o'quv ishi kabi bir maromda turmaydi. U o'z hayotida davom etadi va uning tabiiy, vaqtincha qo'zg'almay turishi darhol, ba'zida esa, kutilmaganda aks holat kasb etib qolishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, aynan



tirik modelning bunday qo'zg'almas shartlari, ya'ni tinch, bamaylixotir qiyofa rassomning kuzatuvchan ko'zlari uchun eng qimmatdir. Aksincha, bir xil holatda maxsus turgan tirik model doimo o'z ifodaliligini yo'qotadi, chunki har qanday holatda ham sun'iylik mavjud bo'ladi. Buning ustiga sizga qarab turgan siymo ham oxir-oqibat charchaydi, bu esa, uning qiyofasiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shuning uchun ham xomaki rasmda qo'zg'almas tirik modelni muhrlab qo'yish uchun rassom doimo shay turishi lozim. Ishlash uchun mavjud vaqt davomida kuzatish va xomaki rasmni bajarishda har bir daqiqa, hatto har bir soniyadan unumli foydalanib qolish zarur bo'ladi. Shuning uchun usta rassomlar xomaki rasmlarni ishlashda «qisqa», «juda tez», «bir nigohda», «yashin tezligida», «bir zumda» tasvirlash kabi so'zlarni ishlatishlari ham bejiz emas.

Xomaki rasm chizishning muayyan maqsadi - kuzatish natijasini bir zumda qog'ozda aks ettirish. Sinfdagi mashg'ulotlarda, ayniqsa, xomaki rasm chizishga o'rgatilayotgan dastlabki paytlarda o'quvchilar kuzatishga ham, rasm ijrosi uchun ham doimo yetarli vaqtga ega bo'ladilar. Lekin sinfdan tashqari paytda xomaki rasm ustida ishlash, ya'ni bir vaqtning o'zida ham kuzatish, ham chizish paytida (hatto muhim turgan natura ustida ishlanayotganda ham) to'satdan uzilib qolishi mumkin. Ba'zan rassom tezroq o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi, bir varaqqa naturaning tipik hamda xarakterli xususiyatlarini darhol aks ettira qolishga harakat qiladi. Kuzatish vaqti ijro vaqtiga to'g'ri kehb qoladi. Ana shunday holatda naturani ko'rish idroki bilan, ijro etish keskinlashadi. Ya'ni e'tiborni chalg'itmay turib mayda, ikkinchi darajali ikir-chikirlarga berilmay, darhol predmetning eng asosiy zarur tomonlarini ilg'ab olishga, eng oddiy vositalardan minimal darajada foydalanishga harakat qilinadi. Eng awalo, bir nechta ishonchli chizgilar (yoki tus beruvchi dog'lar) bilan bo'lajak tasvining o'mi va o'lchamini uning «abrisi»ni belgilab olish zamr. Ana shunga qarab asosiy qismlari, konstmksiya va harakatlarini hisobga olgan holda naturaning butun massasini tushirib olish kerak. Agar natura o'z qo'zg'almas holatini saqlab turgan bo'lsa, darhol belgilangan fikrlarni detallashtirishga kirishmoq, eng asosiy, xarakterli xususiyatlarni tezroq ilg'ab olmoq zamr. Kombinatsiyalashgan (dastlab naturadan, keyinchalik xotira bo

'yicha) xomaki rasmlar chizish. Natura harakatga kela boshlashi, o'z holatini o'zgartira borishi bilan va rassom ko'zidan iz qolishi boshlanishi bilan ana shu xomaki rasmni nihoyasiga yetkazish uchun xotiradan ko'rish qobiliyatini ishga solishga to'g'ri keladi. Naturadan boshlanib, so'ngra uning ishtirokisiz xotirada tugallangan xomaki rasm «Kombinatsiyalashgan» hisoblanadi. Kuzatish vaqtining qisqarishi endi xomaki rasm ustida ishlashni ham murakkablashtiradi va xotiraga zo'r berishni talab qiladi. Bunday holatlar amaliyotda juda ko'p uchraydi. Xotiradan chiziladigan xomaki rasm chizish. Uzluksiz, doimiy harakatda bo'layotgan natura holatini bir zumda aks ettirish ancha mushkul. Bunday paytda hammasini birdan nazardan qochirmay ilg'ab olish va darhol, hech kechiktirmay xotirangizga muhrlanganni qog'ozga tushirish zamr. Ana shunda xotiraga muhrlangan ko'rinish o'z «yangiligini» yo'qotmaydi. Bunga misol qilib, oldingizdan tez yugurib o'tayotgan yoki to'siqlar osha sakrab yugurayotgan sportchini ko'rishimiz mumkin. Bunday vazifani uddalash amalda mumkin. Buning uchun o'ta tez, bir nigohda harakatdagi ifodani ilg'ab olish kerak bo'ladi (masalan, yugurib borayotgan sportchining gavdasi, oyoqlari, bosh va qo'llari harakati). Lekin bu o'rinda xomaki bajarilgan chiziqlarni bir yerga to'plash, ya'ni har tomonlama jamlashni unutmaslik kerak. Ko'rish qobiliyati kuchli bo'lganda, juda qisqa, ba'zan esa, bir soniyada xotiraga muhrlanadigan detallarni ham umumlashtirib yuzaga chiqarish mumkin. Ana shu tarzda ijro etilgan xomaki rasm xuddi qog'ozga muhrlangan xotira kabi bo'ladi. Bundan keyingi uning vazifasi ko'rilgan narsa haqida eslatishdan bo'lak narsa emas. Bunday xomaki rasmlarga tuzatish va qo'shimchalar kiritish faqat boyagi sportchining harakati takrorlangandagina (deyarli bir xil harakat), yana xotiraga olish yo'li bilan bajariladi. Faqat ko'rib, xotirada saqlash qobiliyatiga tayangan holda xomaki rasm ustida ishlash zamrati tashqi shart-sharoitlarni kuzatish imkonini beradigan vaziyatlarda tug'iladi. Masalan, shahar transportida qarshingizda o'tirgan yo'lovchining boshi o'ylab qo'ygan kartina personajiga o'xshaydi va anchadan beri qidirib yurgan obyektningiz chiqib qoladi. Uni naturadan chizishning iloji yo'q, chunki u o'z nigohini olib qochishi, boshini burishi yoki qiyofasini o'zgartirishi,


shuningdek, transportdagi vaziyat to'g'ridan to'g'ri naturadan chizish imkonini bermasligi mumkin va h.k. Siz o'z oldingizga qo'ygan vazifani bajarish uchun boshqa yo'lni tanlashga to'g'ri keladi. Buning uchun ko'rish qobiliyatini ishga solasiz: naturani sezdirmay kuzatasiz, o'rganasiz, o'zigaxos xususiyatlamini (ayniqsa, undagi ajralib turadigan xarakterli belgilarni) eslab qolishga harakat qilasiz.

Yo'lovchi o'z bekatida tushib ketdi. Shunda darhol, hech ham kechiktirmay cho'ntak albomni olib (aks holda, xotirangizdan ko'tarilib ketishi mumkin) o'sha yo'lovchi holatini qanday eslab qolgan bo'lsangiz, shundayligicha xomaki rasmini chizib olasiz. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin rassom ko'rish xotirasini rivojlantirishi uchun harakatdagi odam, ayniqsa, o'z xarakteri va harakatlanishi tezligi har xil bo'lgan bir guruh odamlarga qarab, xomaki rasmlar chizishni talab etadi (masalan, basketbol, futbol, xokkey kabi sport o'yinlari vaqtida, hayvonot bog'idagi jonivorlarga qarab, xomaki rasmlar chizish foydadan xoli emas). Shuni nazarda tutish kerakki, kuzatish natijasida esda qoladigan obrazning sifatiga, uning barqarorligiga ko'plab sabab va vaziyatlar ta'sir qiladi (idrok qilishning takrorlanishi, kuzatish faolligi va tezligi, shuningdek, zamrat tug'ilganda ko'rilgan narsani eslab qolish qafiyiligi).

Ayniqsa, qisman biror holatda (yoki sxematik ko'rinishda) naturadan qog'ozga tushirilgan chizgini diqqat bilan kuzatgan va o'rganilgan narsa xotirada yaxshi saqlanib qoladi. Ko'rko'rona, hech qanday tahlilsiz, faqat ko'chirib qo'ya qolingan narsa, odatda, xotirada uzoq saqlanmaydi.

***Tasavvur qilib xomaki rasm ishlash.*** Tasavvurda xomaki rasm chizish naturani bevosita kuzatish bilan bog'liq emas. U avval idrok qilingan, predmet olami va ongda muhrlanib qolgan hodisalar asosida ijro etiladi. Idrokka (qabul qilishga) nisbatan tasavvur yanada umumiy xarakterga ega. Ularda tafsilot kamroq bo'ladi va faqat predmet-hodisalarning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham tasavvurda chizilgan xomaki rasm «o'zidan chiqarib» iborasiga yaqin va o'zining mantiqiyhgi bilan bevosita naturaga qarab chizilgan xomaki rasmdan farq qiladi. Tasavvurda rasm chizayotgan kishi uni qamrab turgan vaqt va natura

holati kabi omillardan xoli bo'ladi. U bamaylixotir, butun diqqat-e'tiborini xomaki rasmga qaratib ishlashi, zarur ifoda va tasvining ishonchligiga erishgan holda faoliyat ko'rsatishi mumkin. Eng oddiy vazifa - polda turgan oddiy stul rasmini tasavurda chizish uchun u ana shu stulning shakli, uning konstruksiyasi va asosiy o'lcham nisbatlarini eslay olishi lozim. Xo'sh, qayerdadir, yuqorida va pastki nuqtayi nazardan ko'rinadigan xuddi ana shu stul qanday ko'rinishga ega bo'ladi? Predmet shaklining qurilishi qancha murakkab bo'lsa, malumki, uni



«o'zidan chiqarib» tasavvurda chizish ham shunchalik qiyin kechadi. Rasm chizuvchi ongi (tasavvuri)da predmetning kenglikdagi obrazini tiklash vazifasi turadi. Bunday tiklash jarayoni, nafaqat, predmet shakli haqidagi tasavvurni, balki uning qurilishi, nisbatlari, harakat yo'nalishi va tezligi kabi boshqa kenglikdagi nisbatlarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, agar odam qaddi-qomati kabi murakkab tirik shaklning naturasiz, o'zidan chiqarib xomaki rasmini (aytaylik, bo'lajak kartina eskizi uchun) umumlashgan holda chizadigan bo'lsak, buning ustiga bu tasavvurdagi naturamiz tez harakatda, burilishda yoki boshqa holatda bo'lsa, vazifa ancha murakkablashadi.

Xomaki rasm ijrosidagi oldin xotirada tasvir obrazini, uning qurilishini tasavur qilish, umuman, ushbu shakl ma'lum nuqtayi nazardan qog'ozga qanday o'lchamni egallashini ko'z oldimizga keltirishimiz kerak bo'ladi.

Faqat shundan keyingina, odamning plastik anatomiyasi haqidagi bilimlarni xotiraga olib, «o'zimizdan chiqarib» bir varaq qog'ozga belgilab olgandan keyingina, buning ustiga gavda, bosh, oyoq-qo'llar nisbati, ularning o'lchamlarini, harakat paytida qisqarish proporsiyalarini, yoritilish holatini hisobga olgan holda chizishni boshlash mumkin. Ma'lumki, inson qaddi-qomatining «o'zidan chiqarib»

xomaki rasmini chizish faqat tananing qurilishi haqidagi bilimlar yetarli bo'lgan taqdirdagina yaxshi amalga oshishi mumkin.

**2-Mavzu: Tik turgan holatdagi libossiz qomat. (kontropost). Inson qomatini tik turgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.**

*Reja:*

- 1. Yalong'och qomat chizmatasviri*
- 2. Inson qomatining anatomik tahlili*
- 3. Odam qomatini sklet va muskullarni anatomik qismlarga ajratib qurish*

**Yalong'och qomat chizmatasviri**

Inson tanasini tasvirlash jarayonida anatomiya va perspektivani yaxshi bilishni, tanani haykallar va nusxalar asosida avvaldan o'rganishni, mutanosiblikni to'g'ri tushunib olish qobiliyatini talab qiluvchi murakkab organizm hisoblanadi. Mana shu xususiyatlarni bilib olgandan keyingina jonli natura ustida ishlashni boshlash mumkin. Grafika, haykaltaroshlik arxitektura yoki rangtasvir sohalarini egallayotgan har bir talaba odam tanasining qurilmasini tushunibgina qolmasdan,



shakl yuzasidan tafakkur yuritishga ham o'rganishi, boshqacha aytganda, insonni har qanday rakurs, har qanday harakatda tasvirley olishi zarur. Jonli inson qomatni o'rganishni sodda va aniq o'quv topshiriqlar - postanovkalardan boshlash zarur, ularda tananing qismlari va plastikasi anik ko'rinib turishi talab etiladi. Oddiy harakat holatlarini o'rganish uchun postanovkalarni tanani qat'iy burish, kuchli rakurslarda qo'yib chizishni mashq qilish yaxshi samara beradi. Chizmatasvirni postanovkaning yuqori va pastki chegarasini belgilab olgach, yer, pol, taglik kabilarga nisbatan asosning gorizonti va yuzasi aniqlangandan keyin boshlash lozim. Agar naturami bir oyog'iga tayanib turgan bo'lsa, unda o'k chiziq bilan uning harakat chizig'i xususiyatini aniqlab olinadi. Andoza tayanib turgan oyoq holatiga nisbatan vertikal tik chiziq o'tkaziladi, tos egiluvchanligi belgilanadi, so'ngra tana, bel, bo'yin va boshning umumiy egilganligi aniqlanadi.



Umurtqa suyaklari o'rtasi chuqurligidan tayanch oyoq tovoniga qadar vertikal tik chizik o'tkazib, tananing tayanch markazi aniqlanadi. Gavda egilganligini aniqlab, umurtqa suyaklari chuqurligidan tos suyagi qoq markazigacha bo'linmalarga ajratiladi, bundaqovurga yoylarining yuqori cheti, katta ko'krak mushaklari, ko'krak uchlari, qorin chegarasi kabilarga alohida e'tibor beriladi. Ko'pincha bo'yinni yelka kamari bilan bog'lash qiyin bo'ladi. Trapetsiya ko'rinishidagi muskullar (pastki hamda umurtqa suyaklari cheti) vositasida bo'g'inini tashkil bo'ladigan yelka kamari yuqori yuzasini topib, umurtqa suyaklar chukurligini va yelka maydonining yuqori qismini- umurtqa orasidagi o'rta chiziq bo'ylab bo'yin asosi aniqlanadi. Bo'yin egilishi belgilab olingach, bosh bilan bog'liq holda tasvirlanadi, bu jarayonda yuzning burilishi va egilishi e'tibor bilan kuzatib boriladi.



Bu yerda bajarilayotgan ishning to'g'ri holatini aniqlashda jag' yoyi va ko'krak umurtqadan kalla suyagi surgich shaklli qismga boglaydi. Yelka kengligini ko'krakning akramial o'simtalari orqali belgilagan holda umurtqa suyagi yuqori va pastki chukurliklarini to'g'ri aniqlash lozim bo'ladi. Yelka sustavini belgilab, tananing yuqori a'zolari tutashib ketadigan umurtqa va ko'raklarning birlashuviga alohida e'tibor beriladi, chunki yuqori a'zo qo'l ushbu suyaklargacha bo'g'inlar vositasida boglanadi. Kurakning akromial o'simtasini kuzatib borish zarur, katta ko'krak va delta ko'rinishidagi mushaklar yondashganda paydo bo'ladi, iz esa ko'krak va delta ko'rinishini muskullar birlashadigan joyiga e'tibor bergan holda belgilanadi.




So'ngra yuqori a'zolar, ularning yo'nalishi belgilanadi, tirsak va qo'l kaftlari aniqlanadi. Yelka suyagining ichki va tashqi bo'rtmalari, tirsak o'simtasi va tirsak suyagining pastki uchlarini diqqat bilan kuzatish zarur bo'ladi. Qo'l panjasini tasvirlash paytida barmoq suyaklar, barmokda bog'lanuvchi kaft suyaklar, panjalar, ichki va tashqi kaft suyaklarining turtib chiqqan joylari kabi kislarga e'tibor berish lozim.

Tos kamarini belgilashda qov supachasi mo'ljal bo'lib xizmat kiladi. Tos suyagi yonbosh qirradi old burchagiga e'tiborni qaratgan holda qorin tashqi qiyshiq mushagining old burchagi, qorin to'g'ri mushaklari va kindikka e'tibor bergan holda tasvirlanadi. Son suyagining katta dumba muskuli tutashganda paydo bo'ladigan, chuqurchada aniq seziladigan katta suyagini belgilab olish nihoyatda ahamiyatli. Tizza sustavini tasvirlashda, son atrofi a'zolardan tizza tirsagi usti suyagi, son suyagining ichki vatashqi mushak bog'lanuvchi do'nglari kichik boldir



suyagining boshchasiga e'tibor karatiladi. Tizza shakli, katta boldir suyagining oldi qirradi, to'piq va tirsakning kaftlar bilan bog'lanishi kuzatiladi. Shaklni hosil qilishda faqat suyaklarning tuzilmasini emas, balki asosiy mushaklarni ham bilish zarur bo'ladi, zero shundagina u yoki bu shakl xosil qilgan soyalar xususiyatini tushunib olish mumkin.

Doimiy ish jarayonida qomatning aloxida qismlarini katta shakl va butun qomat bilan bog'lab mutanosibligini solishtirib borish talab etiladi. Chizmatasvir umumiydan alohida bo'limlarga qarab olib boriladi yoki boshqacha aytganda, yirik massaning plastik xususiyatidan kichik qismlar bilan boyitib boriladi.



Anatomik tahlil andozadan yuzaki nusxa olib qo'yishdan asraydi, anik plastik shaklni ongli ravishda idrok etishga imkon beradi, qomatning asosiy jihatlarini ta'kidlab turadi. Tus yordamida plastik shaklning moddiyligi va qomat kismlarining makoniy teranligi ifodalanadi. Chizmatasvir qanday ashyo bilan bajarilmasin, soyalarni darhol berish lozim. Ammo bunda yerug' - soya to'xtaming muvofiqligi, qismlar yoritilishining asta kuchsizlanishi, yorug'likni bo'lib turuvchi chiziq



kabilarni doimo kuzatib borish zarur. Shaklning hajmiylikini ochib berishda fon muhitdagi asosiy rang katta ahamiyatga ega, xususan fonning shakldagi yoritilgan va soyalashtirilgan qismlar bilan uyg'unlashuvini ko'zatishtirish ayniksa muhimdir. Chizmatasvirda plastik shaklni beruvchi ikkita o'zaro bog'liq va bir - birini to'ldiruvchi vosita sifatidagi chiziq va tusni aniq tushunib olish zarur. Ishlash jarayonida gips va anatomik aglaslardan olingan chizmalarga, ushbu andozani



shakli va holatini o'rganish maqsadida turli tomonlaridan chizilgan yordamchi xomaki chizmalarga murojaat qilish foydalidir. Ba'zan ushbu postanovka uchun skelet chizib olish va andoza xislatini hisobga olib, bu skeletni mushaklar bilan «kiyintirish» maksadga muvofik bo'ladi. Naturani taxlil qilish va aniq ifodalash libossiz qomagni o'rganishdagi dastlabki postanovkalarining asosiy vazifasidir. Bajargan va to'g'ri tushunilgan chizmatasvir namunasida qomat qogoz yuzasida yaxshi joylashtirilgan, har ikkala oyogiga tayangai tana to'g'ri qurilgan. Agar 7 bo'g'inli umurtqadan oyoqlarga qadar tik to'g'ri chiziq tortilsa, uning uchi aniq oyoqlar orasiga

kelib tutashadi; yelka va tos suyagi yoki gorizontal - yotiq chiziqda joylashgan. Qomatning mutanosibligi va xususiyati, shuningdek tosning oyoq, ko'l va bosh bilan aloqadorligi yaxshi topilgan. Yorug'lik va soyaning muvofik kelishi tufayli qomat fonga moslashib ketgan.

Tik turgan qomat tasvirlanganidan so'ng gavdani o'rganishga kirishiladi. Utirgan holatdagi erkak kishining gavdasi chizmatasviri yaxshi bajarilgan topshiriq namunali bo'lishi mumkin. Chizmatasvirda tegishli yuzada kompozitsiya jixatdan yaxshi joylashtirilgan qomatni ko'rish mumkin, harakat to'g'ri belgilangan, andozaning mutanosibligi va shakli aniq, yelka aylanasi yaxshi ishlangan. Ko'krak qafasi tos bilan to'g'ri birikkan. Ushbu naturachiga xos bo'lgan biroz bukrilik to'g'ri ifodalangan. Asosan olganda chizmatasvir naturaning plastik va tus xususiyatlarini to'g'ri tushungan holda bajarilgan. Shaklni tahlil qilish asnosida talaba gavdaning anatomik qurilmasini



bergan, shakllar aloqadorligi to'g'ri tushunilgan va qismlari umumiylikka bo'ysundirilgan.

Libossiz qomatni o'rganishni davom ettirsak endi oddiygina qurilmadan tashkari ularning oldida jiddiy vazifalar turadi. Bunda postanovkalar murakkablashadi, qomat (odatda erkak qomati) kuchli harakatda yoki ogirlik ko'targan boshka biron - bir ish bilan shug'ullangan murakkab rakursda bo'lishi mumkin. Murakkab harakat mushaklarga kuch

tushishi bilan bog'liq tashqi shaklning o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. So'ngra qomat bir nechta tayanch nuqtasiga ega bo'lgan postanovkalar qo'yiladi va nihoyat, rakursda yotgan holatdagi qomat bilan bog'lik murakkabroq topshiriq beriladi, eng muhimi, u inson qomati qurilmasini tasvirlash bilan bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, libossiz qomattasviri topshirigi yuqori kursda ham uchraydi va bu o'ziga xos takrorlash bo'lib, avvalgi kurslarda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Bajarilgan topshiriqlar natijasida talaba chizmatasvirning barcha usullarini egallashi, anatomiya fanidan olgan bilimlari asosida odam qomatini bemalol tasvirlashi, postanovka kismlarini yaxlitlikka bo'ysundira olishi, makonda katta qurilma shaklini his etishi va yaxlitga nisbatan ayrim qismlarning o'zaro plastik aloqadorligi ta'minlanishi, naturadan olgan jonli taassurotini berishi lozim bo'ladi. Talaba bajargan rasmdagi o'tirgan xolatdagi erkak qomati tasvirini muvaffaqiyatli chiqqan deyish mumkin. Talaba tomonidan pastdan kuchli rakurs bilan chizilgan utirgan holatdagi erkak qomati andozaga yaqin turgan mutanosiblikni bu postanovka ustida ishlagan. SHuning uchun yaxshi o'ylangan va mahorat bilan andozalangan chshmatasvirida mutanosib topilgan.

Tasvir jonli chiqqan, eng muhim narsa aniqlangan. Butun komatni koplav olgan yorug'likka nozik ishlov berilgan, faqat chal ko'lining yelkaga yaqin joyida va tirsakda biroz qo'pollik seziladi va tUSDagi yorug'likni ajratuvchi chizik og'irlashtirib yuborilgan. Bosh kuchli rakursda ham yaxshi tasvirlangan, uning qismlari o'zaro aloqada va ularning barchasi o'z holiga chiroyli chiqqan. Chap oyoqning kattayib ketganini hisobga olinmasa yaxshi andozali tasvirlangan.

**Odam qomatini sklet va muskullarni anatomik qismlarga ajratib qurish.**

Sklet - bu odam qomatini chizmatasvirda qurishning asosi xisoblanadi. Qomat qanday holatda bo'lmasin, sklet qismlarni nisbatini saqlash uchun bosh vositadir, tayanch nuqtasini va muvozanatni saqlashni ta'minlaydi. Odam skleti bosh suyagi, umurtqalar tizimi, ko'krak qafasi, tos va ikki oyoq, qo'l suyaklaridan iborat. Ba'zi suyaklar o'zaro choklar bilan(bosh suyagi) harakatsiz bog'langan bo'lsa, boshqalari suyaksimon qotishma bilan (ko'krak qovurg'alari va bo'g'inlar) ham harakatli bog'langan. Bo'g'in bu suyaklarning harakatdagi bog'lanishi bo'lib, odam qomati shakllarining plastika va harakati shularga bog'liq. Gavda asosini umurtqa tizimining yuqori qismida ko'krak qafasi joylashgan bo'lib, ko'krak qafasi pastki qismi 7, 8, 9 va 10 qovurg'a tog'aydan iborat. Ko'krak qafasining yuqorisida yelka belbog'i joylashgan. Belkurak tashqi burchagi qo'l bilan bog'lanib yelka bo'g'inni tashkil qiladi. Ko'krak qovurg'asi yuqori qismiga egilgan shaklda umrov suyagi birikkan. Umrov suyagining ko'krak tomoni chuqurcha hosil qilishda qatnashadi va yelka kamari chizmatasvirini qurishda asosiy nuqta hisoblanadi. Tos suyagi to'rtga suyaqdan; ikkita nomsiz, xoch va dumgazadan tashkil topgan. Nomsiz suyak o'zaro harakatsiz bog'langan. Shunday qilib tos suyagi simmetrik va yaxlit qurilishni hosil qiladi. Naturadan ishlash jarayonida buni esdan chiqamaslik kerak.



Skletning tashqi pastki qismiga son suyagi, oyoq suyagi, va tovon kiradi. Gavdaning yuqori qismi va qo'li qanday qurilgan bo'lsa, pastki qismlari o'lchami nisbatlari ham shunday aniqlikda topilishi kerak. Muskullar skelet suyaklari bilan qomat relʼefini tashkil qilib, sklet qismlari va qomatning harakat o'zgarishi bilan hamohang bo'ladi. Muskul va suyaklar harakatda bo'lib, muskullar o'z shaklini o'zgartiradi, suyaklar o'zgarmaydi, ammo har xil yo'nalishda harakatga keladi. Qomat qurilishi qog'oz yuzasiga joylashtirishdan boshlanadi. Asosiy nisbatlar sklet asosida aniqlanadi.



Agar qomat ikki oyog'ida tayanch turgan, qo'llari pastga qaratilgan, skelet simmetriya hosil qilgan bo'lsa, tos suyagi gorizontal holatni hosil qiladi. Tayanch vertikal o'q chizigi ikki oyoq oralig'iga to'g'ri keladi. Agar qomat bitga oyog'iga tayanib, ikkinchi oyog'i erkin holatda bo'lsa simmetriya holati yo'qoladi va vertikal o'q chiziq tayanch oyogiga yaqin tekislikka tushadi. Qomat chizmatasvirini qurishda ko'krak qafasi, tos suyagi va oyoq holatining muhitda joylashuviga qaratiladi. Butun qomatni bog'lovchi bo'lib tos suyagi hisolanadi. Yelka kamarining tos suyagi kabi o'q chizigi vertikal chiziqqa egilishi nisbatiga bog'liq. Qomat bir oyoqqa tayanib turgan bo'lsa, tos suyagi o'qi erkin oyoq tomon egiladi. Plastik xarakteri uchun gavdaning oldidan ko'rinishida skletning qismlari alohida ahamiyatga ega. Qomatni qurishda skletdan tashqari muskullarni



ham bilish kerak. Ish jarayonida bu bilimlarni ustalik bilan qo'llaniladi. Katta ko'krak muskuli (juft) ko'krak qafasi yuzasida yotadi va yelka suyagining yuqori qismiga biriktirilgan. Old tishsimon muskul ko'krak qafasining yon va orqa yuzasiga joylashgan. Muskul tishlari ko'krak qafasining to'qqizinchi qovurgasidan boshlab, belkurakning ichki qirrasiga birikkan. Ol va yuqridan katta ko'krak muskuli bilan, orqadan esa keng orqa muskuli va belkurak bilan qoplangan. Shuningdek, ko'krak qafasining boshqa tomonida




xdm juft muskullar joylashgan. Qorin muskuli ko'krak muskuli kabi simmetriyani tashkil qiladi. Plastik jihatdan qorinning tashqi qiyshiq va to'g'ri muskuli katta ahamiyatga ega. Qorin to'g'ri muskuli yassi bo'lib, o'rta chiziqning ikki tomoni yuzasiga joylashgan va qorin tekisligida yaxshi kuzatiladi. Tashqi qiyshik muskul ko'krak qafasi pastki yepinchi qabirg'adan boshlab tos suyagi oraligini to'ldiradi. Orqa tomon xarakteri uchun umurtqalar tizimiga uning o'simtalari; dumg'aza, belkurak va tos suyagi ahamiyatlidir. Trapetsiyasimon muskul orqa va bo'yinning orqa qismida joylashgan.



Orqa enli muskuli qomatning yirik muskullaridan biridir. U orqaning pasgki qismini to'la egallaydi. Ko'krak pastki umurtqadan boshlab yelka suyakkacha yuqori qismi bilan bog'lanadi. Qo'lni yuqori ko'targanida qo'ltiq osti chuqurchasi yaxshi ko'rinadi, buni esa ko'krak katta muskuli bilan orqa enli muskuli hosil qiladi. CHuqurchani tishli old muskuli qoplamasi va ko'krak qafasi yordamida paydo bo'ladi. Orqa x,arakatida romba ko'rinishidagi muskul uchburchak shakli

ko'rinishiga ega bo'lib, umurtqaning belkurak chekkasi va keng orka muskuli bilan chegaralanadi. Natura ishlash amaliyotidan ma'lumki tayanch oyog'i tomonida joylashgan gavda muskullari qisqaradi, ikkinchisida esa cho'ziladi. Qomatning pastki qismini qurishda ba'zi qonun qoidalarni bilish kerak: masalan, bir oyokda turgan qomatda tayanch oyoq tomoni yuqori, erkin holatdagi oyogi tomonidagisi past. Tayanch oyoqni tos suyagi bilan monolit chiziladi. boshqa oyog'i tos suyagi beli bo'ginidan pastga qarab tovongacha quriladi. Son suyagi asosida bo'g'in, tizza



kosasi, uning orqa tomonidan esa bo'gin yuzasi bel bilan tutashadi. Tayanch oyogi tizza bo'gini yuqori, erkin o'tirgan oyoq tizzasini yarim bukilgan bo'lib, tos suyagi pastga egilgan. Chizmatasvirni to'g'ri ishlash uchun qomat turgan tekislikni ham qurish kerak. Keyin tekislikda tovon shaklini quriladi. Chizmatasvirida qomatning tashqi shaklini ko'satishda deltasimon muskul katga ahamiyat, mazmun kasb etadi. Qo'l detal qismida yelkaning ikki boshli muskuli qisqarganda sezilarli relief hosil qiladi. Ichki yelka muskuli ikki boshli muskul ostiga joylashgan. U oldi yelka suyagining o'rtasidan boshlanib, qo'l yuqori suyagiga yopishgan. Uch boshli



muskul yelkaning orqa yuzasini aniqlaydi. Uning ikki boshli yelka suyakdan, uchinchi esa belkurak bo'g'ini chuqurchasidan boshlanadi. Bo'yin gavda bilan bosh orasidagi zveno. Bo'yin oldi va yon muskullari muhim rol o'ynaydi. O'quv uslubiy qo'llanmaning oldingi boblarida bosh, bosh suyagini qurish hakida keng yoritilgan edi, shuning uchun k.ayta to'xtalishga zaruriyat yo'q. Qomat asosan qurilib, uning nisbatlari, xarakteri topilgandan keyin plastik shakllar ustida ishlashni davom e'ggirladi. Shuningdek,



qoiatning katta shakllari, ayrim muskullar, bo'rtiqlar, suyakning tanish nuqtalari, bo'gin va quruk muskullarga aniqlik kiritiladi. Qomatning xarakterli tomonini ochib beradigan qismlari, uning harakatiga qarab yoki postanovkasiga anatomiya jixddan ko'rib chiqiladi. Plastik anatomiya bilimlariga asoslanib umumlashtirish savodli bo'lishi kerak.

### **3-Mavzu: Libossiz odam qomati murakkab harakatda.**


#### ***Reja:***

- 1. Gavda suyaklari, bo`gimlari birlashmalari, harakatlari va ularning plastikasi***
- 2. Inson tana a`zolarining nisbatlari***
- 3. Libossiz odam qomatining taxlili***

Tabiatdagi turli-tuman shakllar ichida inson tanasi o'ta murakkabi va mukammali bo'lib hisoblanadi. Inson tanasini o'rganish rassomda professional bilimni, tasviriy san'atning har qanday janrida ishlay olish qobiliyatini shakllantiradi. Tasviriy san'at sohasida yuqori malakaga ega bo'lish uchun (inson tanasi rasmi ustida ishlash kabi) odamning plastic anatomiyasini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, tasviriy san'at inson tanasi bilan uzviy bog'liq va uni insonsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilar inson tanasi nisbatlari va plastik tuzilishini nazariy va bir qator amaliy topshiriqlar bajarish orqali o'rganishlari va o'z bilim doiralarini kengaytirishlari kerak. Tasviriy san'at sahasida ta'lim oluvchi o'quvchilar anatomiyani to'liq o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ymay, tananing umumiy tuzilishiga e'tiborni qaratishlari kerak. Bunda har bir shakl o'rtasidagi plastik bog'liqlik hisobga olinishi lozim. Plastik ijod namunalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, skelet inson tanasining asosi bo'lib hisoblanadi. Inson tanasini turli holatdagi harakatini tasvirlashda skeletning tayanch-mexanik funktsiyasidan foydalaniladi. Inson skeleti asosiy qism (umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasi), bosh skeleti (suyagi), hamda qo'l-oyoq skeletlaridan tashkil topgan. Umurtqa pog'onasi inson tanasining ustuni bo'lib hisoblanadi va u bosh, tana va qo'llarni ko'tarib turadi. Umurtqaning pastki qismi tana asosining harakatlanmaydigan qismi bo'lgan tos suyagi hamda birlashtiruvchi tos suyaklari o'rtasiga birikkan. Umurtqa ustuni yigirma to'rtta umurtqalardan iborat: ettita

bo'yin, o'n ikkita ko'krak va beshta bel umurtqalari. Mazkur qismlanishga asosan umurtqa egiladi va tana shaklini belgilab beradi.

Bosh va tana harakati umurtqa harakati bilan uzviy bog'liq. Ikkita yuqori bo'yin umurtqalari harakatga kelganida bosh buriladi. Belning o'ngga, chapga, orqaga va oldinga egilishi ham barcha bel umurtqalari va ikkita ko'krak umurtqalarining harakatiga bogliq. Umurtqa pog'onasining barcha bel hamda ikkita ko'krak umurtqalari joylashgan qismi eng ko'p harakatlanadigan qism bo'lib hisoblanadi. Umurtqa pog'onasining harakati umurtqalarning harakatlanmaydigan tos suyagi bilan birlashgan joyda kamayadi. Tananing tos suyagi qismi odam o'tirganda bukilgandek tuyiladi; bunda umurtqa chizig'i o'zgaradi. Tana asosining yuqori






qismi oldinga yoki ortga bukilganda harakatsiz holatda bo`ladi - balandda joylashgan umurtqalar harakatlanadi. Bunday harakatlarda bosh yoyni hosil qiladi. Tana asosining o`ngga yoki chapga burilishi umurtqa pog'onasining yuqorida joylashgan qismi o'z o'qi atrofida aylanma harakatlanishi tufayli sodir boiadi. Tananing o`ngga va chapga egilishida umurtqa harakatlanadi. Orqa tarafdin umurtqa pog'onasining o'simta qismiga qovurg'alar birlashgan va ular oldinga egilib to'sh suyagiga birikkan. Ko'krak

qafasining umumiy ko`rinishi silindrsimon idishni eslatadi. Qovurg'alarning

yuqorisida to'sh suyagiga o`mrov suyagi birlashadi. Qovurg'alar orqasida kurak suyagi yotadi. Kurak va o`mrov suyaklari elka bo`g`imi o`rnida birlashadi. Qo'l kurak suyagi bilan elka bo`g`imida birlashadi va u uchta asosiy qismdan iborat: elka suyagi tirsak bilak va panjalari, kaft usti suyaklari kaft suyaklari va qo'l panjalari (barmoq) falangalaridan iborat. Suyaklarning mazkur qismlarga bo'linishi, qoMning harakati turli qismlarda yuzaga kelishini ta'minlaydi: yelkada, bilakda, kaftda va barmoqlarda. Oyoq-qo'l harakati suyak bo`g`imlari harakatiga bog`liq. Suyaklarning



xarakatlanuvchi, birlashgan qismlari **bo'g'im** deb ataladi. Bo'g'im suyaklarni birlashtirib turuvchi muskuldir. Suyaklar bir-birlari bilan mustahkam qotirilmaganligi tufayli, ular bir-biridan uzoqlashishi, egilishi, tomonlarga burilishi va aylanishi mumkin. Bunday harakatga bo'g'imlar imkoniyat yaratib beradi: bir suyak botiq boisa, ikkinchisi bo'rtma bo'ladi va ular birlashadi. Yelka bo'g'imi *quyidagicha* tuzilgan: yelka suyagining bo'rtib chiqqan uchi kurak suyagining botiq yuzasi bilan birlashadi va ular erkin harakatlana oladi. Kurak, yelka va o'mrov suyaklari muskullar bilan o'ralgan. o'mrov suyagining ahamiyatli jihati shundaki, u qo'lning xarakatiga ko'maklashadi. qo'l xarakatlanganda yelka suyagining uchi yoysimon holatda bo'ladi. Yelka suyagining pastki qismi yo'g'onlashgan, bilak suyagi bilan birlashishi uchun g'altaksimon maydoncha va sharsimon bo'rtiq bilan ta'minlangan. Tirsakning chuqurchasi va bilak suyagining g'altagi va boshchali bo'rtmasi bo'g'im yuzasi ustida harakatlanadi va ular tirsak bo'g'imida birlashadi.


Tirsak suyagining pastki uchi ham yo'g'onlashgan va u kaft usti suyagi bilan birlashadi. Ingichka uchli bilak suyagi esa, aksincha, kaft usti suyagi bilan birlashmaydi. Ikkala suyak ham bigizsimon o'simtalar bilan tugallanadi va ularga paylar birikadi. Bilak va tirsak suyaklarining birlashgan qismi bilak-tirsak bo'g'imini hosil qiladi. Qo'l bukilganida, unga yon tarafdin qaralsa, kaft ustidagi bo'g'imlar sezilib turadi. Bunda qo'lning profil chizig'ida birikmalarni aks ettiruvchi do'mboqchalar ko'tarilib turadi. Bilak, kaft usti suyagi, kaft suyagi asoslarining pastki uchidagi bo'rtmalar va kaft suyaklarining boshchalari ushbu do'mboqchalarni tashkil qiladi. Bilak harakatini, qo'lning egilishi va bukilishini, ular elka suyagining yumaloq qismi tagidan (suyak uchidagi yo'g'on qismdan) xayolan o'tkazilgan ko'ndalan o'q bo'ylab aylantirilganida ko'rish mumkin. Qo'l vertikal o'q bo'ylab ichkari va tashqari tomonga aylantiriladi. Bunda faqat bilak va kaft suyaklari birgalikda aylanadi. Pastki qismlar tos suyagi bilan birlashadi. Balog'atga etgan odamning tos suyagi *quyidagi to'rtta* qismdan iborat bo'ladi: ikkita nomi yo'q



suyak, dumg'aza va dum suyak. Nomi yo'q suyakning turli qismlari quymich, yopqich va qov suyaklari deb ham nomlanadi. Yosh bolalarda ular alohida boiadi. Oyoq (odam tanasining pastki qismi) son suyagi, katta va kichik boldir suyaklaridan va oyoq-kaft usti, kaft suyaklari hamda barmoq falangalaridan tashkil topgan. Yuqorida sanab o'tilgan suyaklar bir-birlari bilan bo'g'imlarda birlashadi. Son suyagining sharsimon boshchasi tos suyagining yarim yumaloq chuquriga kiradi. Tizzaga yaqin yerda son suyagi biroz egiladi va tizza bilan uning orasida yassi burchak hosil bo'ladi. Son suyagining pastki yo'g'onlashgan qismida dumaloq shakldagi ikkita bo'rtma bo'ladi. Bo'rtmalar va chuqurchalar bo'g'im yuzasini tashkil etadi va uning ustiga tizza qopqog'i o'rnashadi. Tizza qopqog'i dumaloqsimon, baland burchagi pastga qaragan uchburchakli suyakdir. qopqoq tepa tarafdin son suyagiga, pastki tarafdin esa katta boldir suyagiga birlashadi. Katta boldir suyagi va son suyaklarining bo'g'im yuzalari tizza qopqog'i bilan birgalikda tizza bo'g'imini hosil qiladi, hamda ular muskul paylari bilan birlashadi. Katta va kichik boldir suyaklari to'piqda mahkam birlashadi. Ushbu suyaklarning do'mboqlari sanchiqqa o'xshab birbirlariga kiyiladi. Ular to'piqdagi tovon usti suyagining yon tomoni bilan birlashadi. To'piq butun tananing tayanch markazi bo'lgan yoyni hosil qiladi. To'piq tuzilishi odam yugurganidagi yoki sakraganidagi tana silkinishlarini



yumshatadi. To'piq yoyi old tarafdin oyoq kafti suyaklariga, orqa tarafdin esa tovon do'mbog'iga tiraladi. Elka, tirsak, kaft usti suyagi, tizza va tovonlarning birlashishi inson tanasining tasvirini ishlash jarayonida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan obyektlar bo'lib hisoblanadi. Ularni ifodalashni bilish yosh rassomda inson tana tuzilishini, uning harakatini to'g'ri tasvirlash qobiliyatini shakllantiradi. Tanadagi asosiy nuqtalar shaklini ishlash, uning nisbatlarini aniqlash va inson



tanasi harakatini tasvirlash jarayonida rassom uchun orientir vazifasini o'taydi. Umurtqa ustuni uchta asosiy o'zgarish nuqtalarga ega. Ular tana asosining (tosning) bukilish darajasini aniqlashda ko'maklashadi. Tana asosi skeletining old tarafida quyidagi orientir nuqtalar mavjud o'mrov suyaklarining birlashgan joyida ko'krak suyagi oxirida tos suyagida yonbosh suyaklarning yuqori qismida juft nuqtalar; pastki qovurg'alarning egilish joyida o'mrov suyaklarining tashqi uchlarida nuqtalar (ushbu nuqtalar yelka kengligini belgilab beradi).

Tana asosi skeletining orqa tarafida **quyidagi** asosiy nuqtalar joylashgan ettinchi bo'yin umurtqasida dumg'azada o'mrov-akromial o'simtalanda kurak suyagi burchaklarida.

Qo'ldagi mo'ljal nuqtalar elka suyagi boshchasida elka suyagining bo'rtmasida bilak va tirsak suyaklari uchida joylashgan. qo'l kaftidagi asosiy nuqtalar bo'g'imlarning bo'rtib chiqqan suyaklarida, shuningdek, barmoq uchlarida joylashgan.

Oyoqdagi mo'ljal nuqtalar **quyidagicha** joylashadi. Tos suyagidagi yonbosh suyaklarda son suyagining katta bo'rtmalarida tizza qopqog'ida medial do'ngligida tovon do'mbog'i ustida falangalar birlashgan joyda barmoq uchlarida. Ushbu nuqtalarning joylashgan o'rni oyoqning tinch yoki harakatdagi holatini ifodalashda mo'ljal vazifasini o'taydi.




Yuqorida ko'rsatilgan nuqtalardan tashqari tanada joylashgan boshqa nuqtalar tanadagi teri joylashuvi va izlarini tasvirlashda foydalaniladi: masalan, kindik, qorindagi chiziqlar va muskullar. Asosiy nuqtalar qomatning alohida qismlari o'lchamlari va nisbatlarini aniqlashda mo'ljal vazifasini o'taydi.


### **Tana a'zolarining nisbatlari**

Plastik anatomiyada tana nisbatlarini o'rganishining ikki yo'nalishi ko'rsatilgan: inson tanasi tuzilishini estetik idrok etish va uni anatomiya nuqtai nazaridan baholash, shuningdek, amaliyotda qo'llash qulay bo'lishi uchun barcha o'lcham va munosabatlarni bir tizimga tushirish. Nisbat - bu qismlarning o'zaro va butun tasvir bo'yicha o'lchamlari tizimidir va u tasvirga estetik ifoda va mukammallik uyg'unligini baxsh etadi. Nisbatni his eta olish - bu rasm chizish jarayonidagi eng zarur bolgan xususiyatlardan biri. Chizilayotgan jismning nisbatlari qanchalik to'g'ri aniqlansa, rasm shunchalik asl ko'rinishiga yaqin bo'ladi. Odam tanasi nisbatlarini o'rganish bo'yicha maxsus qonun-qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida tananing har bir alohida qismini bir tizim holatiga keltirish mumkin. Ushbu qonunlarni tuzish uchun inson tanasi haqidagi ma'lumot doimo muhim boigan. Qonun rassomlar uchun naturaga qaramasdan model tasvirini chizishda qo'l keluvchi vosita bo'lishi bilan bir qatorda, tana jismlari

birbiri bilan uyg'unlashuvchi insonning ideal obrazini yaratish yo'lidagi harakat bo'ldi deyish mumkin. Turli tarixiy davrlarda go'zallik va mukammallik haqidagi tasavur o'sha davr rassomlarining mafkuraviy qarashlari asosida namoyon bo'lgan. Ular o'z asarlarida o'sha davr, xalq va sinflar dunyoqarashini aks ettirganlar. Qadimgi davrlardan inson tanasining oichov birligi - moduli boiib tananing biror bir qismi (bosh, kaft, barmoq,



to'piq, burun) tanlab olingan va unga boshqa barcha qismlar solishtirilgan. Qadimgi davrlardan Misrda ham rassomlar inson tanasini tasvirlashga katta e'tibor berganlar. Natijada Misr rassomlari inson tanasining har bir qismini o'lchab, o'rganib, uning asosida qonun ishlab chiqdilar. Bunda ular inson tanasi qismlarini o'lchashda matematik hisob-kitoblardan foydalandilar. Qonunning yaratilishida Misr rassom-nazariyotchilari qomatning qismlarga nisbiy bo'linishi tizimini ishlab chiqdilar. Unga ko'ra qismlar yordamida butun tanani va bir qism o'lchami bilan ikkinchi qism o'lchamini aniqlash imkoni paydo bo'ldi. Misrshunos olim Lepsiusning tadqiqotlari natijasida ushbu raqam siri ochildi. Misr qonuniga ko'ra o'lchov birligi sifatida qo'lning o'rta barmog'i uzunligi qo'llanilgan. Qomat 19 qismga bo'lingan. Misr qonuniga asosan inson tanasi quyidagi o'lchamlarga ega bo'lgan: tovon balandligi bitta o'rta barmoq balandligiga, tizza qopqog'ining yuqori qismidan qovuqqacha bo'lgan oraliq esa to'rtta barmoq uzunligiga teng deb hisoblangan. Inson qovuq qismi butun tanani teng ikki qismga bo'ladi. Tana markazi (pastdan yuqoriga tomon olchanganida) o'n bitta barmoq uzunligiga to'g'ri keladi. Ko'krak so'rg'ichlari o'n to'rtinchi va o'n beshinchi barmoqlar



o'rtasida joylashgan. Bosh uzunligi ikkita o'rtacha barmoq uzunligiga teng. o'n yettinchi barmoqda burun uchi, o'n sakkizinchi barmoqda esa peshona do'ngligi joylashgan. Ammo qadim Misrda inson tanasining nisbiy munosabatlarini ishlab chiqishda yosh bolalar va o'smirlarni hisobga olishmagan. Rassom ayol, erkak va bolalarning rasmini bir qonun asosida, faqatgina o'lchamini o'zgartirib ishlagan. O'lchamlarning katta kichikligida insonning ijtimoiy nufuzini ham



ko'rsatishda foydalanilgan. Shu sababli ham fir'avn yoki mashhur insonning rasmi qullar rasmiga qaraganda bir necha bor katta qilib ishlangan. Qadimgi Misr san'ati umuman ko'rinishda sinfiy tabaqalarni ifodalashga qaratilgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr rassomlari bir tasvir doirasida jismga turli nuqtai nazar bilan yondoshganlar: masalan, tananing ba'zi qismlari old tomondan (bosh, oyoq), shu paytning o'zida boshqa qismlar (ko'zlar, elka) yon tarafdan tasvirlangan. Shu o'rinda

ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr asarlarining o'ziga xos jihatlari ham bo'lgan. Qadimgi Misr asarlari ko'p asrlar davomida bir rangda, boshqa tus va ranglardan foydalanmasdan siluet da ishlangan.

Yevropa qonunlari qadimgi yunon-rum an'analariga asoslangan bo'lib, ular Uyg'onish davri rassom-nazariyotchilarining asarlarida bizning davrimizgacha etib kelgan. Mazkur asarlar birlik g'oyasi bilan sug'orilgan va ulardagi inson tasviri ideal normalarda ishlangan.

Yunonlar qadimgi misr rassomchilik maktabining rasm ishlash usullarini egallab, inson tanasi tuzilishi muammosiga yangicha yondoshganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, hayotdagi eng ajoyib mavjudot - bu inson: chiroyli qomatli ayol, rivojlangan muskulli erkak.

Tabiatni, insonning yalang'och tanasi go'zalligini o'rganib, ulardan shunchalik ko'p go'zallik va nafosat topganlarki, natijada ular ma'budlar timsolini ham inson tasvirida ishlay boshlaganlar. Qadimgi davrlardan yunon inson tasvirini tasviriy san'atning bosh bo'g'imi sifatida ta'riflab, inson tanasining barcha qismlarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqqanlar. Ular inson tanasi tasvirini ishlashda an'anaviy qonundan foydalanib, san'atda yangi muammoni ilgari



surganlar va uning yechimini o'z asarlarida ko'rsata olganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, jahonda qonun-qoida hukmronlik qiladi va go'zallik mohiyati ma'lum tartib asosida (simmetriya, qismlarning o'zaro va butun jism bilan uyg'unlashuvi, hamda matematik munosabatlar natijasida) vujudga keladi. Miloddan avvalgi 432-yilda **Poliklet** inson tanasi qismlarining nisbiy qoidalari to'g'risida ma'lumot yozib qoldirgan. U inson tanasi yangi nisbiy bo'linishini o'rnatdi va tasviriy san'at tarixida birinchi


marotaba tananing yashirin dinamikasini bir oyoqqa tiralib turgan inson tasviri misolida ko'rsatib berdi.

Ushbu muammoning yechilishi bilan inson tasviri real ko'rinishga ega bo'ldi va ishlangan rasmlarda tiriklik va tabiiylik mujassamlashdi. Poliklet **o'z nazariy** qarashlarini **tasvirlab** berish uchun Dorifor haykalini ishladi va ushbu asar rassomlarga namuna sifatida xizmat qildi. Keyingi davr rassomlari uchun ushbu asar o'ziga xos darslik vazifasini o'tagan. Ammo Poliklet qonuni haqida bizgacha etib kelgan ma'lumotlar bir-biriga qarama-qarshi. Ushbu ma'lumotlarning ba'zilarida Poliklet o'lchov birligi sifatida kaftdan foydalangan deyilgan bo'lsa, boshqalarida oyoqning tag qismi, yana ba'zilarida esa bosh balandligidan foydalangan deb e'tirof etilgan. Yunon rassomlari tasvirni tabiiyligiga katta e'tibor qaratishgan. Ular borliqni asl ko'rinishda tasvirlashga intilganlar. Natura bilimlar manbai bo'lib xizmat qilgan va o'z navbatida rassomchilik bo'yicha ta'lim berish ham natura asosida paydo bo'lgan. Asosiy qoidaga ko'ra: inson - barcha jismlar o'lchovi. Ushbu falsafiy g'oya qadimgi yunon san'ati asosida shakllangan. Buyuk me'morlar inson tanasining nisbiy qonun-qoidalaridan kelib chiqib tana asosi va kapitelnig nisbatlarini aniqlaganalar.

O'rta asr rassomlari cherkov qonun-qoidalariga rioya qilib, real tasvir ishlashdan chekindilar va mistika (afsona) san'ati bilan shug'ullana boshladilar. Yalang'och inson tanasining betakror go'zalligi o'rniga rassomlarni chalg'ituvchi, ulami inson anatomiyasidan yiroqlashtiruvchi burchaksimon shakllar ishlana boshlandi. Jismlarning turli shakllari tasvirining tuzilish qoidalarini nazariy jihatdan asoslashga urinish o'rta asr frantsuz arxitektori **Villar de Onnekur** tomonidan amalga oshirildi.

Ammo biz bu yerda shuni ko'rishimiz mumkinki, rassom o'z talqinida rassomchilik qoidalaridan rasimga emas, balki rasmdan geometrik shakllarga o'tish g'oyasini ilgari suradi. Villar de Onnekur turli shakllami, jumladan inson tanasi va yuzini geometrik shakllar asosida chizishga uringan. Olimlarning fikricha, bunday g'oya asosida ishlaydigan rassomlar geometrik qonun-qoidalarni raqamlarga bo'ysunishiga hamda uchburchak va aylananing mo'jizaviy kuchiga ishonganlar.

Uyg'onish davri nafaqat tasviriy san'at rivoji tarixi uchun, balki umuman rasm chizish usullarini o'rganish sohasi uchun ham yangi davr bo'ldi. Bu davrda realistik rasmlar ishlashga, borliqni haqiqiy ko'rinishini tasvirlashga ishtiyoq tug'ildi. Uyg'onish davri ijodkorlari tabiat qonunlarini ochib berishga intildilar, hamda san'at va fanni bir-biri bilan bog'lash vazifasini o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Ularni qadimgi Gretsiya san'ati ruhlantirdi. Tasviriy san'at muammolari ustida mashhur rassomlardan **Aberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer** va boshqalar ishladilar. Barcha san'atlarning durdonasi bo'lmish rassomchilikka bo'lgan hurmat-e'tibor yana tiklandi. **Mikelanjelo** shunday deb yozgan edi: *«qalamtasvir, yoki chizgilar san'ati ham rassomchilik, ham*



*haykaltaroshlik, ham me'morchilikning yuqori nuqtasi bo'lib hisoblanadi; qalamtasvir - barcha ilmlarning ildizi va manbayidir*». Arxitektor Vitruviy nisbatlarni o'rganish vaqtida inson tanasi qismlarining quyidagi munosabatini hisobga olgan: bosh tana balandligining  $1/8$  qismi, yuz  $1/10$ ; yuz balandligi kaft uzunligiga teng, kaft - qomat balandligining  $1/10$  qismiga teng. Bo'yin va bosh balandligi ko'krakdan boshlanganida qomat balandligining  $1/6$  qismiga teng. Boshning eng yuqori nuqtasidan ko'krak so'rg'ichlari joylashgan chiziqqacha bo'lgan oraliqqomatning  $1/4$  qismiga teng. Kindikning balandligi butun tana balandligining  $4/6$  qismiga teng. Boldimning tizza qopqog'ining pastki qismigacha bo'lgan uzunligi model balandligining  $1/4$  qismiga teng. Tovon uzunligi model balandligining  $1/6$  qismiga teng. Vitruviyning nisbatlar tizimi Uyg'onish davrida **Chennino Chennini** va Leonardo da Vinchi tomonidan yangilangan, hamda u to'g'ridan-to'g'ri «Qadimgilar kvadrati» nomli qonun bilan bo'liq. Ushbu qonunning Vitruviy ilgari surgan grafik ifodasi hozirgi kunga qadar mashhur bo'lib kelgan ko'pchilik Evropa qonunlarining asosi bo'lib hisoblanadi. Leonardo da Vinchi asosiy e'tiborni inson tanasi rasmini chizishga qaratdi. Bunda u qomatni



to'g'ri shakllantirish, uning muvozanat o'qini aniqlash va harakat xususiyatini to'g'ri ko'rsatib berish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu shart bajarilganidan so'ng, tana nisbatlarini aniqlashga kirishishi kerak. Leonardo da Vinchi inson tanasi tasvirini chizish qoidalarini ishlab chiqish chog'ida, Vitruviyning nisbatlar tizimini - «Qadimgilar kvadrati» tizimini shakllantirdi (unga ko'ra inson tanasi uzunligi yoyilgan ikki qo'l uzunligiga teng).

U inson tanasi qismlarining nisbiy munosabatini o'zida aks ettiruvchi rasm-sxemani ishlab chiqdi. Unda quyidagi munosabatlar ko'rsatilgan: tizza qopqoglining pastki qismigacha bo'lgan oraliq tana balandligining  $\frac{1}{4}$  qismiga teng, jinsiy a'zodan peshonagacha bo'lgan qism tana balandligining  $\frac{1}{2}$  qismiga teng, jinsiy a'zodan ko'krak so'rg'ichlarigacha bo'lgan oraliqtana balandligining  $\frac{3}{4}$  qismiga teng; to'sh suyagi dastasidan jinsiy a'zogacha bo'lgan oraliq tana balandligining  $\frac{5}{6}$  qismini tashkil etadi; jinsiy a'zodan burungacha bo'lgan masofa tana balandligining  $\frac{11}{12}$  qismiga teng; markaziy chiziqdan qo'lning boshlanish qismigacha bo'lgan oraliq qomat balandligining  $\frac{1}{8}$  qismiga teng; markaziy chiziqdan tirsakkacha bo'lgan masofa qomat balandligining  $\frac{1}{4}$  qismiga teng; markaziy chiziqdan kaftgacha bo'lgan oraliq qomat balandligining  $\frac{4}{10}$  qismiga teng.




Leonardo da Vinchi qonuniyati asosida chizilgan inson tanasi tasviri uzun oyoqiar, kindikning past joylashuvi hamda uzunchoq yuz bilan ajralib turadi.


Shuningdek nemis rassomlari **Albrext Dyurer** va Shonning nazariy qarashlari juda ahamiyatli bo'lib hisoblanadi: ularning asarlari tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Dyurer asarlari insonparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan. Dyureming eng ahamiyatga molik asarlardan bid - «*Inson tuzilishi nisbatlarini o'rganish*» nomli asar bo'lib, u rassomning deyarli butun ijodiy hayotining asosi desak xato bo'lmaydi. Dyurer ushbu masala bo'yicha barcha mashhur g'oyalarni keltirib o'tgan va ko'plab rasm va chizgilar orqali ularga ilmiy izoh ham bergan.

Rassom o'z ijodiy faoliyati davomida inson tanasining tuzilishini matematik hisob-kitoblar, hamda geometrik shakllar orqali tasvirlash yo'llarini izlab topishga intilgan. Dyurer inson tanasini quyidagi nisbiy qismlarga ajratish g'oyasini olg'a surgan edi: agar inson tanasi uzunligini I deb olsak, bosh uzunligi -  $\frac{1}{8}$ , tana asosi -  $\frac{1}{2}$ , qo'llar (tirsakkacha bo'lgan qismi) -  $\frac{1}{4}$ , ko'krak kengligi -  $\frac{1}{6}$ , yelka kengligi -  $\frac{1}{4}$ , kaft kengligi -  $\frac{1}{10}$ , tovonlar -  $\frac{1}{6}$ , tos suyagining bir oz pastki qismi butun tana uzunligining  $\frac{1}{2}$  qismiga teng. U ayol rasmini ishlashga alohida ahamiyat beradi. Bu yerda




Dyurer nafaqat tana qismlarining nisbiy bo'linishi qoidalarini hisobga olgan, balki ajratish chiziqlaridan tasvirni ishlashda yordamchi vosita sifatida foydalangan. Uyg'onish darvriining ko'pchilik rassomlari - Rafael, Jovanni Paolo Lomatstso, Mikelanjelo va ularning izdoshi Jan Kuzen va boshqalar tananing qismlarga ajralishi qoidalari ustida ish olib borganlar. Lomatstso qonuniga asosan tana balandligining o'nta qismga bo'linishining o'ziga xos afzalliklari shundan iboratki, bunda tasvir anatomik nuqtalar bilan ko'p hollarda mos keladi. Ushbu qonun uchta tenglikni olg'a suradi: burun asosi - kindik; kindik - tizza bo'g'imi hamda tizza bo'g'imi va yer yuzasi, qo'llar yoyilganda tana uzunligiga teng bo'ladi. Yelkadan o'rta barmoqqacha bo'lgan qo'l uzunligi yuz uzunligining to'rt barobariga teng. Qonunning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda bo'yinning uzayishi hisobiga tana asosining qisqarishi ko'rsatilgan. Mikelanjelo o'zining mashhur rasmlaridan birida bosh balandligini tananing  $\frac{1}{8}$  qismiga teng, tizza qopqog'ining





chekkasini esa tos suyagi va oyoq uchining o'rtasi deb **ta'riflangan. Jan Kuzen** bosh balandligining 1/4 qismini o'lchov biriligi (modul) sifatida qo'llaydi. Unga ko'ra butun tana uzunligi 32 modulga teng. Rus rassom-pedagoglaridan **A.P.Losenko** va **V.K.Shebuevlar** nisbatlar ta'limotini ishlab chiqdilar. A.P.Losenko inson tana uzunligini sakkizta bosh va o'nta yuz balandligiga teng deb ko'rsatadi. Losenko tananing kichik qismlarini o'lchab chiqishga intildi va bu albatta o'ta aniqlikni talab etardi. XIX asrda olimlar va rassomlar antropologiya va statistika ilmlarining rivojlanishi natijasida inson tanasi va uning qismlari o'lchamlarini to'g'ri aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada anatomiya va antropologiya sohasi vakillari anatomic jihatdan asoslangan yangi qonunlarni ishlab chiqdilar va ularda tananing turli qismlari modul sifatida qo'llanildi: masalan, **Fritch** qonunida modul - umurtqa pog'onasi.

Inson tanasi nisbatlari to'g'risidagi to'liqroq ma'lumot haykaltarosh **Gottfrid Shadovning** (1764-1850) «**Poliklet yohud jins va yoshga ko'ra inson tanasi nisbatlari**» nomli asarida o'z ifodasini topgan. Erkak kishi rasmida quyidagi muvozanat nuqtalari orasidagi tenglikka amal qilingan: bosh cho'qqisi - engak - so'rg'ichlar chizig'i, so'rg'ichlar chizig'i - kindik, kindik - jinsiy a'zoning pastki qismidan o'tuvchi chiziq, jinsiy a'zo - boldirning yarmi, boldirning yarmi - tizza bo'g'imi. Ayol kishi tana balandligi bosh balandligining 7 1/2 qismiga teng. Bosh balandligiga teng bo'lgan masofa tananing yuqori qismidagi quyidagi tayanch nuqtalarni to'g'ri aniqlashga yordam beradi: bosh cho'qqisi - engak, engak - so'rg'ichlar chizig'i, so'rg'ichlar chizig'i - kindik, kindik - sonlarning o'rta birlashgan qismi. Tana balandligining yarmi taxminan tos suyagining yuqori qismi hisoblanadi. G.Shadovning inson tanasi nisbatlarini o'rganishga qo'shgan yana bir hissasi shundan iboratki, u insonning



yoshidan kelib chiqib nisbatlarning o'zgarishini kuzatgan. Morfologik tadqiqotlar asosida metrik ma'lumotlar o'rnatilgan va ularning natijalari alohida tasviriy did bilan ishlangan rasmlarda kuzatilishi mumkin. Bolalarning tana nisbatlari yoshga ko'ra o'zgarib boradi. Yangi tug'ilgan chaqaloqboshining balandligi tana balandligining  $\frac{1}{4}$  qismiga teng, qo'llarning uzunligi tananing  $\frac{2}{5}$  qismini, oyoqlari esa  $\frac{1}{3}$  qismini tashkil etadi. G o'daklarda kindik-tananing o'rtasi (balog'atga yetgan insonlarda tananing o'rtasi tos suyagining yuqori qismiga to'g'ri keladi). Yangi tug'ilgan chaqaloqning bosh kengligi tos qismi kegligiga teng bo'ladi. Yosh ulg'ayishi bilan tana nisbatlari ham o'zgarib boradi. Bunda bir tomondan butun tana va uning a'zolari kattalashadi, ikkinchi tomondan esa tananing alohida qismlari o'rtasidagi munosabat ham o'zgaradi. Bosh balandligi faqat ikki barobar kattalashadi, tana asosi (tors) - uch barobar, qo'llar - to'rt barobar, oyoqlar - deyarli besh barobar, bo'yin - etti barobar, ko'krak qafasi aylanasi - uch barobar kattalashadi. Tananing pastki qismining o'sish darajasi tepa qismga nisbatan ancha yuqori bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ayol va erkak kishilar tana nisbatlarida ham farqlar mavjud. Ayol kishi qomati erkaklarnikidan past bo'y, oyoq va qollarning nisbatan qisqaligi, kichikroq yelka va keng tos qismi, kaft va tovonning kichikligi, boshga nisbatan yuzning kichikligi, jag' va bosh chanog'ining kamroq rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Odatda erkaklarning yelkasi tosdan ancha keng. Ayol tanasi ingichka va nisbatan uzun bo'yin va biroz tushgan yelkalari bilan xarakterlanadi.

Ayollar ko'krak qafasining yuqori qismidan ko'krak so'rg'ichlarigacha bo'lgan oraliq erkaklamikiga nisbatan qisqa. Ayollarning oyoqlari qisqaroq bo'lganligi sababli ularning kindigi tananing o'rtasi bo'lib, u erkaklamikiga nisbatan balandroqda joylashgan. Tizza chiziqlari ayollarda erkaklarnikidan pastroqda joylashadi. Ayollarning beli ko'proq oldinga chiqqan, dumba muskullari ichkariga tortilgan, ko'krak qafasi qisqaroq(erkaklarnikiga nisbatan), qorin - uzunroq. Inson tanasining mukammalligi va o'ziga xos xususiyati yana shu bilan izohlanadiki, agar yangi tug'ilgan chaqaloqning kindigi tanani teng ikkiga bo'lsa,

katta odamlarning (erkak va ayollarning) bel qismi tanani «oltin kesishuv» tamoyiliga ko'ra teng bo'lmagan ikki qismga ajratadi.

Oyoq-qo'l nisbatlari tana asosi yoki butun tana balandligi hamda oyoq va qo'lni o'zaro solishtirish orqali aniqlanadi. Qo'llarning uzunligi o'z o'lchamiga ko'ra tana asosi (tors) uzunligiga yaqin. Tovon uzunligi tana balandligining o'rtacha 14-16% ga teng. Ichki nisbatlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, oyoq-kafit suyagi yaxshi shakllanadi, barmoqlar esa nisbatan qisqaradi.

Tovon nisbatlarining o'ziga xos xususiyati uni kaft bilan solishtirilganida namoyon bo'ladi. Kaft va tovonni teng 10 qismga bo'lib, ularni alohida taqsimlab chiqamiz. Bunda quyidagi nisbat hosil bo'ladi: kaft - kaft usti suyagi 2 qismga teng, kaft suyagi - 3, o'rta barmoq- 5, oyoq- oyoq kaft suyagi - 5, oyoq-kaft usti suyagi - 3, katta barmoq- 2 qismga teng. qo'l kaftining maksimal uzunligining yarmi o'rta barmoqning kaftfalanga birikkan joyiga to'g'ri keladi.

#### **4-Mavzu: Libossiz erkak qomati o'tirgan xolatda. (Keksa chayir kishi).**

**Inson qomatini o'tirgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.**

*Reja:*

- 1. Hajmli odam qomatini shakli*
- 2. Inson qomatida mushaklar va suyagi mutanosibligi*
- 3. Bo'gimlar birlashmalari, harakatlari va ularning plastikasi*

Talaba gips bo'laklari rasmini chizishdan tirik odamning libossiz qomati rasmini chizishga o'tar ekan, o'z ishida juda ko'p qiyinchilik va murakkabliklarga duch keladi. Bu qiyinchilik va murakkabliklar shundan iboratki, talaba avval chizgan odam qomati xaykallari modeli doimiy, muqim holatda turgan; inson qomatining yoritilishi, soya, yarim soya va tushayotgan soya va tus berish kuchi rasm chizishning hamma seanslari davomida o'zgarmay turgan. Tirik odamning libossiz qomati esa doim



harakatda bo'ladi: naturachi qimirlab ketsa, soya va yarim soyalar xarakteri o'zgaradi. Undan tashqari tirik odamning libossiz qomati Odam xaykal qomatini tasvirlashni taqqoslashdagi asosiy murakkablik shundan iboratki, bu o'rinda rasm chizuvchi ko'p narsani o'zi mustaqil hal qilishga, o'z idroki va ijodiy qobiliyatini faollashtirishga majbur bo'ladi. Gips namunalarda talaba shaklni umumiy ko'rgan. Ushbu haykal namunasini yaratgan buyuk usta ikir-chikir, mayda-chuydalarni chetga ehiqarib tashlab, e'tiborini asosiy narsaga qaratgan. Tirik odamning libossiz qomatini rasmini chizuvchi endi bularni o'zi amalga oshirishi, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan ajrata bilishi kerak bo'ladi.

Tirik odamning libossiz qomati shaklini tasvirlayotib unga tus berishda ham murakkablik tug'iladi. Odamning yalang'och xaykali materialining tus va fakturasi ham bir xil bo'lgan. Yorqin va bo'g'iq joylardagi tus kuchi o'rtasidagi farq shaklning u yoki bu yuzasi qanday yoritilganligiga bog'liqdir. Tirik naturadan chizishda shaklga tus berish yana shu bilan murakkablashadiki, naturada turgan kishining yuzi, sochlari, ko'zlari, qomati, yonoq va lablari har xil tusda bo'ladi. Yonoq, lablarning qizg'ish tusi bir xil yoritilsa-da, sal



bo'g'iqroq tuyuladi. Tirik bosh yuzasining turli rangda boiishi shaklning o'zini ko'rishni qiyinlashti-radi, rasm chizuvchini shaklni tasvirlash o'rniga, yorqin va bo'g'iq ranglarini ko'rish va undan nusxa ko'chirish, ba'zan esa naturada yo'q narsalarni ham o'ylab topishga majbur qiladi. XVIII-XIX asrlarning klassik badiiy akademiya ta'lim tizimida odamning tirik boshini chizishni maxsus o'tgatishga lozim darajada e'tibor berilmagan. Ganch bosh rasmini chizishdan ganch haykal rasmini, undan so'ng esa yalang'och tirik odam qomatini chizishga o'tilgan.



Rassomning ganch boshni chizishda olgan bilim va malakasi tirik bosh va portret chizish uchun yetarli, deb hisoblangan. Bizning badiiy ta'lim tizimimiz ganch bosh rasmini chizishda bosh shakli qurilishining hamma qonuniyatlari va xususiyatlarini to'liq o'rganishni talab etadi. Chunki tirik boshning plastik xarakteristikasi asosiy mushak va bosh suyaklarining, shuningdek, mimik mushaklar va kalla suyagi qurilishining ko'zdan yashirin boshqa xususiyatlariga ham bog'liqdir.



Talabalar ganch modellar rasmini chizganida uning dastlabki asoslarinigina o'zlashtiradilar. Tirik bosh shaklini tasvirlash uchun esa ular yana qator qonuniyatlamini o'zlashtirishlari zarur. Yuqorida aytilganidek, rassom bosh shakli qurilish qonuniyatlarini bilmasa, massa, naturadan passiv nusxa ko'chiruvchi bo'lib qoladi, natura uning butun e'tiborini jalb qiladi, u naturadan nazarini olib qochishga qo'rqadi va bu natura qurilishining qonuniyatlarini idrok etolmaydi, binobarin, ulardan o'z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham.

Haqiqiy ijod erkinligiga erishish uchun rassom ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. U bu bilim yordamida boshning har bir chuqurchasi va bo'rtib chiqqan joylari nimaga asoslanganligini bilishi lozim. A.Dyurer yozganidek: ***agar senda haqiqiy asos bo'lmasa, qo'ling erkinlikka erishgani bilan bari bir, hech qanday yaxshi narsa qilishga erisholmaysan. Haqiqiy bilim tufayli esa ancha dadil bo'lasan va ishni mukammalroq bajarasan.*** Rassom tirik bosh shaklini chizishda quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

- 1) hajmli odam qomatini shaklining ishonchli chiqishiga erishish;
- 2) rasmda qomat suyagi va mushaklar mutanosibligiga erishish;
- 3) inson qomatining individual xususiyatlarini ochish.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun rassom shakl qurilishining individual xususiyatlarini, u yoki bu detaining joylashishini chuqur sezishi, oldindan esa bu




qonuniyatlarini yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun tirik bosh rasmini chizishga kirishishdan oldin kalla suyagi va uning mushak bilan qoplanishi xususiyatlarini asoslovchi anatomiya va boshqa fanlar qonuniyatlarini o'rganish darkor. Biz "O'quv rasmining ilmiy asoslarini bilish" deganimizda, eng avvalo, har bir rasm chizuvchidan ilmiy qoidalarni bajarish talab qilinishini nazarda tutamiz. Masalan, talabani rasm chizishga o'rgatar ekanmiz, uni perspektiva qoidalari va qonuniyatlariga aniq rioya qilishga majbur qilamiz. Odam qomatining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson qomati tuzilishi va mushaklarning joylanish qonuniyatlariga rioya qilish talab etiladi. Rasm chizish usuli induvidual tarzda bo'lishi mumkin, lekin mushaklar, suyaklar, paylarning joylashish qonuniyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerak. Bular tasviriy san'atning ilmiy qoidalari. Tus berish, nisbatlar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytish mumkin. Yuqorida o'quv akademik rasmning ilmiy asoslari haqida ko'p gapirildi. Ushbu mavzu bundan keyin ham davom ettiriladi. Akademik rasm chizish mohiyati ham shundadir. Ushbu tizimda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ilmiy bilimi uzluksiz oshib boradi, ta'lim uslubi esa ilmiy yo'nalishda olib boriladi. O'tmishda turli akademiyalarning gullab-yashnash davrida bunga qat'iy rioya qilingan. Mazkur darslik ham akademik yo'nalishga asoslangan, shuning uchun ham biz "o'quv rasmi" emas, balki "akademik rasm" atamasini ko'proq qo'llaymiz.

O'quv rasmi modemistlarda ham bor, ular ham boshlovchi rassomlarga o'z san'atini o'rgatadilar va ularni shunga tayyorlaydilar. "O'quv rasmi" tushunchasi san'atdagi har qanday tendensiya va qarashlarni qamrab olishi mumkin. "Akademik rasm" tushunchasi realistik san'at prinsiplari va uslublarini nazarda tutadiki, unda har bir vazifa ilmiy-nazariy asosga ega bo'ladi, ta'lim esa ma'lum tizimga bo'ysunadi. Akademik ta'lim tizimi G'arbiy Yevropa, rus va o'zbek milliy realistik san'atining eng yaxshi an'analari, hozirgi zamon pedagogika va psixologiyasiga asoslanadi. Akademik ta'lim yosh rassom oldida borliq hodisalarining go'zalligi va



betakrorligini namoyon etishda moddiy borliqning ob'yektiv qonunlarini ochadi. Bularning hammasi tabiatning eng go'zal mahsuli - inson qiyofasi, xususan, odam boshini tasvirlashga ham bevosita aloqadordir. Tabiiyki, talaba dastavval, odam boshi shakli qurilishi sxemasini tushunishi va eslab qolishi, ularni amaliyotda qo'lashi kerak.

Taklif qilinadigan sxemalar va shaklni tahlil qilish prinsiplari bo'yicha bosh tasvirini chizish, hatto, o'quv paytida ham ijodiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham u keyinchalik yosh rassomga o'z shaxsiy ish usullarini topish imkonini beradi. Biroq har qanday holda ham, dastlab, bosh shaklining





konstruktiv-anatomik tuzilishini, ya'ni odam boshi anatomiyasini mukammal o'rganish kerak.

Talaba plastik anatomiyani o'rganar ekan, shaklning tashqi tomonini kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. U, shuningdek, fikr yuritayotgan anatom olim kabi shakl ichiga kirib borishi, inson tanasi qurilishining qonuniyatlarini tushunib etishga harakat qilishi lozim. U o'z kuzatishlaridan xulosa va umumlashmalar chiqarib, ba'zi mushak shakllarining o'zgarishi qoidalari va me'yorlarini bilib boradi. Insonni bunday chuqur ilmiy o'rganishda Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Losenko, Shabuyev va boshqalarning rasmlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Leonardo da Vinchi rasmlarida biz nafaqat tashqi mushaklarni, balki chuqur paylar, kemirchak(tog'ay)lami ham ko'ramiz. O'tmishdagi buyuk ustalar inson tanasining va bosh tuzilishining anatomik qurilishini diqqat bilan o'rganganlar va suyaklar, mushaklar, paylarning, jumladan, angiologiya-ning (qon tomirlarining joylashishini o'rganuvchi fan) asosiy xususiyatlarini eslab qolganlar. Bu bilim rassomlarni kasb mahorati cho'qqilariga yetaklagan. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning hammasi naturadan rasm chizishda chuqur ilmiy bilim talab etilishidan dalolatdir. Talaba naturani o'rgana borib, jiddiy ilmiy ma'lumotlarga tayanib, suyak va mushaklar qurilishining umumiy uyg'unlashuvini tushuna boshlaydi.

***Gavda suyaklari, bo'gimlari  
birlashmalari, harakatlari va ularning  
plastikasi.***


Inson qomati rasmini chizish skelet va uning asosiy qismlari tuzilishini o'rganish bilan chambarchas boliq. Shuning uchun skelet tuzilishi bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Skelet tirik odam (yoki anatomik model) holatiga yaqin holatda, tik




turgan chog'da, bir qo'li pastda, ikkinchisi biror narsani ushlab turgani bo'yicha va bir oyog'iga tayanib turgan holatida joylashtiriladi. Skeletning bir o'zini yoki inson modeli bilan birgalikda chizish uchun naturadan odam modeli qanday bo'lsa, o'sha holatda chizish mahorati zarur bo'ladi. Skelet inson tanasining konstruktiv va dinamik ko'rinishi bo'lib hisoblanadi; u harakatlanuvchi asos vazifasini o'taydi va odamning harakatlanishi, yurishi, yugurishi, mehnat qilishi, sport bilan shug'ullanishi va h.k.lar ushbu konstruktsiyasining tuzilishiga bog'liq. Suyaklarning birlashgan joyi (bo'g'im va birikmalar) o'zaro harakati muskullarga boshni burish, tana asosini egish va bukish, qo'lni ko'tarish va tushirish, kaftni mushtum holatiga keltirish, hamda har bir barmoqni alohida harakatga keltirish imkonini beradi. Rasm chizish chog'ida o'quvchilar e'tibori tors (tana asosi), bosh va qo'l-oyoqlami harakatga keltiruvchi bo'g'implarning turli-tumanligiga qaratiladi. Harakat davomida bo'g'implarning ahamiyatini amaliy jihatdan tirik odam misolida ko'rsatish mashg'ulotni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi. Bu rassomlar uchun skelet va tirik inson tanasi o'rtasida uzviy bolliqlik mavjudligini yaxshiroq anglab etish imkonini beradi. Inson skeleti ma'lum ketma-ketlik asosida chizilishi kerak. Qog'ozga avvalo tasvirning umumiy holati va joylashadigan o'rnini ko'rsatuvchi

engil shtrixlar chiziladi. Skelet balandligi vertikal bo'yicha o'mrov suyagidan (to'sh suyagi tutqichidan) tovongacha bo'Mgan oraliq hisoblanadi va u belgilab qo'yiladi. Oyoqlar joylashuvchi yuzada gorizontal tekislikdagi oyoq o'rnini ko'rsatuvchi perspektiv to'g'ri chiziqlar chiziladi.

So'ngra skelet balandligini oyoq suyaklarini biriashtiruvchi chiziq orqali ikkiga bo'linadi, o'mrov suyaklari birlashgan joydan esa ikki elka suyagini biriashtiruvchi chiziq tortiladi. Vertikal chiziqning yuqori uchidan pastga tomon (butun tana balandligini hisobga olgan holda) kalla balandligi aniqlanadi va shundan so'ng butun skeletning balandligi kelib chiqadi. Son suyaklarining do'mboqlari o'rtasidagi oraliq masofa va o'mrov suyaklari holati o'zaro va



butun skeletga nisbatan solishtirib aniqlanadi. Aniqlangan son suyaklari chiziqlari uchidan pastga, oyoqning tizza bo'g'imlari tomon yo'nalgan to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Tizza bo'g'imlaridan esa tovongacha chiziq tortiladi. Shundan so'ng



skeletning yuqori qismini chizmalarini ishlashga kirishiladi. Son chizig'i asosida tos suyagi, uning balandligi va umumiy shakli (trapetsiya) aniqlanadi. Dumg`azadan (tos suyagining eng pastki qismida joylashuvchi qismdan) boshlanuvchi va Bosh suyagigacha davom etuvchi umurtqa pog'onasi yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziq chiziladi. Yuqorida aniqlangan Bosh suyagi balandligi butun Bosh suyagini chizishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shundan so'ng Bosh suyagining burilish burchagini ko'rsatuvchi bo'yin suyagi chiziladi. Ko'krak qafasi shakli va oichamlari umumiy belgilanadi umurtqa pog'onasidan yuqori qismidan elka suyaklari o'tuvchi to'sh suyagigacha. Rasmda orqa tarafdin ko'krak qafasi ustida yotuvchi kurak suyaklarining umumiy ko'rinishi engil chiziqlarda belgilab olinadi. Shundan so'ng qo'l suyaklariga mos keluvchi sxema chiziqlari - yelka chiziqlari oxiridan kaftgacha, kaftdan kaft usti suyalarigacha chiziq chiziladi. Skelet chizishdagi ketma-ketlikni pedagog skeletdagi suyak va birikmalar asosida tushuntirib beradi. Bunda u quyidagi asosiy nisbat munosabatlarini eslatib o'tishi kerak: odatda pastga tushirilgan qo'l son suyagining o'rtasigacha cho'ziladi, son suyagi uzunligi jihatidan boldir suyagi bilan deyarli bir xil, elka va tirsak suyaklari ham bir biriga teng deb olinishi mumkin. Bosh suyagining butun skeletga nisbati esa inson gavdasining tuzilishiga (bo'y bastiga qarab) 1:7; 1:7,5 yoki 1:8 bo'lishi mumkin. Skelet sxemasi chizilganidan keyin, suyak shakli va suyaklarning birlashish xarakterini aniqlashtiruvchi chiziqlar chiziladi. Asosiy suyaklarning o'lchamini aniqlashda sxema va natura chiziqlari orientir bo'lib xizmat qiladi. Skeletning shtrixli tasviri (unga yorug'lk tushishi natijasida uning hajmi ham ko'rsatilganida) rasm tayyor deb hisoblanadi. Skelet rasmini chizib bo'lgandan so'ng, insonning turli holatlari vaqtida gavda tuzilishining sxematik rasmlarini chizib mashq qilish o'quvchilar uchun muhimdir.

**5-Mavzu: Libossiz odam qomati (murakkab hollaridagi tahlili). Libossiz odam qomati tayanch nuqtalari bilan (Keksa chayir kishi, konstruktiv yechimda, shartli chizma suniy yorug'likda). Inson qomatining tayanch nuqtalarini aniqlangan holda tasvirlash.**

*Reja:*

*1. Inson qiyofasining nisbatlari.*




## ***2. Bir butun qomatning asosiy xarakatlari.***

### ***3. Inson qiyofasini chizishda asosiy nuqtalar va ularni qo'llash.***

Insonning ma'lum bir harakati paytida uning skeletlaridagi suyaklarning nisbiy holati o'zgaradi, asosiy mushaklarining mos keladigan guruhlari taranglashadi, bu butun figuraning tashqi plastik shaklida o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun o'quv chizmasini qurish ishning mohiyatini, figuraning turli harakatlaridan kelib chiqqan mushaklarning kuchlanish darajasini bilishga asoslanishi kerak. Biz ushbu muammoni inson tanasining alohida qismlarini chizish texnikasiga bag'ishlangan bo'limlarda batafsil ko'rib chiqamiz.

Inson tanasining tashqi plastik shakli bevosita uning ichki tuzilishiga bog'liq. Shuning uchun, tashqi shakllar konturlarining o'zgarishiga olib keladigan sabablarni aniq tushunmasdan, o'quvchi rasmda odam figurasini ishonchli tarzda qura olmaydi. Eng yaxshi holatda, chizish jarayoni ko'rinadigan shakllarning ko'proq yoki kamroq aniq nusxasiga qisqartiriladi.

Shaxs figurasining plastik shaklidagi o'zgarishlarning u qilayotgan harakat tabiatiga bevosita bog'liqligini ko'rsatish uchun oddiy misol keltirilgan. Quyidagi rasmda bir oyog'iga suyanib turgan o'tiruvchini ko'rsatadi. Shaklning muvozanat darajasini plumb chizig'i yordamida tekshirish mumkin. Tirik inson modelning barqaror muvozanati holatida, figuraning og'irlik markazidan tushirilgan o'q chizig'i (tos suyagining o'rtasida joylashgan) tayanch izini kesishi kerak. Bunday holda, qo'llab-quvvatlovchi oyoq sezilarli darajada tashqariga egiladi, tors muskuli bilan yuklangan va ikkinchi oyoqning tayanch nuqtasidan uzilgan tos suyagi ham moyil holatni oladi. Bu bunday holatga xos bo'lgan qiyshiq harakatni yaratadi.



Oyoqning egilishi va tos suyagining buzilishi tayanch oyoqning femurning katta trokanterining kuchli chiqishi bilan ta'kidlanadi. Muvozanatni saqlash uchun umurtqa pog'onasining yuqori qismi, uning pastki qismi bilan tos suyagi bilan

qattiq bog'langan, teskari yo'nalishda egiladi. Bu egri chiziq tanasining o'rta chizig'ida aniq aks etadi. Orqa miya bilan qattiq bog'langan ko'krak qo'llab-quvvatlovchi oyoqqa egiladi. Bunday holda, ko'krakning pastki qovurg'alari, bir tomondan, tos bo'shlig'ining yonbosh suyaklariga yaqinlashadi, boshqa tomondan esa ulardan uzoqlashadi. Elkama-kamar ko'krak qafasining harakatiga mos keladigan tabiiy pozitsiyani egallab, tos suyagining egilishiga qarama-qarshi tomonga egiladi. Uning pastki qismidagi bo'yin orqa miya harakatini davom ettiradi va yuqori qismida bosh bilan birga qo'llab-quvvatlovchi oyoqqa qarama-qarshi tomonga og'adi.




Shunday qilib, butun figuraning umumiy harakati silliq serpantin chizig'iga o'xshaydi va tos suyagi, ko'krak va boshning og'irlik markazi qo'llab-quvvatlovchi oyoq iziga proektsiyalanadi. Qo'llab-quvvatlamaydigan oyoq bo'g'inlarda bir oz egilgan bo'ladi, uning tizzasi qo'llab-quvvatlovchi oyoq tizzasi ostida joylashgan bo'ladi. Qo'llar turli xil pozitsiyalarni egallashi mumkin, ammo qo'llab-quvvatlovchi oyoq ustidagi tushirilgan qo'l va ko'tarilgan boshqa qo'l elkalarining harakatiga mos keladi va butun shaklning tabiiy holatini ta'kidlaydi. Mushaklar odatda qo'llab-quvvatlovchi oyoq tomonida siqilgan, tarang holatda bo'ladi va qarama-qarshi tomonda cho'zilgan, bo'shashgan. Shunday qilib, biz inson figurasini faqat bir oyog'ida qo'llab-quvvatlash suyaklar va mushaklarning qat'iy mantiqiy joylashishini qanday qilib butun shaklning tashqi plastik shakliga ta'sir qilishini kuzatdik. Ushbu munosabatni tushungan talaba o'z vazni bilan yuklangan inson qiyofasining ishonchli tasvirini yaratishi mumkin.

Inson qiyofasining turli harakatlarining mexanikasini va ularni chizmada to'g'ri aks ettirishni tushunish uchun, birinchi navbatda, butun tananing va uning alohida qismlarining og'irlik markazining joylashishining ushbu jarayondagi ahamiyatini tushunish kerak. Tik turgan yoki o'tirgan odam ongli ravishda, lekin ko'pincha instinktiv ravishda tananing og'irligidan butun yukni butun skelet tomonidan qabul qilinadigan va mushaklarning ishi bu pozitsiyani o'rnatadigan pozitsiyani egallaydi. Shuning uchun, erkin turgan yoki o'tirgan shaklda uning umumiy harakati va alohida qismlarning harakati butun figuraning va uning

qismlarining tayanch nuqtalari va og'irlik markazlarining nisbiy holati bilan belgilanadi. Tabiiyki, agar raqam barqaror statik holatga ega bo'lsa, butun inson tanasining og'irlik markazidan tushirilgan o'q chizig'i uning tayanch maydonidan o'tishi kerak. Biror kishi ma'lum mushak guruhlarining kuchayishi tufayli o'zining yanada dinamik pozalarining harakatsiz holatini saqlab qoladi. Dinamik harakatlarni bajaradigan inson tanasining fazoviy joylashuvi murakkab va cheksiz




xilma-xildir. U statiklardan nafaqat og'irlik markazining boshqa pozitsiyasi va mushaklarning faolroq ishlashi, balki harakatlanuvchi tana massalarining inertsiya qonunlari bilan ham farq qiladi. Shuning uchun odamning yurish, yugurish, ishlash va boshqa murakkab harakatlarda umumiy og'irlik markazidan tushirilgan plumb chizig'i ba'zi lahzalarda tayanch maydonidan tashqariga chiqadi va inertial kuchlar tufayli tananing muvozanatiga erishiladi. . Tik turgan odamning umumiy og'irlik



markazi uning tos suyagining o'rtasida joylashgan bo'lib, odamning qiyin pozitsiyalarida og'irlik markazi uning tanasi chegaralaridan tashqariga chiqishi mumkin.

Inson o'z tanasining og'irlik markazining holatini ongli ravishda boshqaradi, uning alohida qismlari o'rtasida ma'lum munosabatlarni yaratadi. Bu unga mehnat, sport mashqlari, raqs va hokazolar davomida turli murakkab harakatlarni oson bajarish imkonini beradi. Hayot jarayonida ishlab chiqilgan harakatlar tabiiy, ba'zan esa chiroyli va uyg'un ko'rinadi. Kutilmagan, tasodifiy yiqilish holatlarida, odam instinktiv ravishda tanasining og'irlik markazini barqaror holatga keltirishga intiladi.

Tabiiyki, chizma yordamida makon va vaqtda sodir bo'ladigan harakat jarayonining faqat bir lahzasini suratga olish mumkin. Shuning uchun, harakatning bir lahzasi haqidagi taassurotni to'g'ri etkazish uchun ushbu harakatning butun jarayonini o'rganish va biz qayd etgan momentdan oldin qaysi pozitsiyani va undan



***Erkak va ayol figuralarining nisbati. Yoshga bog'liq o'zgarishlar***

keyin qanday pozitsiyani eslab qolish muhimdir. Tasvirlangan shaklning har bir

qismi oldingi harakatning izlarini saqlab qolishi va shu bilan birga keyingisini ham o'z ichiga olishi kerak. Rassomning vazifasi - bu harakatning tabiatini eng aniq va ifodali aks ettiradigan figuraning yagona pozitsiyasini tanlashdir.

Keling, vertikal o'q atrofida kuchli aylanayotgan odamning rasmini ko'rib chiqaylik. Bunday holda, umumiy aylanish harakati tananing alohida qismlarining nisbatan kichik bosqichma-bosqich burilishlaridan iborat. To'piq bo'g'implari, tizza va son bo'g'implari, ko'krak umurtqalari, pastki orqa va bo'yinning aylanishi boshni (oyoqlar tik turgan holda) har bir yo'nalishda  $180^\circ$  aylantirish imkonini beradi.


Inson figurasini turli pozitsiyalarda chizishda siz tos bo'shlig'ining bosh suyagi, ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi egriligi va oyoq-qo'llar suyaklarining joylashishini aniq tasavvur qilishingiz kerak. Bir so'z bilan aytganda, plastik anatomiya talabaga turli bo'g'inlardagi harakatlarning tabiatini, inson tanasining asosiy qismlarining mumkin bo'lgan o'zaro pozitsiyalarini va mushaklarning ma'lum bir guruhining ishini tushunishga yordam berishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, inson tanasining barcha qismlarining uning figurasi harakatining tabiati bilan qat'iy asoslangan, mantiqiy bog'liqligini tushunish kerak. Shuning uchun rasm chizishni o'rganish jarayonida figuraning tayyor tasviriga iz qog'ozini qo'llash va skelet suyaklarini uning konturiga moslashtirish foydalidir. Sxematik chizmalar inson qiyofasi va uning qismlari harakatining statik turlarini ko'rsatadi, ularning kombinatsiyasi nafaqat insonning jismoniy imkoniyatlari va holatini, balki uning murakkab aqliy kechinmalarini ham aks ettiruvchi boy harakatlar doirasini yaratadi. Inson figurasining o'quv chizmasi, albatta, turli xil matematik munosabatlarda harakat qiladigan, shaklning geometrik tuzilishining to'g'riligini ifodalovchi nisbatlar haqidagi bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak. Vitruvius ta'kidlaganidek, "Proportsion" - bu butun asar a'zolari va uning butun proporsionalligi asos bo'lgan asl nusxa sifatida olingan qismga nisbatan yozishmasidir. Individual xususiyatlar tufayli inson tanasining nisbatlarida ba'zi o'zgarishlar bo'lsa, ko'pchilik odamlar uchun xos bo'lgan ba'zi umumiy proporsional naqshlarni qayd etish mumkin. Voyaga etgan erkakning normal rivojlangan figurasining ushbu o'rtacha nisbatlarini dastlabki nisbatlar sifatida

qabul qilish mumkin, ular bilan solishtirganda shaxsning proporsional tuzilishining xususiyatlarini sezish osonroq.

Tabiatning eng uyg'un ijodi sifatida inson tanasining nisbati rassomlar va san'at nazariyotchilarining diqqat markazida bo'ldi. Proporsiyalarni o'rganish Rim arxitektura nazariyotchisi Vitruvius, Uyg'onish davrining yorqin rassomi Leonardo da Vinchi, o'sha davr me'morlari Alberti va Palladio va yirik mutanosib tadqiqotchilar Zeising, Messel va Gambage kitoblarida mavjud. Proporsiya masalasi bizning zamonamiz me'morlari va tadqiqotchilari, birinchi navbatda mashhur frantsuz me'mori Le Korbuzier va sovet me'morlari I.V.Joltovskiy, M.Ya.Ginzburg, V.F.Krinskiy va boshqalar ijodida muhim o'rin tutgan. Ushbu asarlar tufayli san'atning tarixiy rivojlanishi jarayonida tirik odamni chuqur o'rganishga asoslangan va inson tanasining mukammal go'zalligi haqidagi ma'lum bir davrning ideal g'oyalarini aks ettiruvchi ko'plab mutanosiblik qonunlari yaratildi.


Keling, o'rtacha bo'yli katta yoshli erkakning figurasining asosiy proporsional naqshlarini ko'rib chiqaylik. Boshning balandligi  $1/7,5-8$ , yelkalarining kengligi taxminan  $1/4$ , tos suyagining kengligi esa shaklning umumiy balandligining  $1/5$  qismini tashkil qiladi, pubik simfiz uni yarmiga bo'ladi, tizzalar oyoq balandligining yarmiga qo'yiladi, tushirilgan qo'lning barmoqlari sonning o'rtasiga etadi.

Uzun bo'yli odamning boshi balandligining  $1/8$  qismidan ko'prog'iga etadi, past bo'yli odamning boshi esa nisbatan kattaroq bo'lib, uning bo'yining atigi  $1/7$  qismini tashkil qiladi. Torsoning uzunligi oyoqlarning uzunligiga qaraganda kamroq individual o'zgarishlarga duchor bo'ladi, shuning




uchun baland bo'yli odamlar odatda nisbatan uzunroq oyoqlarga ega, past bo'yli odamlar esa qisqaroq. Erkaklar bilan solishtirganda, ayollar qisqaroq, nisbatan uzunroq tanasi va qisqa oyoqlari, keng tos suyagi va tor yelkalari, kichikroq boshi, qo'llari va oyoqlari bor.

Insonning butun hayoti davomida uning tanasining nisbati juda o'zgaradi. Buning sababi shundaki, o'sish jarayonida uning tanasining alohida qismlari turli yo'llar bilan o'sib boradi, masalan, boshning balandligi 2 marta, tanasi 3 marta, qo'llar 5 ga, bo'yin 6 marta tenglikda bo'ladi. Yangi tug'ilgan bolada bosh balandligining  $\frac{1}{4}$  qismini, olti yoshli bolada -  $\frac{1}{6}$  qismini, kattalarda -  $\frac{1}{7}$  yoki



1/8 qismini tashkil qiladi. Inson qiyofasini hayotdan va ayniqsa "tasavvurdan" tez va ishonchli tarzda chizish uchun, yuqorida aytib o'tilganidek, eng muhim anatomik tugunlarni o'rnatadigan mos yozuvlar nuqtalarini yoki mayoqlarni bilish va ulardan foydalanish kerak. shakl va tananing asosiy massalari harakatining yo'naltiruvchi chiziqlari. Shaklning kosmosdagi holati va uning proporsional tuzilishi mos yozuvlar nuqtalari bilan belgilanadi. Ular, go'yo, istiqbolli qisqarishlarni hisobga olgan




holda, chizma yaratish uchun boshlang'ich mayoq bo'lib xizmat qiladi va tananing har bir qismi harakatining tabiatini aniqlashga imkon beradilarini belgilaymiz. Oldinda simfiz pubis va yonbosh suyagining o'simtalari, koksiksini pastki umurtqasi va orqada joylashgan yonbosh suyagi bo'shliqlari to's suyagining holatini aniqlaydi. Birinchi va ettinchi servikal, o'n ikkinchi ko'krak va pastki sakral vertebralar, shuningdek, koksiks, orqa miya harakatining xarakterini qayd etadi. To'sh suyagining bo'yinbog'i bo'shlig'i va xiphoid o'simtasi, shuningdek, qovurg'a oxiri chiziqlarining proyeksiyalari qovurg'a qafasining moyilligi va aylanishini belgilaydi. Femurning kattaroq trokanteri, tizza bo'g'imi va oyoq Bilagi zo'r bo'g'im oyoqlarga kerakli harakatni berishga imkon beradi. Akromion nuqtalari elkalarining kengligi va aylanishini belgilaydi, elka, tirsak va bilak bo'g'inlari qo'llarning harakatini belgilaydi. Shaklning tafsilotlarini ishlab chiqish jarayonida, ko'rsatilgan asosiy qo'llab-quvvatlash nuqtalariga qo'shimcha ravishda, alohida suyaklar va mushaklarning (barmoq bo'g'imlari, to'piqlar, tizza kondillari va boshqalar) tayanch nuqtalarini belgilash kerak.

Ikkala oyog'ida vertikal tik turgan figuraning asosiy yo'naltiruvchi chiziqlari quyidagi pozitsiyalarga ega: tos suyagi chizig'i oldinga egilgan, qorin vertikal, ko'krak orqaga, bo'yin oldinga va bosh bir oz orqaga, o'q. oyoqning pastki qismi vertikal, sonlari esa yon tomonga egilgan. Bilak va elkaning asosiy chiziqlari bir-biri bilan kichik burchak hosil qiladi, tananing boshqa qismlari (qo'l, oyoq, bo'g'inlar va boshqalar) o'z yo'naltiruvchi chiziqlariga ega.

Insonning murakkab harakatlari paytida uning tanasining asosiy massalarining yo'nalishi sezilarli chegaralarda o'zgarib, ko'p sonli turli xil pozitsiyalarni yaratadi. Shaklning mos yozuvlari va yo'naltiruvchi chiziqlarini kuzatish va ularni qog'oz varag'ida belgilash, istiqbolli qisqartmalarni hisobga olgan holda, biz odam chizgan kuchli skeletni olamiz. Insonning rasmini qurishga ta'sir qiluvchi turli omillar orasida fiziologik optika, xususan, chiziqlar va hajmli shakllarni vizual idrok etish muhim o'rin tutadi. Insonning ko'rish qobiliyati optik illyuziyalarga moyil bo'ladi. Shaklning tasvirini o'rganish jarayonida vizual idrok etishning bu qobiliyatini hisobga olish kerak. Gap figuraning shakllantiruvchi elementlarining uzunligi, maydoni, moyillik burchagi va egriligini xayoliy baholash haqida bormoqda. Vizual optik apparatimizning nomukammalligi va modelni psixologik idrok etish ba'zan o'lchamlar va konfiguratsiyalarning noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.



Inson figurasini tarbiyaviy chizishda miyaning tuzatish roli juda muhim, chunki ko'zga ko'rinadigan o'lchamlarni mexanik ravishda o'tkazish, ayniqsa, inson figurasini nuqtai nazardan chizishda ma'lum xatolarga olib keladi. "Fotografik" tasvirlangan model, konusning proektsiyalash qoidalariga ko'ra,



rasmda nomutanosib va vizual jihatdan ishonchsiz ko'rinishi mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu holda inson qiyofasining haqiqiy tasviri go'yo parallel nurlar orqali tana qismlarining hajmli nisbatlarini saqlab, istiqbolli o'zgarishlarsiz proektsiyalash natijasi bo'ladi, ya'ni uzoq qismlar biroz kattalashadi, yaqinlari



178. Последовательности  
рисунки скульптуры  
"Аполлон"

qisqaradi. Murakkab istiqbolli qirqimlarda odamni tasvirlashda rassom figuraning asl old ko'rinishlarini (yon, old, orqa), shuningdek, tasvirlangan figuraning xarakterli bo'limlarini tasavvur qilishi, tasavvur qilishi kerak. Dizayn, harakat va nisbatlar haqidagi ko'rib chiqilgan dastlabki ma'lumotlar inson qiyofasini



177. Последовательность  
рисунков скульптуры  
«Мальчик с осликом»



chuqurroq tushunish va uni malakali tasvirlashni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Arxitektor ko'pincha inson kiyimi ishlab chiqarilgan materiallardan foydalanish bilan bog'liq me'moriy masalalarni hal qilishi kerak, shuning uchun u ularning dizayn xususiyatlarini bilishi kerak. Barcha turdagi matolarni o'rganish

shart emas, lekin burmalarning shakllanishi bilan bog'liq ba'zi xarakterli xususiyatlarni hisobga olish kerak. Turli matolarning "xulq-atvori" ning tabiati tabiatda kuzatilishi mumkin, ammo bizning nuqtai nazarimizdan, uni turli davrlardagi san'at asarlarida (haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika) ko'rib chiqish qiziqroq. Ayniqsa, matolarni tasvirlash usullarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega, bu ularning burmalarni shakllantirishdagi ishini aniq ko'rsatib beradi. Burmalar shaklining, odamning, havoning (shamol) dam olish yoki harakatini tavsiflashi mumkin. Matoning burmalari ma'lum bir harakat paytida shaklning tugunlarini ochishi kerak. Amaliyotchi me'mor o'z loyihalari uchun eskizlar yoki me'moriy va dekorativ elementlarni ishlab chiqishi kerak - hajmli (haykaltaroshlik, relyef) yoki planar (rasm, mozaika, sgraffito). Bunday hollarda u kiyimni stilize qilingan, umumlashtirilgan tarzda odamning figurasida tasvirlashi kerak. Me'mor tasvirlangan inson qiyofasining nisbatlarini, hajmini, harakatini, imo-ishorasini ta'kidlaydigan va shu bilan badiiy tasvirning ekspressivligini sezilarli darajada oshiradigan oz sonli lakonik burmalarni tanlashi kerak. Apollon haykallarida burmalar naqshlari figuraning umumiy harakatiga bo'ysunadi, tananing plastikligining u yoki bu xarakterini ta'kidlaydi, uni engillashtiradi, erkin tushadi yoki shamol bilan rivojlanadi. Burmalar tasvirining texnik tomoni inson qiyofasi, uning asosiy nuqtalari va harakatning yo'naltiruvchi chiziqlari chizmasini qurish usuliga to'liq bo'ysinishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, turli davrlardagi tasviriy san'at ustalari ko'pincha odam skeletini chizib, mushaklar bilan kiyingan, keyin esa turli xil kiyimlarni bo'yashgan.


Yuqorida aytilganlarning barchasi kostyumlar, shlyapalar va poyabzallar kabi kiyim turlarini chizish uchun qo'llanilishi mumkin. Ularning tashqi ko'rinishi matoning modasi, maqsadi va sifatiga bog'liq. Shunday qilib, nozik, yumshoq, engil matolardan tikilgan kiyimlar tananing plastikligini aniq ochib berishi va ta'kidlashi mumkin. Dizaynda siz nafaqat matoning shaklga mahkam o'rnatilgan joylarini, balki burmalar erkin osilgan yoki tebranadigan joylarni ham ta'kidlashingiz kerak. Zich qalin matolardan tikilgan kiyimlar odatda shaklni yashiradi, lekin uni umumlashtirib, asarni monumentallashtirishga hissa qo'shadi.

## **6-Mavzu: Libossiz erkak qomati murakkab holati. Inson qomati harakat holatlarini kuzatish va tasvirlash.**

### ***Reja:***


- 1. Inson qomatini tasvirlashda plastik anatomiya.***
- 2. Tana a'zolarining nisbatlari.***
- 3. "Poliklet" jins va yoshga ko`ra inson tanasini tasvirlash.***

Tabiatdagi turli-tuman shakllar ichida inson tanasi o'ta murakkabi va mukammali bo'lib hisoblanadi. Inson tanasini o'rganish rassomda professional bilimni, tasviriy san'atning har qanday janrida ishlay olish qobiliyatini shakllantiradi. Tasviriy san'at sohasida yuqori malakaga ega bo'lish uchun (inson tanasi rasmi ustida ishlash kabi) odamning plastic anatomiyasini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, tasviriy san'at inson tanasi bilan uzviy bog'liq va uni insonsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilar inson tanasi nisbatlari va plastik tuzilishini nazariy va bir qator amaliy topshiriqlar bajarish orqali o'rganishlari va o'z bilim doiralarini kengaytirishlari kerak. Tasviriy san'at sahasida ta'lim oluvchi o'quvchilar anatomiyani to'liq o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ymay, tananing umumiy tuzilishiga e'tiborni qaratishlari kerak. Bunda har bir shakl o'rtasidagi plastik bog'liqlik hisobga olinishi lozim. Plastik ijod namunalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, skelet inson tanasining asosi bo'lib hisoblanadi. Inson tanasini turli holatdagi harakatini tasvirlashda skeletning tayanch-mexanik funksiyasidan foydalaniladi. Inson skeleti asosiy qism (umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasi), bosh skeleti (suyagi), hamda qo'l-oyoq skeletlaridan tashkil topgan. Umurtqa pog'onasi inson tanasining ustuni bo'lib



hisoblanadi va u bosh, tana va qo'llarni ko'tarib turadi. Umurtqaning pastki qismi tana asosining harakatlanmaydigan qismi bo'lgan tos suyagi hamda birlashtiruvchi tos suyaklari o'rtasiga birikkan. Umurtqa ustuni yigirma to'rtta umurtqalardan iborat: ettita bo'yin, o'n ikkita ko'krak va beshta bel umurtqalari. Mazkur qismlanishga asosan umurtqa egiladi va tana shaklini belgilab beradi.

Bosh va tana harakati umurtqa harakati bilan uzviy bog'liq. Ikkita yuqori bo'yin umurtqalari harakatga kelganida bosh buriladi. Belning o'ngga, chapga, orqaga va



oldinga egilishi ham barcha bel umurtqalari va ikkita ko'krak umurtqalarining harakatiga bogliq. Umurtqa pog'onasining barcha bel hamda ikkita ko'krak umurtqalari joylashgan qismi eng ko'p harakatlanadigan qism bo'lib hisoblanadi. Umurtqa pog'onasining harakati umurtqalarning harakatlanmaydigan tos suyagi



bilan birlashgan joyda kamayadi. Tananing tos suyagi qismi odam o'tirganda bukilgandek tuyiladi; bunda umurtqa chizig'i o'zgaradi. Tana asosining yuqori qismi oldinga yoki ortga bukilganda harakatsiz holatda bo'ladi - balandda joylashgan umurtqalar harakatlanadi. Bunday harakatlarda bosh yoyni hosil qiladi. Tana asosining o'ngga yoki chapga burilishi umurtqa pog'onasining yuqorida joylashgan qismi o'z o'qi atrofida aylanma harakatlanishi tufayli sodir boiadi. Tananing o'ngga va chapga egilishida umurtqa harakatlanadi. Orqa tarafdin umurtqa pog'onasining o'simta qismiga qovurg'alar birlashgan va ular oldinga egilib to'sh suyagiga birikkan. Ko'krak qafasining umumiy ko'rinishi silindrsimon idishni eslatadi. Qovurg'alarning yuqorisida to'sh suyagiga o'mrov suyagi birlashadi. Qovurg'alar orqasida kurak suyagi yotadi. Kurak va o'mrov suyaklari elka bo'g'imi o'rnida birlashadi. Qo'l kurak suyagi bilan elka bo'g'imida birlashadi va u uchta asosiy qismdan iborat: elka suyagi tirsak bilak va panjalar, kaft usti suyaklari kaft suyaklari va qo'l panjalari (barmaq) falangalaridan iborat. Suyaklarning mazkur qismlarga bo'linishi, qoMning harakati turli qismlarda yuzaga kelishini ta'minlaydi: yelkada, bilakda, kaftda va barmoqlarda.


Oyoq-qo'l harakati suyak bo'g'imlari harakatiga bog'liq. Suyaklarning xarakatlanuvchi, birlashgan qismlari **bo'g'im** deb ataladi. Bo'g'im suyaklarni birlashtirib turuvchi muskuldir. Suyaklar bir-birlari bilan mustahkam qotirilmaganligi tufayli, ular bir-biridan uzoqlashishi, egilishi, tomonlarga burilishi va aylanishi mumkin. Bunday harakatga bo'g'imlar imkoniyat yaratib beradi: bir suyak botiq boisa, ikkinchisi bo'rtma bo'ladi va ular birlashadi. Yelka bo'g'imi *quyidagicha* tuzilgan: yelka suyagining bo'rtib chiqqan uchi kurak suyagining botiq yuzasi bilan birlashadi va ular erkin harakatlana oladi. Kurak, yelka va o'mrov suyaklari muskullar bilan o'ralgan. o'mrov suyagining ahamiyatli jihati shundaki, u qo'lning xarakatiga ko'maklashadi. qo'l xarakatlanganda yelka suyagining uchi yoysimon holatda bo'ladi. Yelka suyagining pastki qismi yo'g'onlashgan, bilak suyagi bilan birlashishi uchun g'altaksimon maydoncha va sharsimon bo'rtiq bilan ta'minlangan. Tirsakning chuqurchasi va bilak suyagining g'altagi va boshchali bo'rtmasi bo'g'im yuzasi ustida harakatlanadi va ular tirsak bo'g'imida birlashadi.



Tirsak suyagining pastki uchi ham yo‘g‘onlashgan va u kaft usti suyagi bilan birlashadi. Ingichka uchli bilak suyagi esa, aksincha, kaft usti suyagi bilan birlashmaydi. Ikkala suyak ham bigizsimon o‘simtalar bilan tugallanadi va ularga paylar birikadi. Bilak va tirsak suyaklarining birlashgan qismi bilak-tirsak bo‘g‘imini hosil qiladi. Qo‘l bukilganida, unga yon tarafdin qaralsa, kaft ustidagi bo‘g‘imlar sezilib turadi. Bunda qo‘lning profil chizig‘ida birikmalarni aks ettiruvchi do‘mboqchalar ko‘tarilib turadi. Bilak, kaft usti suyagi, kaft suyagi asoslarining pastki uchidagi bo‘rtmalar va kaft suyaklarining boshchalari ushbu



do'mboqchalarni tashkil qiladi. Bilak harakatini, qo'lning egilishi va bukilishini, ular elka suyagining yumaloq qismi tagidan (suyak uchidagi yo'g'on qismdan) xayolan o'tkazilgan ko'ndalan o'q bo'ylab aylantirilganida ko'rish mumkin. Qo'l vertikal o'q bo'ylab ichkari va tashqari tomonga aylantiriladi. Bunda faqat bilak va kaft suyaklari birgalikda aylanadi. Pastki qismlar tos suyagi bilan birlashadi. Balog'atga etgan odamning tos suyagi **quyidagi to'rtta** qismdan iborat bo'ladi: ikkita nomi yo'q suyak, dumg'aza va dum



suyak. Nomi yo'q suyakning turli qismlari quymich, yopqich va qov suyaklari deb ham nomlanadi. Yosh bolalarda ular alohida boiadi. Oyoq (odam tanasining pastki



qismi) son suyagi, katta va kichik boldir suyaklaridan va oyoq-kaft usti, kaft suyaklari hamda barmoq falangalaridan tashkil topgan. Yuqorida sanab o'tilgan suyaklar bir-birlari bilan bo'g'imlarda birlashadi. Son suyagining sharsimon boshchasi tos suyagining yarim yumaloq chuquriga kiradi. Tizzaga yaqin yerda son suyagi biroz egiladi va tizza bilan uning orasida yassi burchak hosil bo'ladi. Son suyagining pastki yo'g'onlashgan qismida dumaloq shakldagi ikkita bo'rtma bo'ladi. Bo'rtmalar va chuqurchalar bo'g'im yuzasini tashkil etadi va uning ustiga tizza qopqog'i




o'mashadi. Tizza qopqog'i dumaloqsimon, baland burchagi pastga qaragan uchburchakli suyakdir. qopqog tepa tarafdin son suyagiga, pastki tarafdin esa katta boldir suyagiga birlashadi. Katta boldir suyagi va son suyaklarining bo'g'im yuzalari tizza qopqog'i bilan birgalikda tizza bo'g'imini hosil qiladi, hamda ular muskul paylari bilan birlashadi. Katta va kichik boldir suyaklari to'piqda mahkam birlashadi. Ushbu suyaklarning do'mboqlari sanchiqqa o'xshab birbirlariga kiyiladi. Ular to'piqdagi tovon usti suyagining yon tomoni bilan birlashadi. To'piq butun tananing tayanch markazi bo'lgan yoyni hosil qiladi. To'piq tuzilishi odam yugurganidagi yoki sakraganidagi tana silkinishlarini yumshatadi. To'piq yoyi old tarafdin oyoq kafti suyaklariga, orqa tarafdin esa tovon do'mbog'iga tiraladi. Elka, tirsak, kaft usti suyagi, tizza va tovonlarning birlashishi inson tanasining tasvirini ishlash jarayonida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan obyektlar bo'lib hisoblanadi. Ularni ifodalashni bilish yosh rassomda inson tana tuzilishini, uning harakatini to'g'ri tasvirlash qobiliyatini shakllantiradi. Tanadagi asosiy nuqtalar shaklni ishlash, uning nisbatlarini aniqlash va inson tanasi harakatini tasvirlash jarayonida rassom uchun orientir vazifasini o'taydi. Umurtqa ustuni uchta asosiy o'zgarish nuqtalarga ega. Ular tana asosining (tosning) bukilish darajasini

aniqlashda ko'maklashadi. Tana asosi skeletining old tarafida quyidagi orientir nuqtalar mavjud o'mrov suyaklarining birlashgan joyida ko'krak suyagi oxirida tos suyagida yonbosh suyaklarning yuqori qismida juft nuqtalar; pastki qovurg'alarning egilish joyida o'mrov suyaklarining tashqi uchlarida nuqtalar (ushbu nuqtalar yelka kengligini belgilab beradi). Tana asosi skeletining orqa tarafida **quyidagi** asosiy nuqtalar joylashgan ettinchi bo'yin umurtqasida dumg'azada o'mrov-akrominal o'simalanda kurak suyagi burchaklarida. Qo'ldagi mo'ljal nuqtalar elka suyagi boshchasida elka suyagining bo'rtmasida bilak va tirsak suyaklari uchida joylashgan. qo'l kaftidagi asosiy nuqtalar bo'g'imlarning bo'rtib chiqqan suyaklarida, shuningdek, barmoq uchlarida joylashgan. Oyoqdagi mo'ljal nuqtalar **quyidagicha** joylashadi. Tos suyagidagi yonbosh suyaklarda son suyagining katta bo'rtmalarida tizza qopqog'ida medial do'ngligida tovon do'mbog'i ustida falangalar birlashgan joyda barmoq uchlarida. Ushbu nuqtalarning joylashgan o'rni oyoqning tinch yoki harakatdagi holatini ifodalashda mo'ljal vazifasini o'taydi. Yuqorida ko'rsatilgan nuqtalardan tashqari tanada joylashgan boshqa nuqtalar tanadagi teri joylashuvi va izlarini tasvirlashda foydalaniladi: masalan, kindik, qorindagi chiziqlar va muskullar. Asosiy nuqtalar qomatning alohida qismlari o'lchamlari va nisbatlarini aniqlashda mo'ljal vazifasini o'taydi. Plastik anatomiyada tana nisbatlarini o'rganishining ikki yo'nalishi ko'rsatilgan: inson tanasi tuzilishini estetik idrok etish va uni anatomiya nuqtai nazaridan baholash, shuningdek, amaliyotda qo'llash qulay bo'lishi uchun barcha o'lcham va munosabatlarni bir tizimga tushirish. Nisbat - bu qismlarning o'zaro va butun tasvir bo'yicha o'lchamlari tizimidir va u tasvirga estetik ifoda va mukammallik uyg'unligini baxsh etadi. Nisbatni his eta



olish - bu rasm chizish jarayonidagi eng zarur bolgan xususiyatlardan biri. Chizilayotgan jismning nisbatlari qanchalik to'g'ri aniqlansa, rasm shunchalik asl ko'rinishiga yaqin bo'ladi. Odam tanasi nisbatlarini o'rganish bo'yicha maxsus qonun-qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida tananing har bir alohida qismini bir tizim holatiga keltirish mumkin. Ushbu qonunlarni tuzish uchun inson tanasi haqidagi ma'lumot doimo muhim boigan. Qonun rassomlar uchun naturaga qaramasdan model tasvirini chizishda qo'l keluvchi vosita bo'lishi bilan bir qatorda, tana jismlari birbiri bilan uyg'unlashuvchi insonning ideal obrazini yaratish yo'lidagi harakat bo'ldi deyish mumkin. Turli tarixiy davrlarda go'zallik va mukammallik haqidagi tasavur o'sha davr rassomlarining mafkuraviy qarashlari asosida namoyon bo'lgan. Ular o'z asarlarida o'sha davr, xalq va sinflar dunyoqarashini aks ettirganlar. Qadimgi davrlardan inson tanasining oichov birligi - moduli bo'lib tananing biror bir qismi (bosh, kaft, barmoq, to'piq, burun) tanlab olingan va unga boshqa barcha qismlar solishtirilgan. Qadimgi davrlardan Misrda ham rassomlar inson tanasini tasvirlashga katta e'tibor berganlar. Natijada Misr rassomlari inson tanasining har bir qismini o'lchab, o'rganib, uning asosida qonun ishlab chiqdilar. Bunda ular inson tanasi qismlarini o'lchashda matematik hisob-kitoblardan foydalandilar. Qonunning yaratilishida Misr rassom-nazariyotchilari qomatning qismlarga nisbiy bo'linishi tizimini ishlab chiqdilar. Unga ko'ra qismlar yordamida butun tanani va bir qism o'lchami bilan ikkinchi qism o'lchamini aniqlash imkoni paydo bo'ldi. Misrshunos olim Lepsiusning tadqiqotlari natijasida ushbu raqam siri ochildi. Misr qonuniga ko'ra o'lchov birligi sifatida qo'lning o'rta barmog'i uzunligi qo'llanilgan. Qomat 19 qismga bo'lingan. Misr qonuniga asosan inson tanasi quyidagi o'lchamlarga ega bo'lgan: tovon balandligi bitta o'rta barmoq






balandligiga, tizza qopqog'ining yuqori qismidan qovuqqacha bo'lgan oraliq esa to'rtta barmoq uzunligiga teng deb hisoblangan. Inson qovuq qismi butun tanani teng ikki qismga bo'ladi. Tana markazi (pastdan yuqoriga tomon olchanganida) o'n bitta barmoq uzunligiga to'g'ri keladi. Ko'krak so'rg'ichlari o'n to'rtinchi va o'n beshinchi barmoqlar o'rtasida joylashgan. Bosh uzunligi ikkita o'rtacha barmoq uzunligiga teng. o'n yettinchi barmoqda burun uchi, o'n sakkizinchi

barmoqda esa peshona do'ngligi joylashgan. Ammo qadim Misrda inson tanasining nisbiy munosabatlarini ishlab chiqishda yosh bolalar va o'smirlarni hisobga olishmagan. Rassom ayol, erkak va bolalarning rasmini bir qonun asosida, faqatgina o'lchamini o'zgartirib ishlagan. O'lchamlarning katta kichikligida insonning ijtimoiy nufuzini ham ko'rsatishda foydalanilgan. Shu sababli ham fir'avn yoki mashhur insonning rasmi qullar rasmiga qaraganda bir necha bor katta qilib ishlangan. Qadimgi Misr san'ati umuman ko'rinishda sinfiy tabaqalarni ifodalashga qaratilgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr rassomlari bir tasvir doirasida jismga turli nuqtai nazar bilan yondoshganlar: masalan, tananing ba'zi qismlari old tomondan (bosh, oyoq), shu paytning o'zida boshqa qismlar (ko'zlar, elka) yon tarafdan tasvirlangan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr asarlarining o'ziga xos jihatlari ham bo'lgan. Qadimgi Misr asarlari ko'p asrlar davomida bir rangda, boshqa tus va ranglardan foydalanmasdan siluet da ishlangan.

Yevropa qonunlari qadimgi yunon-rum an'alariga asoslangan bo'lib, ular Uyg'onish davri rassom-nazariyotchilarining asarlarida bizning davrimizgacha etib





kelgan. Mazkur asarlar birlik g'oyasi bilan sug'orilgan va ulardagi inson tasviri ideal normalarda ishlangan.

Yunonlar qadimgi misr rassomchilik maktabining rasm ishlash usullarini egallab, inson tanasi tuzilishi muammosiga yangicha yondoshganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, hayotdagi eng ajoyib mavjudot - bu inson: chiroyli qomatli ayol, rivojlangan muskulli erkak.


Tabiatni, insonning yalang'och tanasi go'zalligini o'rganib, ulardan shunchalik ko'p go'zallik va nafosat topganlarki,

natijada ular ma'budlar timsolini ham inson tasvirida ishlay boshlaganlar. Qadimgi davrlardan yunon inson tasvirini tasviriy san'atning bosh bo'g'imi sifatida ta'riflab, inson tanasining barcha qismlarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqqanlar. Ular inson tanasi tasvirini ishlashda an'anaviy qonundan foydalanib, san'atda yangi muammoni ilgari surganlar va uning yechimini o'z asarlarida ko'rsata olganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, jahonda qonun-qoida hukmronlik qiladi va go'zallik mohiyati ma'lum tartib asosida (simmetriya, qismlarning o'zaro va butun jism bilan uyg'unlashuvi, hamda matematik munosabatlar natijasida) vujudga keladi. Miloddan avvalgi 432-yilda **Poliklet** inson tanasi qismlarining nisbiy qoidalari to'g'risida ma'lumot yozib qoldirgan. U inson tanasi yangi nisbiy bo'linishini o'rnatdi va tasviriy san'at tarixida birinchi marotaba tananing yashirin dinamikasini bir oyoqqa tiralib turgan inson tasviri misolida ko'rsatib berdi.

Ushbu muammoning yechilishi bilan inson tasviri real ko'rinishga ega bo'ldi va ishlangan rasmlarda tiriklik va tabiiylik mujassamlashdi. Poliklet **o'z nazariy** qarashlarini **tasvirlab** berish uchun Dorifor haykalini ishladi va ushbu asar rassomlarga namuna sifatida xizmat qildi. Keyingi davr rassomlari uchun ushbu asar o'ziga xos darslik vazifasini o'tagan. Ammo Poliklet qonuni haqida bizgacha

etib kelgan ma'lumotlar bir-biriga qarama-qarshi. Ushbu ma'lumotlarning ba'zilarida Poliklet o'lchov birligi sifatida kaftdan foydalangan deyilgan bo'lsa, boshqalarida oyoqning tag qismi, yana ba'zilarida esa bosh balandligidan foydalangan deb e'tirof etilgan. Yunon rassomlari tasvirni tabiiyligiga katta e'tibor qaratishgan. Ular borliqni asl ko'rinishda tasvirlashga intilganlar. Natura bilimlar manbai bo'lib xizmat qilgan va o'z navbatida rassomchilik bo'yicha ta'lim berish ham natura asosida paydo boigan. Asosiy qoidaga ko'ra: inson - barcha jismlar o'lchovi. Ushbu falsafiy g'oya qadimgi yunon san'ati asosida shakllangan. Buyuk me'morlar inson tanasining nisbiy qonun-qoidalaridan kelib chiqib ta na asosi va kapitelnig nisbatlarini aniqlaganalar.

O'rta asr rassomlari cherkov qonun-qoidalariga rioya qilib, real tasvir ishlashdan chekindilar va mistika (afsona) san'ati bilan shug'ullana boshladilar. Yalang'och inson tanasining betakror go'zalligi o'rniga rassomlarni chalg'ituvchi, ulami inson anatomiyasidan yiroqlashtiruvchi burchaksimon shakllar ishlana boshlandi. Jismlaming turli shakllari tasvirining tuzilish qoidalarini nazariy jihatdan asoslashga urinish o'rta asr frantsuz arxitektori **Villar de Onnekur** tomonidan amalga oshirildi. Ammo biz bu yerda shuni ko'rishimiz mumkinki, rassom o'z talqinida rassomchilik qoidalaridan rasimga emas, balki rasmdan geometrik shakllarga o'tish g'oyasini ilgari suradi. Villar de Onnekur turli shakllami, jumladan inson tanasi va yuzini geometrik shakllar asosida chizishga uringan. Olimlarning fikricha, bunday g'oya asosida ishlaydigan rassomlar geometrik qonun-qoidalarni raqamlarga bo'ysunishiga hamda uchburchak va aylananing



mo'jizaviy kuchiga ishonganlar. Uyg'onish davri nafaqat tasviriy san'at rivoji tarixi uchun, balki umuman rasm chizish usullarini o'rganish sohasi uchun ham yangi davr bo'ldi. Bu davrda realistik rasmlar ishlashga, borliqni haqiqiy ko'rinishini tasvirlashga ishtiyoq tug'ildi. Uyg'onish davri ijodkorlari tabiat qonunlarini ochib berishga intildilar, hamda san'at va fanni bir-biri bilan bog'lash vazifasini o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Ularni qadimgi Gretsiya san'ati ruhlantirdi. Tasviriy san'at muammolari ustida mashhur rassomlardan **Aberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer** va boshqalar ishladilar. Barcha san'atlarning durdonasi bo'lmish rassomchilikka bo'lgan hurmat-e'tibor yana tiklandi. **Mikelanjelo** shunday deb yozgan edi: *«qalamtasvir, yoki chizgilar san'ati ham rassomchilik, ham haykaltaroshlik, ham me'morchilikning yuqori nuqtasi bo'lib hisoblanadi; qalamtasvir - barcha ilmlarning ildizi va manbayidir»*. Arxitektor **Vitruviy** nisbatlarni o'rganish vaqtida inson tanasi qismlarining quyidagi munosabatini hisobga olgan: bosh tana balandligining  $1/8$  qismi, yuz  $1/10$ ; yuz balandligi kaft uzunligiga teng, kaft - qomat balandligining  $1/10$  qismiga teng. Bo'yin va bosh balandligi ko'krakdan boshlanganida qomat balandligining  $1/6$  qismiga teng. Boshning eng yuqori nuqtasidan ko'krak so'rg'ichlari joylashgan chiziqqacha bo'lgan oraliqqomatning  $1/4$  qismiga teng. Kindikning balandligi butun tana balandligining  $4/6$  qismiga teng. Boldimning tizza qopqog'ining pastki qismigacha bo'lgan uzunligi model balandligining  $1/4$  qismiga teng. Tovon uzunligi model balandligining  $1/6$  qismiga teng. Vitruviyning nisbatlar tizimi Uyg'onish davrida **Chennino Chennini** va Leonardo da Vinchi tomonidan yangilangan,

hamda u to'g'ridan-to'g'ri «Qadimgilar kvadrati» nomli qonun bilan boliq. Ushbu qonunning Vitruviy ilgari surgan grafik ifodasi hozirgi kunga qadar mashhur bo'ib kelgan ko'pchilik Evropa qonunlarining asosi bo'lib hisoblanadi. Leonardo da Vinchi asosiy e'tiborni inson tanasi rasmini chizishga qaratdi. Bunda u qomatni to'g'ri shakllantirish, uning muvozanat o'qini aniqlash va harakat xususiyatini to'g'ri ko'rsatib berish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu shart bajarilganidan so'ng, tana nisbatlarini aniqlashga kirishishi kerak. Leonardo da Vinchi inson tanasi tasvirini chizish qoidalarini ishlab chiqish chog'ida, Vitruviyning nisbatlar tizimini - «Qadimgilar kvadrati» tizimini shakllantirdi (unga ko'ra inson tanasi uzunligi yoyilgan ikki qo'l uzunligiga teng).



U inson tanasi qismlarining nisbiy munosabatini o'zida aks ettiruvchi rasm-sxemani ishlab chiqdi. Unda quyidagi munosabatlar ko'rsatilgan: tizza qopqoglining pastki qismigacha bo'lgan oraliq tana balandligining  $\frac{1}{4}$  qismiga teng, jinsiy a'zodan peshonagacha bo'lgan qism tana balandligining  $\frac{1}{2}$  qismiga teng, jinsiy a'zodan ko'krak so'rg'ichlarigacha bo'lgan oraliqtana balandligining  $\frac{3}{4}$  qismiga teng; to'sh suyagi dastasidan jinsiy a'zogacha bo'lgan oraliq tana balandligining  $\frac{5}{6}$  qismini tashkil etadi; jinsiy a'zodan burungacha bo'lgan masofa tana




balandligining  $\frac{11}{12}$  qismiga teng; markaziy chiziqdan qo'lning boshlanish qismigacha bo'lgan oraliq qomat balandligining  $\frac{1}{8}$  qismiga teng; markaziy chiziqdan tirsakkacha bo'lgan masofa qomat balandligining  $\frac{1}{4}$  qismiga teng; markaziy chiziqdan kaftgacha bo'lgan oraliq qomat balandligining  $\frac{4}{10}$  qismiga teng.

Leonardo da Vinchi qonuniyati asosida chizilgan inson tanasi tasviri uzun oyoqiar, kindikning past joylashuvi hamda uzunchoq yuz bilan ajralib turadi.

Shuningdek nemis rassomlari **Albrext Dyurer** va Shonning nazariy qarashlari juda ahamiyatli bo'lib hisoblanadi: ularning asarlari tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini rivojlanishiga turtki bo'ldi.


Dyurer asarlari insonparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan. Dyureming eng ahamiyatga molik asarlardan bid - «*Inson tuzilishi nisbatlarini o'rganish*» nomli asar bo'lib, u rassomning deyarli butun ijodiy hayotining asosi desak xato bo'lmaydi. Dyurer ushbu masala bo'yicha barcha mashhur g'oyalarni keltirib o'tgan va ko'plab rasm va chizgilar orqali ularga ilmiy izoh ham bergan. Rassom o'z ijodiy faoliyati davomida inson tanasining tuzilishini matematik hisob-kitoblar,

hamda geometrik shakllar orqali tasvirlash yo'llarini izlab topishga intilgan. Dyurer inson tanasini quyidagi nisbiy qismlarga ajratish g'oyasini olg'a surgan edi: agar inson tanasi uzunligini I deb olsak, bosh uzunligi -  $\frac{1}{8}$ , tana asosi -  $\frac{1}{2}$ , qo'llar (tirsakkacha bo'lgan qismi) -  $\frac{1}{4}$ , ko'krak kengligi -  $\frac{1}{6}$ , yelka kengligi -  $\frac{1}{4}$ , kaft kengligi -  $\frac{1}{10}$ , tovonlar -  $\frac{1}{6}$ , tos suyagining bir oz pastki qismi butun tana uzunligining  $\frac{1}{2}$  qismiga teng. U ayol rasmini ishlashga alohida ahamiyat beradi. Bu yerda Dyurer nafaqat tana qismlarining nisbiy bo'linishi qoidalarini




hisobga olgan, balki ajratish chiziqlaridan tasvirni ishlashda yordamchi vosita sifatida foydalangan. Uyg'onish darvriining ko'pchilik rassomlari - Rafael, Jovanni Paolo Lomatstso, Mikelanjelo va ularning izdoshi Jan Kuzen va boshqalar tananing qismlarga ajralishi qoidalari ustida ish olib borganlar. Lomatstso qonuniga asosan tana balandligining o'nta qismga bo'linishining o'ziga xos afzalliklari shundan iboratki, bunda tasvir anatomik nuqtalar bilan ko'p hollarda mos keladi. Ushbu qonun uchta tenglikni olg'a suradi: burun asosi - kindik; kindik - tizza bo'g'imi hamda tizza bo'g'imi va yer yuzasi, qo'llar yoyilganda tana uzunligiga teng bo'ladi. Yelkadan o'rta barmoqqacha bo'lgan qo'l uzunligi yuz uzunligining to'rt barobariga teng. Qonunning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda bo'yinning

uzayishi hisobiga tana asosining qisqarishi ko'rsatilgan. Mikelanjelo o'zining mashhur rasmlaridan birida bosh balandligini tananing 1/8 qismiga teng, tizza qopqog'ining chekkasini esa tos suyagi va oyoq uchining o'rtasi deb **ta'riflangan. Jan Kuzen** bosh balandligining 1/4 qismini o'lchov biriligi (modul) sifatida qo'llaydi. Unga ko'ra butun tana uzunligi 32 modulga teng. Rus rassom-pedagoglaridan **A.P.Losenko** va **V.K.Shebuevlar** nisbatlar



ta'limotini ishlab chiqdilar. A.P.Losenko inson tana uzunligini sakkizta bosh va o'nta yuz balandligiga teng deb ko'rsatadi. Losenko tananing kichik qismlarini o'lchab chiqishga intildi va bu albatta o'ta aniqlikni talab etardi. XIX asrda olimlar va rassomlar antropologiya va statistika ilmlarining rivojlanishi natijasida inson tanasi va uning qismlari o'lchamlarini to'g'ri aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada anatomiya va antropologiya sohasi vakillari anatomic jihatdan

asoslangan yangi qonunlarni ishlab chiqdilar va ularda tananing turli qismlari modul sifatida qo'llanildi: masalan, **Fritch** qonunida modul - umurtqa pog'onasi. Inson tanasi nisbatlari to'g'risidagi to'liqroq ma'lumot haykaltarosh **Gottfrid Shadovning** (1764-1850) «**Poliklet yohud jins va yoshga ko'ra inson tanasi nisbatlari**» nomli asarida o'z ifodasini topgan. Erkak kishi rasmida quyidagi muvozanat nuqtalari orasidagi tenglikka amal qilingan: bosh cho'qqisi - engak - so'rg'ichlar chizig'i, so'rg'ichlar chizig'i -



kindik, kindik - jinsiy a'zoning pastki qismidan o'tuvchi chiziq, jinsiy a'zo - boldirning yarmi, boldirning yarmi - tizza bo'g'imi. Ayol kishi tana balandligi bosh balandligining  $7 \frac{1}{2}$  qismiga teng. Bosh balandligiga teng bo'lgan masofa tananing yuqori qismidagi quyidagi tayanch nuqtalarni to'g'ri aniqlashga yordam beradi: bosh cho'qqisi - engak, engak - so'rg'ichlar chizig'i, so'rg'ichlar chizig'i - kindik, kindik - sonlaming o'rta birlashgan qismi. Tana balandligining yarmi taxminan tos suyagining yuqori qismi hisoblanadi. G.Shadovning inson tanasi nisbatlarini o'rganishga qo'shgan yana bir hissasi shundan iboratki, u insonning yoshidan kelib chiqib nisbatlarning o'zgarishini kuzatgan. Morfologik tadqiqotlar asosida metrik ma'lumotlar o'rnatilgan va ularning natijalari alohida tasviriy did bilan ishlangan rasmlarda kuzatilishi mumkin. Bolalarning tana nisbatlari yoshga ko'ra o'zgarib boradi. Yangi tug'ilgan chaqaloqboshining balandligi tana balandligining  $\frac{1}{4}$  qismiga teng, qo'llarning uzunligi tananing  $\frac{2}{5}$  qismini, oyoqlari esa  $\frac{1}{3}$  qismini tashkil etadi. G o'daklarda kindik-tananing o'rtasi (balog'atga yetgan insonlarda tananing o'rtasi tos suyagining yuqori qismiga to'g'ri keladi). Yangi tug'ilgan chaqaloqning bosh kengligi tos qismi kegligiga teng bo'ladi. Yosh ulg'ayishi bilan tana nisbatlari ham o'zgarib boradi. Bunda bir tomondan butun tana va uning a'zolari kattalashadi, ikkinchi tomondan esa tananing alohida qismlari o'rtasidagi munosabat ham o'zgaradi. Bosh balandligi faqat ikki barobar kattalashadi, tana asosi (tors) - uch barobar, qo'llar - to'rt barobar, oyoqlar - deyarli besh barobar, bo'yin - etti barobar, ko'krak qafasi aylanasi - uch barobar kattalashadi. Tananing pastki qismining o'sish darajasi tepa qismga nisbatan ancha yuqori bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ayol va erkak kishilar tana nisbatlarida ham farqlar mavjud. Ayol kishi qomati erkaklarnikidan past bo'y, oyoq va qollarning nisbatan qisqaligi, kichikroq yelka va keng tos qismi, kaft va tovonning kichikligi, boshga nisbatan yuzning kichikligi, jag' va bosh chanog'ining kamroq rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Odatda erkaklarning yelkasi tosdan ancha keng. Ayol tanasi ingichka va nisbatan uzun bo'yin va biroz tushgan yelkalari bilan xarakterlanadi. Ayollar ko'krak qafasining yuqori qismidan ko'krak so'rg'ichlarigacha bo'lgan oraliq erkaklamikiga nisbatan qisqa. Ayollarning oyoqlari qisqaroq bo'lganligi sababli



ularning kindigi tananing o'rtasi bo'lib, u erkaklamikiga nisbatan balandroqda joylashgan. Tizza chiziqlari ayollarda erkaklarnikidan pastroqda joylashadi.



## NAZORAT SAVOLLARI

1. *Tayanch nuqtasi va muvozanat to'g'risida so'zlab bering.*
2. *Odamning harakat holatini izohlang.*
3. *Inson skeleti to'g'risida madumot bering. Uning tasvirini uslubiy bosqichlarda chizish usullarini so'zlab, amaliy ko'rsating.*
4. *Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to'g'risida madumot bering.*
5. *«Shaklning konstruktiv asosi», deganda nimani tushunasiz?*
6. *Odamning plastik anatomiyasi, deganda nimani tushunasiz?*
7. *Psixologik portret nima? Mimika muskullari to'g'risida madumot bering.*
8. *Katta shakl nima?*
9. *Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yodi bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?*
- . *Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?*

### Foydalangan adaboyotlar:

1. B. Boymetov, Qalamtasvir. Darslik "Musiqqa" nashriyoti -2006.
2. Халилов Р, Рисунок, Издательство «Навруз» Т., -2013.
3. B.Tojiyev, Maxkamova "Qalamtasvir" TDPU-2015 yil
4. B.Tojiyev, X.Sultonov "Qalamtasvir" TDPU-2009
5. P.Thomas, A.Taylor, Drawing, London-2011.
6. B.Boymetov «Qalamtasvir» Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, "Iqtisod-Moliya"-2010.
7. B.Barber "Full course of the drawing", Barselona-2014.
8. N.Tolipov,Sh.Dilshodbekova. "Tasviriy san'atdan izohli lug'at" TDPU-2014.
9. X.Хариссон, "Энциклопедия. Техник рисунка" Москва-2005.
10. М.Кирцер, "Рисунок и живопись" Москва-2003.

11. Н.Ли , Основы учебного академического рисунка. Москва-2003

**7-Мавзу: Yarim qomatli portret qo'llari bilan (yosh ayolning, konstruktiv yechimda, shartli chizma suniy yorug'likda). Ayol qomati va qo'llari tuzilishining harakterini o'rganish.**

*Reja:*

- 1. Portret qo'llari bilan postanovkasi rangtasvirda bajarish*
- 2. Odam boshini yelkasi bilan ishlash*
- 3. Xomaki ranglavxa*

Yuqori kursda vazifani bajarishda tasvirlanuvchini o'xshashligi va ruhiy xarakteristikasini ko'rsatish talablari qo'yiladi. Bu vazifani amalga oshirishda naturachini tanlanganligiga bog'liq bo'ladi. Naturani tanlashda uning, o'ziga xosligi, xarakteristikasi, yuz detallarining aniqligi va qo'llarining plastikasi qiziqarli bo'lishi zarur. Postanovkani qo'yishda yorug'lik tushishini shunday qo'yish kerakki, uning o'ziga xos tomonlarini; qomat holati, qo'l va bosh shakllari aniq ajratilib ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Postanovkani qo'yishda naturachining tabiiy holatini aniqlab. uning o'zi odatdagi holatidan foydalanib ko'yishga harakat qilish kerak. Qiziqarli va yaxshi qo'yilgan postanovka talabalar tomonidan ixlos



bilan ishlanib, vazifani bajarishda yaxshi natijaga erishishini ta'minlaydi. Naturachining libosi bosh va qo'lni ishlashda chalgitmasligi, qomat shakllarini yaxshi ko'rinishini ta'minlashi kerak. Portretning fonida xalaqit beruvchi narsalar bo'lmasligi qomatning holat siluetini yaxshi ko'rinishini ta'minlashi va asosiy qomatdan chalgitmasligi zarur. Agar portretchi qomati och tUSDagi fonda bo'lsa, uning siluet xarakteriga katta e'tibor berish vazifaning muvoffaqiyatini



ta'minlashda muhim vositalardan biridir. Uning yuzini uzoqtsan ko'raolmasakda, siluet xarakteridan tanish bo'lgan kishini tanishimiz mumkin. Talaba vazifani bajarishga kirishishdan oldin naturadan qoralama ishlab o'rganishida qomatning umumiy xarakterini chizmatasvir kompozitsiyasini qurishida yordam beradi. Rangtasvir ish boshidan pastanofkani bosh, qo'l qurilishini va shakl berishga diqqat qaratilib, naturachining xarakterli detallariga aktsent beriladi. Katta rassomlar portret asarlarini sinchiklab o'rganish mumkin. Golbeyn portretlarida esa; birida katta ko'zlar, ikkinchisida keng va og'ir pastki jaglar, uchunchisida o'tkir uzun burunli insonlarni ko'ramiz. Rassom insonni tasvirlar ekai, umumiy shakllar orasida xarakterli, o'ziga kos detallarni topa olgan. - Portret ishlashda



muqim qismlarini ajratib har xil darajada tasvirlash muhim rol o'ynaydi. Masalan, Chistyakov portretida boshni ishlash haqida shunday deydi. - «Ko`z va ko`z qorachig'ini diqqat bilan aniq, tirikday jonli ishlang. Burun va lablarni ham puxta ishlang, qolganlarini biroz yumshoqroq ishlang». Buni «Qo'lli portret»ga tatbiq qilib, bosh qismiga va qo'lni aniq ishlash lozim, libosni esa erkinroq ishlash mumkin. Portretda qo'l barmoqlari muhim

ahamiyatga ega. Ular ham bosh kabi katta ahamiyatga ega bo'lib, betakror individual xarakterlidir. Qo'l orqali yoshini, kasbini va xarakterini ochib beriladi. Inson xarakterini jozibali ochib berishda qo'l harakati va holatiga bogliq. V.Serov, A.Abdullaev, R.Axmedov portretlari talabalar uchun o'z kurs vazifasini bajarishiga misol bo'laoladi. Har bir rassom ijodida xomaki nusxa muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun chizmatasvir bo'yicha dastur uzok mudtsatli postanovkalarining yetakchi ahamiyatini ta'kidlab, shu paytning o'zida xomaki nusxaga jiddiy e'tibor berishni xam talab qiladi. Rassom ijodida xomaki nusxaning qo'llanilishi turli xilda ko'rinadi. O'quv xususiyatidagi xomaki nusxadan tortib yuqori badiiy ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy xomaki nusxalargacha bo'lgan tasvirlar ma'lum. Ba'zan xomaki nusxa oliy darajadagi chizmatasvir namunasi bo'lib qolishi xam mumkin. Badiiy ta'lim muassasalarida xomaki nusxa bilan shug'ullaniladi, negaki bu yumushni rangtasvirchi, grafikachi, haykaltarosh, arxitektor va bezakchi kabi soxa vakillari xam bilishlari lozim. Dastur ko'rsatmasiga binoan xomaki nusxa ustida ishlash guruh rahbari kuzatuvi ostida ustaxonada va mashg'ulotlardan bo'sh paytda mustaqil ravishda ikki yo'nalshtsda olib borilishi zarur. Talabada kuchli kuzatuvchanlik xislatini, andozani plastik xususiyati, mutanosibligi va harakatini tez ilg'ab olish jihatini o'stirish, xomaki nusxa mashqlarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Xomaki nusxa talabada ko'zchamaning o'tkirligi va aniqligi, qo'l texnikasi va ko'rish orqali yodda saqlab qolish jihatlarini o'stiradi. Ustaxonada



ishlanadigan xomaki nusxalar uchun ham libosli, xam libossiz andozalar xizmat kilishi mumkin. Postanovkalar xususiyati statik va soddadan va murakkabgacha o'zgarishi mumkin. Kuchli kuzatuvchanlikni o'stirish uchun harakatlanuvchi andoza kiritiladi. Ko'rish orqali yodda saklash xususiyatini o'stirish uchun andoza fakat bir minutdan uch minutgacha ko'rsatiladi. Tabiiy harakatlarni ko'rish ma'qulroqdir. Talabalarda noma'qul ta'b uyg'otuvchi va vokelik xaqida



noto'g'ri tasavvur beruvchi sun'iy xolatlardan qochish kerak. Xomaki nusxalar uchun postanovkalar mudtsati berilgan topshiriqning murakkabligiga qarab belgilanadi va o'n besh minutdan ikki soatga kadar bo'lishi mumkin. Eng muhimi har bir postanovka o'z vazifasiga ko'ra maqsadga yo'naltirilgan va anik bo'lishi lozim. Xomaki nusxalar bo'yicha mashg'ulotlar rejasi o'qituvchi tomonidan avvaldan tayyorlab qo'yiladi. Reja tuzganda talabaning ixtisosligi va uning tayyorgarlik darajasini xisobga olish zarur. Kursdan kursga topshiriq o'zgarib borishi zarur. Xomaki nusxalar o'qituvchi tomonidan katta ijodkorlikni va e'tiborni talab qiluvchi jonli yumush hisoblanadi. Agar guruxda chizmatasvir yomon ko'rilyotgan bo'lsa, xomaki nusxani qurilma bo'yicha rejalashtirish zarur. U yoki bu talabaga alohida vazifa xam berilishi mumkin. Har bir talabaga alohida yondashuv chizmatasvirni egallashdagi xatolarni o'z vaqtida to'zatishtirish imkonini

beradi. Xomaki nusxani boshlashdan avval bir necha vakt naturani o'rganish lozim. Ishda nimani tasvirlash zarurligini aniq idrok etib olib borish keraq Xomaki nusxaning keyingi boskichi harakat, mutanosiblik va xususiyatni belgilash bilan bog'liq. Andozaning turli xislatlarini birdaniga ilg'ab olish uchun diqqat-e'tiborni, idrok etish tezligini, ko'z chamalash va qo'l harakatini kuchaytirish talab etiladi. Bu sifatlarni talabada xomaki nusxa ustida doimiy ishlash orqaligina vujudga keltirish mumkin. U yoki bu talaba xomaki nusxani boshlash asnosida qalamni darhol bosib, ogir uchmas chiziqlar tortayotganligini ko'llab kuzatish mumkin. U chizgan qomat muhitdan qirqib olingandeq qog'oz sirtiga yelimlangan applikatsiyadek tuyuladi. Xomaki nusxa bilinar - bilinmas yengil chiziklar orkali bajarilishi va faqat harakat xamda shakl talab qilgandagina turli kalinlik va tue berib uni kuchaytirish lozim bo'ladi. Umuman, xomaki nusxa birdan boshlanishi lozim, bu bilan u uzoq muddatli chizmatasvirdan farq qiladi. Ko'yilgan vazifa hal etilgandagina xomaki nusxa tugallangan xisoblanadi. Qo'yilgan vazifaga ko'ra chizmatasvir ashyosi tanlab olinadi. Pero, tush, qalam aniqlikni talab qiladi va har bir chiziq uchun javobgarlik hissini uyg'otadi. Sangina, ko'mir, sous, akvarelъ kabi ashyolar rangtasvir soxasidagi xomaki nusxalar chizishga ma'qul. Bunday har bir ashyoning o'rganilishi lozim bo'lgan o'z imkoniyatlari bor. Talaba qog'oz sifatini aniqlashga o'rganishi va unga tegishli chizgich ashyosni tanlashi zarur bo'ladi. Talabada ashyolarga nisbatan mutaxassislarcha munosabatda bo'lishni o'stirish keraq to'g'ri kelgan qog'oz bo'lagiga xomaki nusxa chizmasligi, uning xajmi va sifati belgilangan topshiriqqa mos kelishi zarur. Agar ustaxonada bajarilgan xomaki nusxalar orqali tez ishlash mahorati, qobiliyati xosil bo'lsa, uy sharoitida bajarilgan xomaki nusxalar bilan talabaning ashyoga munosabati, ko'ra olish qobiliyati vujudga keladi, u rassom sifatida shakllanadi. Bu



sifatlar lahzalik tasvirlar uchun ob'ekt tanlashda, uni kalban idrok etishda ko'rinadi. Bu yerda hech kim namuna sifatida o'tirmaydi, barcha tabiiy ko'rinishda bo'ladi.

Darsdan tashqari bajarilgan barcha xomaki nusxalarni doim ko'llash zarur, negaki aynan shu yerda talabaning kelajakdagi ijodiy ishlari uchun zarur bo'ladigan hayotiy kuzatishlar zahirasi to'planadi. Ilmiy bilim xususiyatiga ega bo'lgan xomaki nusxalar, inson tanasining anatomik jixatlaridan olingan xomaki chizmalar ana shu kurilmalar jumlasidandir. Fakat doimiy va uzluksiz mashq qilish bilangina tez xomaki nusxa chizish mahoratini o'stirish mumkin. Xomaki nusxa uzoq tanaffus bilan, ba'zi - ba'zida chizib turish kutilgan natijani bermaydi. Rus rassomlari I.Repin, N.Serov kabilar doimiy xomaki nusxa ustida ishlaganlar va shuning uchun xam mahoratli rassom bo'lib yetishganlar.

Rang tasvirda portret ishlashda bosh chizmasini ishlash umumiy qonunlar bilan tanishib, anatomiya bosh suyagini uch xil ko'rinishda tasvirlashni amalda bajarib o'rganiladi. Yuz mushaklari va qismlarini tirik odam boshida ishlash bosqichlari gipsli haykallardan chizmasatvir ishlash bilan bir xildir. Bosh chizmasatvirini ishlashdan oldin uni kompozitsiyasini qog'oz yuzasida izlash kerak. Kontur chiziqlari yordamida boshning burilish holatlarini, bosh o'lchamlari nisbatlarini aniqlanadi. Keyin yordamchi chiziqlar o'tkazib bosh qismi tuzulishini belgilab chiqiladi. O'q chiziq yordamida burun asosi, lab va jagning pastki qismi aniqlanadi. Profil chizigi orqali boshning burulishi, egilishi va gorizont chizigiga nisbatan holati belgilanadi. Undan keyin boshning hamma tekisligi (yuz, yonoq, peshona usti) va perspektiv qisqarishlarini aniqlab, diqqat bilan peshona do'ngligi, ko'z chuqurchasi, burun old va yon tekisligi, burun qanotchalarini, yonoq suyaklari va pastki jag' gekisliklari aniqlanib joylashtiriladi. Yuzning hajm, xarakter va nisbatlarini aniqlab, yengil shtrixlar yoodamida nur - soya belgilanadi.





Boshni hamma tomonidan kuzatib uning yuz xarakteri ishlanadi. Undan keyin nur - soya, reflekslarni aniqlab tulari kuchaytiriladi, ortiqcha chiziqlar olib tashlanadi va umumiy holatga bo'ysundiriladi. CHizmatasvir ishlash jarayonida talaba diqqatini boshning nisbat(proporsiyalar)ga, kompozitsiya va xarakterga qaratiladi. Talaba naturani xar xil burilishi holatida kuzatishni, bosh tekisliklarini muhitdagi holatini, qismlarini o'zaro bogliqligini, uygunligini, yuz muskullarini nur - soya va tus, qismlarini plastik yechimini, umumiy holatga bo'ysudirishni bilishi kerak. Unda induividuallik xarakteri shakl va nisbatlar aniqligida, jozibali ishlov berish bilan tusda bajarilgan. Ammo qismlarga ishlov berishda yetarli aniqlik va chuqur saralashda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lib chizmatasvirni badiiylik jozibasini kamaytirgan.

Bosh qismlari yetarli darajada ishlangan. Rangtasvir ijobiy sifatga ega bo'lib, ashyoviyliigi, aniq qurilishi, obrazni ochib berilishi, muhit va havoiiy perspektiva holatini ko'rsata olgan. Bu chizmatasvirlarda bajarilish uslublari, dastxati, vazifalar talabalar tomonidan bajarilishi dasturga muvofikdir va badiiy realizm maktabi talabiga mosdir.

***Odam boshini yelkasi bilan ishlash.*** Talaba birinchi kursda bosh chizmatasvirining umumiy konuniyatlari bilan, bosh suyagi, yuz mushaklari va a'zolari anatomiyasi bilan tanishib olgach, boshni turli tomondan va rakurslarda tasvirlashni amaliy egallab, jonli boshni tasvirlashga kirishadi. Jonli (natura) bosh ustida ishlash bosqichlari gipsli bosh ustida ishlash bosqichlari kabi davom etadi. Qogoz yuzasiga kompozitsion joylash asosida, boshni chizish boshlanadi. Boshning kattaligi, uning joylashuv o'rnini yengil chiziqlar bilan belgilab olgach, talaba o'lchamlar mutanosibligini aniqlaydi. So'ngra yuz qismlari tuzilishini belgilovchi yordamchi chiziqlar o'tkazadi. Yuz qismdagi o'rta chiziqda burun asosi, ogiz chukurchasi va jag kabilar belgilanadi. To'gri chizik boshni kaysi holatda chizilishini, ko'z chukurchalari ustidan o'tkazilgan chiziq boshning egilganlik darajasini va uning yotiq gorizontaI chiziqda nisbatan holatini belgilaydi. So'ngra boshning barcha qismlarini (yuz, yon, engak va boshqalarini) topish zarur bo'ladi va ularning turli egilganlik holatidagi masofada qisqarishi

qat'iy belgilab olinadi. Bosh hajmini aniq ko'rsatish uchun, eng avvalo, peshona suyagi va uning dungliklari, ya'ni qosh yoyi, ko'z chukurchalari kabilarning yuzasini diqqat bilan chikarish zarur bo'ladi; so'ngra burunning old va yon yuzasi, burun parraklari, turtib chikib turadigan yonok suyaklari va pastki jag belgilanadi. Yuzning hajmi, xususiyati va muvofiqligini belgilab olgach, yengil chizik bilan yorug - soyalar beriladi. So'ngra yuz xususiyatini anglab olish uchun turli tomondan tuzilmaga mosligi aniklanib har bir kismga ishlov beriladi xamda asta shakl hosil kilinadi. Shundan keyin yorug - soya, reflekslar aniqroq chiqarilaveradi, tus kuchaytiriladi, ortiqcha qismlar olib tashlanadi, ularning barchasi tasvirni yaxlitlikka bo'ysundiradi. Rangtasvir ustida ishlash chog'ida talaba e'tibori tuzilma mutanosibligi, kompozitsiyasi vaxislatigaqaratiladi. Talabani bosh tuzilmasining turli holatlarini kuzatishga o'rgatiladi va hamisha boshning fazodagi holati, bosh suyagi va yuz mushagi, yuzning turli o'zgarish paytida qismlarning o'zaro aloqasi, yoruglik tus va tus qismlariga plastik ishlov berish, ularning yaxlitliqlikka bo'ysundirilishini xamisha eslab kolish zarur. Ko'rsatiladigan chizmatasvir qat'iy va ishonchli tuzilmaga juda mos keladi. Unda shaklning shaxsiy xususiyatini chuqur tushunish va mutanosiblikning aniqligi, shaklning tus bilan aniq va ma'nodor andozaligini yaqqol ko'rinib turibdi. Ammo yoritilgan qismlariga ishlov berishda hafsala va chuqur tanlov yetishmaydi, bu chizmatasvirning ifodaliligini susaytiradi. Boshqa chizmatasvir ham portreti ishlanayotgan shaxe xislatlarining o'tkir talqini bilan ajralib turadi. Qariyaning jag'i ifodali, yaxshi joylashtirilgan, makonda jonli shakl xissi saqlangan. Ushbu andoza uchun tus to'xtaming gradatsiyalari muvaffaqiyatli xal etilgan. Bosh yetarli darajada qismlar ishlovi bilan boyitilgan. Rangtasvir moddiy do'nglik aniq qurilganlik inson obraziga chuqur kirishganlik makon va fazoviylikni his qilinishi kabi bir qator ijobiy hislatlarga ega. Ammo bu chizmatasvirda ham boshning suyak qismi yuzasi yetarli darajada aniq emas va shaklning bir qadar xomligi sezilib puradi. Turli usullarda chizilgan bu barcha chizmatas virlarda talabalarning dasturga ko'ra qo'yilgan vazifalarini diqqat bilan bajarishga intilish seziladi. Agar chizmatasvirdagi ayrim yetishmovchiliklar olib tashlansa, ular shubhasiz oliy maktab talablariga javob

beradi. Jonli andozadan uzok muddatli surat chizish, yoddan xomaki nusxalar va lahzalik chizgilar bajarish bilan bir qatorda anatomiyadan qat'iy bilimlarni talab kiladigan va eng muhimi naturadan chizish chogida ulardan omilkorlik bilan amalda ko'llay oladigan ko'nikmalarni hosil kiladigan, yoddan mustaqil raem ishlashda bu bilimlarni erkin qo'llashni talab etadigan anatomik chizmatasvir bo'lajak rassom faoliyatida muhim o'rin tutadi. Anatomik chizmatasvir talabalarga chuqur bilim berish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Shu maqsadga frantsuz haykaltaroshi Gudon tarafidan yaratilgan inson anatomik kallasi haykali qo'yilishi mumkin. Ularni shunday quyish va yoritish kerakki, bunda boshning muskullar tizimi aniq ko'rinib tursin, talaba undan ko'proq bilim olein, muskul qurilmasi hamda kalla shaklini turli xolatlarda va jaglar biron narsa chaynayotgandagi vaziyati, suyaklar birikuvi kabilarni yaxshi o'rgansin. Bunda boshni old, yon, yarim burilishi kabi turli holatlarini tasvirlash tavsiya etiladi. rangtasvirlar miqdori har bir alohida talaba uchun zarur bo'lgan darajada belgilanadi. Talaba navbatma - navbat kalla suyagi detallarini yaxshi o'zlashtirib, boshqa detallarni o'rganishga asta sekin o'taboshlaydi. Ba'zida boshning anatomik tartibini o'rganishga ko'proq vaqt talab qilinadi, shunga ko'ra talaba ko'plab chizgilarni bajarishi zarur bo'ladi. Talaba chizayotgan chizmatasviri hajmi boshning tabiiy xajmidan oshmasligi (boshning jonli andozasi hajmi nazarda tutiladi) kerak. Har bir chizmatasvirga taxminan ikki – to'rt soat ajratiladi. Rangtasvirda asosan naturani qalam bilan chiziladi, lekin pero, sangina, ko'mir kabi boshqa ashyolardan ham foydalanish mumkin. Ko'rgan narsalarini xotiraga olish kobiliyatini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida naturadan chizmatasvirni tugatgach aynan o'sha andozani mukobil harakatlar bilan tasvirlanadigan xotiradan qisqa muddatli tasvirlarni bajarish tavsiya etiladi. Xotiradan rangtasvirlar tasvir jarayoniga ko'ra naturadan bajariladigan tasvirlar bilan almashinib turishi mumkin. Xotiradan chizmatasvirlar bosh anatomiyasini o'rganishdagi tasviriy xotirani mustaxkamlash imkonini beradi. Bunday chizmatasvirlar talaba nazariy bilimlarini va amaliy ko'njshalarini to'la egallagani anik bo'lguncha takrorlanishi L03»1M. Anatomik boshni turli xolatlarda tasvirlash bilan bir katorda uning alohida qismlari bo'lgan

ko'z, burun, og'iz, quloq kabilardan qisqa tasvirlar bajarish foydali. Bu talabaga har bir qismning, har bir mushakning alohida kurilmasini chukur va e'tibor bilan o'zlashtirishiga, ularning shakl kurilmasi va boglikligini tushunishga yordam beradi. Boshning yuqorida ta'kidlangan kismalarining har birini taovirlashni majburiy qilib qo'yish shart emas, bu holat o'rganilayotgan ma'lumotni qanchalik tez o'zlashtirib olish va tayyorgarlik darajaga bogliq. Inson boshi anatomik tasvirini bajarish chogida bosh suyagidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lsa, unda talaba boshning mushak qoplamasi va bosh suyagi orasidagi bevosita aloqani tushunib yaxshiroq eslab qoladi. Bosh va ayrim kismalarining tuzilish xususiyatlarini ongli ravishda va mustahkam egallab olinishi uzok muddatli chizmatas virlarda ham, xotiraviy chizmatasvirlarda ham aksini topmog'i talab etiladi. Inson anatomiyasini nazariy va amaliy jihatdan egallashni asosan plastik anatomiya kursi mashg'ulotlarida keng o'rganiladi. Anatomik chizmatasvir topshiriqlarini faqat boshning asosiy mushaklarini statik holatda o'rganish bilangina chegaralanib bo'lmaydi. Barcha mushaklarni va ularning uzaro bnrikuvi shakl va hajmi, turli harakat va qisqarishlardagi o'zgarishini chuqur anglash lozim. ayniqsa imo - ishora bilan bog'liq mushaklar va ularning inson ichki holatiga bog'liq tomonlariga e'tibor karatish muhimdir. Murakkab vazifalarni bajarmay turib, haqiqiy rassom, psixologik portret yoki tematik surat ustasi bo'lib yetishishi qiyin.

Odam boshi murakkab rakurs da. «Rakurs holatni tasvirlashni o'rganishdan oldin bajariladigan boshni yon tomondan va rakurs ko'rinishlarda chizish» topshiriqlariga «kalla suyagini turli ko'rinishlarda tasvirlash» topshirigi muqaddima bo'lishi kerak. Bu inson bosh tasviriga o'tishda nihoyatda zarur. «Kalla suyagini turli ko'rinishlarda» tasvirlash bosh suyagining tuzilish xususiyatlari va uning kismalarining o'zaro alokalarini o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu topshiriq kalla suyagining turli ko'rinishlarini o'rganishni taqozo etadi. Uning ro'paradan, to'rtidan uch qism ko'rinishi va yon taraf holati chiziladi.

Bu turli burilish va rakurslar xamda boshning ayrim qismlarining tabiatda jism va qomatning alokasidan vujudga keluvchi fazoda yuz beradigan qoidalariga

bo'ysinuvchi jarayoni o'zaro mutanosiblikni belgilash kabilarga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Rakurs - tabiatda jism va qomatning murakkab holati. Bu holatda qaralayotgan ob'ektning insonga old qismi kattaroq, uzoklashayotgan kismi kichiklashib boradi. Kalla suyagi chizmatasvirini bajarishga kamroq vakt ajratiladi, xususan, dastlabki ikkita chizmaga olti - sakkiz soat, uchinchisiga un ikki - un olti soat vakt ajratiladi, negaki u avvalgi ikkita chizmaning ustida ishlash jarayonida olingan bilimlarning amaldagi natijasini namoyon etish imkoniyatini tugdiradi. Ko'p yillik pedagogik tajribadan kurinadiki, vaktning bunday taksimlanishi talabani portret chizishdek qiyin topshiriqni bajarishga asta - sekin kirishuviga yaxshi debocha bo'ladi. Har uchala suratni bir o'lchamda chizish tavsiya etiladi, bu boshning turli holatlaridagi tuzilish xususiyatlari va shakli, o'ziga xosliklarini tezroq tushunib olishga yo'l ochadi. Rangtasvirni shoshmay, shaklning fazodagi (ayniqsa, rakursdagi) holatini yaxshilab kuzatib, keyin ish boshlash kerak. Boshning umumiy ko'rinishi, uning kattaligi va mutanosibligini belgilab olgandan keyin, o'rta (simmetriya) chiziqni anik mo'ljallab olish zarur. Qosh, ko'z, burun va og'zni ifodalovchi chiziqlar o'tkaziladi, ularning orasidagi masofa belgilanadi, negaki bosh yon tomonga burilganda va rakursda bu chiziklar orasidagi masofa o'zgaradi.

Bularning barchasini chizmaga kiritib va mutanosiblikni yaxshilab tekshirgandan keyin boshning ayrim qismlarini aniqroq ifodalashga kirishish mumkin. Bunda ularning shaklini aniq berilishiga va umumiylik xususiyatini nazardan qochirmaslikka harakat qilish zarur bo'ladi. Boshning rakurs holatlarida shakl biron qismi yuzasining qisqarishi va boshkasining kattalashishi qanday ruy berishini doimo fikran tasavvur etib borish keraq masalan, yuqoriga ko'tarilgan boshda vertikal joylashgan peshona, burun, yonoqlarning qisqarishini kuzatsak aksincha, gorizonta joylashgan ko'z doiralari, burunning pastki yuzasi, lablar, jag' va boshqalarning kattalashishini ko'ramiz.

Bosh pastga egilganda bu qismlarning holati shunga ko'ra o'zgaradi. Suratni qog'oz yuzasida joylashtirishdan boshlab tugallashgacha jism yoki qomat tus ustidagi ishlar davom etar ekan, uni fakat shaklni aniqlab to'zib olish uchun zarur

bo'lgan darajadagina olib boriladi. Ko'proq vaqt ajratiladigan uchinchi bosqichda tus jihatdan bajariladigan ishlar shaklni yakuniy ifodalashga xizmat qiladi va haqqoniy tasvir hosil qilinadi. Simmetriya (o'rta chiziq) - rassomchilikda inson yuzi tasvirida profil chizig'i deb ham ataladi.

Kalla markazidan o'tuvchi chiziqqa doimiy ko'z tashlab tekshiradigan yordamchi vosita sifatida inson harakterini aniqlashda ahamiyati beqiyos. O'quv topshiriqlari, barcha bosqichlarda vaqti - vaqti bilan kalla suyagiga murojaat kilib turish, boshning ma'lum vaziyatidagi holatidan lahzalik chizmalar va homaki nusxalar ishlab borish chizmatasvir mahoratini oshiradi. Tasvirlanayotgan inson boshini ko'proq tushunish uchun kalla suyagi bilan doimo chog'ishtirib borish bosh tasvirini bajarishda yaxshi natijalar beradi.



## NAZORAT SAVOLLARI

- 1. Odam boshini yelkasi bilan ishlashning qanday talablari bor?*
- 2. Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to'g'risida madumot bering?*
- 3. Odamning harakat holatini izohlang?*
- 4. Tayanch nuqtasi va muvozanat to'g'risida so'zlab bering?*
- 5. Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yodi bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?*
- 6. Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?*
- 7. Buyumda yorugdikning taqsimlanish qonuniyatlarini bayon eting?*
- 8. Odam qomatining tuzilishini sxema asosida chizib ko'rsating?*
- 9. Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to'g'risida madumot bering?*
- 10. Odamning harakat holatini izohlang?*
- 11. Tayanch nuqtasi va muvozanat to'g'risida so'zlab bering?*

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Boymetov. Qalamtasvir 1-qism. T. 2007.


2. B.Tojiboyev. N.Isoxo`jayeva Qalamtasvir, Rangtasvir va kopozirsiya asoslari. T.2011.
3. N.A.Dmitriyev. Kratkaya istoriya iskusstv. M.: 1985 g.
4. Gruppa avtorov.Vse obshaya istoriya iskusstv. M.:1956 g
5. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Dastgohli Rangtasvir” Iqtisod moliya. T., 2008.
6. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Rangtasvir” Bilim. O`MKHTM T., 2005
7. B.Tojiev, N. Isahojayeva. “Qalamtasvir, rangtasvir va kompozisiya” “SHARQ” NMAK. T., 2011
8. Abdirasilov.S., Tolipov N. N.Oripova. “Rangtasvir” TDPU rizografida 2003
9. G.V.Beda. Jivopis’. Moskva. "Prosvextsenie". 1986. (26-39 betlar)
10. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.
11. Nurtoev.O’ “Rangshunoslik asoslari” o’quv qo’llanma “Ilm ziyo” T., 2008
12. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T.: 2002.
13. Abduraqmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya. – Toshkent, 1995.
14. Nabiev M. «Rangshunoslik». Toshkent; O’qituvchi, 1995.

## **8-Mavzu: Libossiz erkak qomati suyangan holati. (erkak, ayol konstruktiv yechimda, shartli chizma suniy yorug’likda).**

### *Reja:*

1. *Yalong`och qomat chizmatasviri*
2. *Inson qomatining anatomik tahlili*
3. *Odam qomatini sklet va muskullarni anatomik qismlarga ajratib qurish*

Ma`lumki, konstruktiv yechim ko`pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalaniladi. erkak kishining libossiz yarim qomati akdemik chizmatasvirni ishlash murakkab vazifalardan xisoblanadi. CHunki konstruktiv fikrlash chismatasvir olmaga, odam tanasini juda nozik tekisliklarini ko`rishni va fikrlashn o`rgatadi. Uni tasvirlash, o`xshatib ifodalash ancha qiyindir. YAlong`och odam gavdasining har




xil ko`rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasi, o`ziga xos shakl-shamoyilini o`rganishni, plastik yechimini topishni taqozo etadi. SHuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamtasvirini chizib, o`rganilishi kerak. Buning uchun mayda xomaki qalam chizmalar bajarish, tahlil qilib o`rganish lozim. SHundan so`ng eng maqbul, chiroyli, ko`zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni qog`ozga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning satxda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o`ylab chiziladi. Katta shaklni ko`ribilishlik va tekisliga tushirish alohida e`tiborga qaratiladi, mutanosiblik barcha narsada o`z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo`lagi, soya yorug`ligida namoyon etiladi. Yalang`och odam yarim qomatini qurish jarayonida, tanadagi konstruktiv tekisliklarga aloxida etibor bilan chiziladi, ayrim kerakli joylarini buktirib ishlanadi. YAlang`och odam yarim qomat soya va yorug` joylarini yaxlit qilib tus jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko`rsatishga yordam beruvchi unsurlar-yarimsoya va aks shu`lalarni belgilash bilan davom ettiriladi. Ayniqsa, gavdaning qorin va bel qismlarini konstruktiv tuzulishlariga juda kata etibor beriladi. Ularni «nyuans»lar yordamida ishlash mumkin. Bunda tus o`zgarishlarining salgina farqi ham hisobga olinadi. erkak kishining libossiz yarim qomati murakkab keng ma`no tashuvchi, voqeani aks



ettiruvchi bo'lishi bilan ajralib turadi. Respublikamizda ijod qilgan va qilayotgan rassomlar o'z ijodlarida odam gavdasini uning go'zalligini xaqqoniy qilib aks ettirganlar. Ulardan CH.Axmarov, R.Ahmedov, N.Qo'ziboev, R.CHoriev, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, S.Rahmetov, va boshqa ko'plarni sanab o'tishimiz mumkin. Akademik yo'nalishdagi chizmasvir o'z qonun- qoidalari bor. Ular o'quv-mashq ishi ekanligi, qat'iy me'zonlar doirasida, metodik izchillik asosida bajarilishini bilamiz. Ammo uning barcha talablariga muvofiq ish olib borish ancha murakkabdir. Buning uchun talaba ko'p mashq qilishi hamda nazariy bilimlar bilan qurollanishi kerak. Akademik chizmasvir mashq vazifa sifatida ishlanayotgan bo'lsada, unga alohida talabchanlik bilan yondoshish zarur. Chizilayotgan kishining o'xshatish eng muhim ishdur.


**Erkak kishining libossiz yarim qomatini anatomiya taxlili va konstruktiv yechimi bilan, namuna misolida.**



**XOMAKI CHIZMALAR NAMUNALARI.**



Tananing kosmosdagi holatining anatomik xususiyatlari Tananing pozitsiyalari uning kosmosdagi yo'nalishi (vertikal, gorizontal, moyil, bosh pastga va boshqalar), pozitsiyasi (tananing alohida qismlarining bir-biriga nisbatan joylashishi) bilan tavsiflanadi. va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Tana pozitsiyalari tashqi kuchlar (tortishish va qo'llab-quvvatlovchi reaktsiya kuchi) o'zaro muvozanatlashganda statik deb ataladi. Muvozanat shartlari tananing bo'g'inlarining o'zaro joylashishiga va qo'llab-quvvatlash sohasiga bog'liq. Odatda tananing bo'g'inlari bir xil tekislikda bo'lmagani uchun, lekin ular o'rtasida burchaklar hosil bo'ladi va kuchlar momentlari paydo bo'ladi, har qanday pozitsiyani saqlash mushaklarning kuchlanishini talab qiladi.



Yuqori qo'llab-quvvatlanadigan tana pozitsiyalarida, aksincha, tananing



pastki qismlarining mushaklari yuqoridagi mushaklarga qaraganda kamroq taranglashadi. Shunday qilib, tik turgan holatda, oyoq Bilagi zo'r bo'g'imning mushaklari butun tananing og'irligini muvozanatlashtiradi, osilgan holatda esa xuddi shu mushaklar faqat bir oyoqning og'irligini muvozanatlashtiradi. Yuqori tayanch bilan turli pozitsiyalarda tananing harakatchanligi darajasi har xil (tananing bet ning tayanchgacha bo'lgan masofasiga va tayanch maydonining kattaligiga qarab). Harakatchanlik qanchalik kam bo'lsa, BCT dan qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan masofa qanchalik kichik bo'lsa va qo'llab-quvvatlash maydoni qanchalik katta

bo'lsa. Pastki va yuqori tayanchli pozitsiyalarda tana bo'g'inlarining harakati boshqa bo'g'inlarda, boshqa bo'g'inlarda qo'shimcha (kompensator) harakatlar bilan birga keladi. Masalan, yukni oldingizda ushlab turganda tanani muvozanatda ushlab turish uchun tana orqaga og'adi, o'ng qo'lda yukni chapga ushlab turadi; barda yuqoriga tortish oyoqlarning kompensatsion harakatiga sabab bo'ladi. 4-turish holati - bu tananing tabiiy, odatiy holati, uzoq evolyutsiya jarayonida rivojlangan. Bu harakatlar va jismoniy mashqlar uchun ishchi pozitsiya, boshlang'ich va yakuniy pozitsiya bo'lishi mumkin. Tik turganda tana vertikal holatni egallaydi, qo'llar tananing bo'ylab tushiriladi, bosh tekis ushlanadi, oyoqlar oyoqlarning plantar tomoni bilan tayanch yuzasi bilan aloqa qiladi. Og'irlik kuchi pastga yo'naltiriladi va tananing bo'g'inlarida siqish usulida ta'sir qiladi. Bog'lanish rulman yuzasiga qanchalik yaqin bo'lsa, tortishish momenti shunchalik katta bo'ladi. Shuning uchun pastki oyoq-qo'llar, ayniqsa oyoq, eng katta yukni boshdan kechiradi. Qo'llab-quvvatlashning reaksiya kuchi tortishish kuchiga teng, lekin teskari yo'nalishda. Tik holatda inson tanasining muvozanatini saqlash shartlaridan biri bu tananing to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash maydonidan yuqorida joylashganligi. Agar ushbu markazning vertikal qo'llab-quvvatlash maydonidan tashqariga chiqsa, u



holda muvozanat buziladi va tana tushadi. Bundan tashqari, tananing bir qismi bo'lgan bir-biriga nisbatan harakatlanuvchi bo'g'inlar mushak va ligamentlar tarangligi yordamida sobit holatda ushlab turilgandagina tik holatini saqlab qolish mumkin. Tik turish pastki tayanchli tana pozitsiyalarini bildiradi. Qo'llab-quvvatlash maydoni oyoqlarning plantar yuzasining maydoni va ular orasidagi bo'shliqning maydoni bilan hosil bo'ladi. Oyoqni qo'llab-quvvatlashning asosiy nuqtalari - kalcaneal tuberkulyarning pastki yuzasi va metatarsal

suyaklarning boshlari, shuningdek (ehtimol) barmoqlar. Yopiq poshnali qo'llab-quvvatlash maydoni, oyoqlar bir-biriga nisbatan ma'lum bir burchak ostida joylashganida kattaroq bo'ladi. Bu taxminan 250350 sm<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Tik turgan holatda bosim ko'proq tovonga va kamroq metatarsal suyaklarning boshlariga tushadi, asosan 2 va 3-chi. Tana vaznining taxminan 3/4 qismi oyoqning orqa tomoniga, 1/4 qismi esa old tomoniga to'g'ri keladi. Agar tik turgan holatda, torsonni orqaga qaytaring yoki aksincha, 5 ni oldinga olib borsangiz, oyoqning old va orqa qismlarini qo'llab-quvvatlash sohasidagi bosim kuchi o'zgaradi. Birinchi holda, oldingi oyoqning bosimi pasayadi, orqa esa kuchayadi, ikkinchisida esa aksincha. Bundan tashqari, tananing vertikasi yoki hududning orqa yoki oldingi chetiga yaqinlashadi, qo'llab-quvvatlash va shuning uchun mushaklardagi yuk o'zgaradi. Oyoqning samarali qo'llab-quvvatlovchi yuzasi deb atalmish tazyiqlarda ko'rinadigan sirtidan ancha kichikdir. Buning sababi, oyoqning yumshoq qismlari tanani etarli darajada qo'llab-quvvatlay olmaydi. Agar odam poyabzalda, ayniqsa qattiq poyabzalda tursa, oyoqning "bo'sh" yuzasi poyabzalsiz bo'lgandan ko'ra kattaroqdir, chunki birinchi holatda oyoq chetining yumshoq to'qimalari tortishish kuchiga ko'proq qarshilik ko'rsatadi. Nosimmetrik turish bilan tana vazni ikkala oyoqqa teng taqsimlanadi va tananing BCT vertikasi taxminan qo'llab-quvvatlash maydonining o'rtasidan o'tadi. Ammo bu vertikal qo'llab-quvvatlash maydoni chegarasidan tashqariga chiqsa, muvozanat buzilishi mumkin. Shu munosabat bilan, tik turgan holat muvozanatning cheklangan barqaror turi deb ataladi. Tananing BCT vertikalining tayanchning orqa tomoniga yoki old chetiga yaqinroq joylashishiga qarab, uch turdagi tik turish joylari ajratiladi: 1) antropometrik, 2) tinch, 3) tarang (cho'zilgan kamon holati). Tananing tarang holati tananing to'g'rilanishi va biroz oldinga tortilishi bilan tavsiflanadi, shuning uchun tananing BCT vertikasi tayanch sohasining oldingi chegarasi yaqinida, barcha asosiy bo'g'inlarning ko'ndalang o'qlari oldida o'tadi. pastki oyoq-qo'lning: son, tizza va oyoq bilagi zo'r. Shunday qilib, tananing yiqilishiga yo'l qo'ymaslik uchun bu bo'g'inlarning orqa yuzalarida joylashgan mushaklar doimiy ravishda qisqarishi kerak. Tarang holatda, asosiy yuk tananing vertikasi o'tadigan joyga qarama-qarshi, tananing orqa yuzasida joylashgan

mushaklarga tushadi. Ularning barchasi xolding ishlari bilan shug'ullanadi. Boshni trapezius mushaklari, magistralni umurtqa pog'onasini to'g'rilaydigan mushaklar ushlab turadi. Qorin bo'shlig'i mushaklari biroz qisqaradi. Kestirib, bo'g'imning mushaklariga (gluteus maximus) ko'p ish tushadi, pastki oyoqning orqa yuzasi mushaklari va oyoq va oyoqning fleksorlari juda tarang. egilgan oyoqlarning plantar tomonida joylashgan. Tanani egilgan oyoqlarda osilgan holda ushlab turish uchun pastki oyoqning egilgan holatini songa nisbatan taxminan to'g'ri burchak ostida ushlab turish kerak. Bu qiyin emas, chunki buzoq fleksiyanlari juda kuchli mushak guruhi bo'lib, nafaqat sonning orqa mushaklarini, balki boldir mushaklarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu mushaklarning ko'tarish kuchi taxminan 500 kg ni tashkil qiladi. Kuchlanishning pasayishi bilan mushaklarning cho'zilishiga misol qilib, oyoqlarni osilgan burchakdan osilgan joyga tushirishda kestirib, bo'g'imning old yuzasi mushaklarining holati bo'lishi mumkin. Bosh, torso va pastki ekstremitalarda yuqori tayanch mavjud. Tananing yuqori ekstremitalarining yuqori ekstremitalarga nisbatan kamari tayanch sohasi ustida joylashgan bo'lib, muvozanatning marjinal barqaror turini keltirib chiqaradi. Tananing qolgan qismiga nisbatan u qo'llab-quvvatlash maydoni ostida joylashgan bo'lib, uni barqaror muvozanat bilan ta'minlaydi. Yuqori ekstremitalarning mintaqasida tortishish kuchi yuqoridan pastgacha ko'tarilib, siqish ta'siriga ega. Tananing sohasida, xuddi osilgandek, bo'shliqda harakat qiladi, tananing asosiy bo'g'inlarini yotqizilganidan ajratishga harakat qiladi va shu bilan birga pastdan yuqoriga ko'tariladi (eng katta yuk bo'shliqqa tushadi. yuqori oyoq-qo'l kamarining mushaklari).

7 2. Odam tanasining tipik harakatlarining anatomik tahlili: a) yarim cho'zilgan holda yurish; b) bosqichma-bosqich yugurish. Tananing translatsion harakatlarining umumiy xususiyatlari Yurish - bu tananing tayanch yuzadan itarilishi va uning kosmosdagi harakati bilan bog'liq bo'lgan murakkab, tayanch-harakat, simmetrik, tsiklik harakat. Yurish paytida tana hech qachon qo'llab-quvvatlovchi sirt bilan aloqani yo'qotmaydi. Qo'llab-quvvatlash bir oyoqda yoki ikkala oyoqda sodir bo'ladi. Yurishdagi harakatlar tsikli ikki qadam bo'lib, u bir yoki boshqa oyoq tomonidan amalga oshiriladigan ikkita bir qadamdan iborat. Har bir qadam navbat bilan ikkita oddiy qadamdan iborat: orqa va old. Orqa qadam - bu

oyoq tanadan o'tadigan frontal tekislikning orqasida joylashgan bir qadamning bu qismi. Old qadam - bu tekislik oldida oyoq bo'lgan yagona qadamning bir qismi. Oldinga va orqaga qadam o'rtasidagi chegara vertikal moment hisoblanadi. Ikki qadam - bu murakkab harakat. Shuning uchun tahlil qilish qulayligi uchun u alohida bosqichlarga bo'linadi. Ikki qadam oltita bosqichdan iborat bo'lib, ulardan uchasi qo'llab-quvvatlovchi oyoqqa, uchasi esa erkinga bog'liq. Yurishda inson tanasining deyarli barcha mushaklari ishda ishtirok etadi, lekin boshqalardan ko'ra ko'proq - pastki ekstremitalarning mushaklari. 8 Qo'llab-quvvatlovchi oyoq mushaklarining ishi. Qo'llab-quvvatlash davrining barcha bosqichlarida pastki oyoq amortizator vazifasini bajaradi, butun tanani qo'llab-quvvatlaydi va itarishni ta'minlaydi. Mushaklarni faollashtirish ketma-ketligi va ularning kuchlanishi alohida fazalarda har xil bo'ladi. 1-bosqichda pastki oyoq mushaklarining oldingi guruhi (oyoq va barmoqlarning ekstensorlari) va tibialis mushaklari bilan birgalikda oyoqning ko'ndalang yoyini oshiradigan peroneal mushaklar eng tarang bo'lib chiqadi. Oyoqning tizza bo'g'imida egilgan holati sonning orqa mushaklari guruhining qisqarishi bilan, son bo'g'imida esa oldingi son mushaklari guruhi (quadriseps femoris, sartorius) tomonidan saqlanadi. 1-bosqichning oxiriga kelib, oyoqning orqa mushaklari guruhi, sonning oldingi guruhi mushaklari va son bo'g'inini o'rab turgan mushaklarning kuchlanishi kuchayadi. Vertikal momentda ishning o'ziga xosligi shundaki, pastki oyoqning barcha bo'g'imlarini mahkamlaydigan muskullardan tashqari, sonning tarangligini o'g'iraydigan mushaklar, tos bo'shlig'ining erkin oyoq tomon burilishiga to'sqinlik qiladi. Orqa qadam fazasida muskullar taranglashadi - oyoqning bukuvchilari, pastki oyoqning ekstensorlari va sonning ekstensorlari (gluteus maximus). Tana harakatlarining tasnifi Insonning har bir harakati natijasidir. tashqi va ichki kuchlarning o'zaro ta'siri. Agar tanaga ta'sir qiluvchi kuchlar o'zaro muvozanatlashgan bo'lsa, u holda tananing ma'lum bir pozitsiyasi paydo bo'ladi. Agar bu kuchlar muvozanatlanmagan bo'lsa, u holda tana kattaroq kuch yo'nalishi bo'yicha harakat qiladi va harakat sodir bo'ladi. Harakat paytida tashqi kuchlardan quyidagilar katta ahamiyatga ega: a) tortishish; b) tayanch reaksiya kuchi; v) muhitning qarshilik kuchi; d) inersiya kuchi. 9 Tashqi kuchlardan



harakatdagi asosiy kuch mushak tarangligidir. Gravitatsiya - tanani pastga siljitishda uning harakatiga hissa qo'shadi, tanani yuqoriga ko'tarishda uni sekinlashtiradi va gorizontal tekislikda harakatlanayotganda u neytral bo'lib qoladi. Atrof-muhitning qarshilik kuchi odatda harakatni sekinlashtiradi. Ammo bu kuch velosipedda, yuqori tezlikda yugurishda, chang'idan sakrashda eng katta ahamiyatga ega. Qo'llab-quvvatlovchi reaksiya kuchi kattaligi va yo'nalishi bo'yicha bir xil emas va tana vazniga, harakat tezligiga va mushak ishining tabiatiga bog'liq. Inertsiya kuchi - bu harakatni yaratish yoki tormozlashda, uni to'xtatganda o'chirish uchun engish kerak bo'lgan kuch. Bu kuch nafaqat mushaklarning harakatiga, balki harakat shakliga ham ta'sir qiladi. Mushaklar taranglik kuchi (mushak kuchi) tashqi kuchlarni yengish va harakatni ta'minlashga sarflanadi. Inson tanasining harakatlari murakkab va xilma-xildir. Inson kosmosda harakat qiladigan harakatlar majmui lokomotiv deb ataladi. Ular mushaklarning muvofiqlashtirilgan ishi tufayli amalga oshiriladi. Yugurish va yurish o'rtasidagi asosiy farq - bu allaqachon oldinga siljigan oyoqda va hali erdan yirtilmagan "orqa" da tananing ikki tomonlama qo'llab-quvvatlash davrining yo'qligi. Tananing "orqa" oyog'i bilan kuchliroq itarilishi tananing ikki tomonlama qo'llab-quvvatlash momentini havoda parvoz qilish davri bilan almashtiradi. Yugurish, shuningdek, yurish, tsiklik maksimal intensivlikni anglatadi. Tsikl ikki xil qadam (chap oyoq qadami o'ng oyoq qadami) hisoblanadi, u ikkita mos yozuvlar iboralaridan iborat - qaytarilish va qo'nish - va parvozning ikkita ajratuvchi bosqichi. Har bir faza keyingisini belgilaydi, unda oldingisining harakatlari qo'llaniladi.\3\ Yugurish mushaklar kuchini, bo'g'inlarda harakatning aniqligi va tezligini rivojlantiradi, asab mexanizmlarini muvofiqlashtirishni yaxshilaydi, metabolizmni sezilarli darajada oshiradi.



## **NAZORAT SAVOLLARI**



- 1. Tayanch nuqtasi va muvozanat to'g'risida so'zlab bering.*
- 2. Odanning harakat holatini izohlang.*

3. *Inson skeleti to'g'risida madumot bering. Uning tasvirini uslubiy bosqichlarda chizish usullarini so'zlab, amaliy ko'rsating.*
4. *Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to'g'risida madumot bering.*
5. *«Shaklning konstruktiv asosi», deganda nimani tushunasiz?*
6. *Odamning plastik anatomiyasi, deganda nimani tushunasiz?*
7. *Psixologik portret nima? Mimika muskullari to'g'risida madumot bering.*
8. *Katta shakl nima?*
9. *Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yodi bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?*

#### **Foydalangan adaboyotlar:**

1. B. Boymetov, Qalamtasvir. Darslik "Musiqqa" nashriyoti -2006.
2. Халилов Р, Рисунок, Издательство «Навруз» Т., -2013.
3. B.Tojiyev, Maxkamova "Qalamtasvir" TDPU-2015 yil
4. B.Tojiyev, X.Sultonov "Qalamtasvir" TDPU-2009
5. P.Thomas, A.Taylor, Drawing, London-2011.
6. B.Boymetov «Qalamtasvir» Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, "Iqtisod-Moliya"-2010.
7. B.Barber "Full course of the drawing", Barselona-2014.
8. N.Tolipov,Sh.Dilshodbekova. "Tasviriy san'atdan izohli lug'at" TDPU-2014.
9. X.Хариссон, "Энциклопедия. Техник рисунка" Москва-2005.
10. М.Кирцер, "Рисунок и живопись" Москва-2003.
11. Н.Ли , Основы учебного академического рисунка. Москва-2003
12. Ivanitskiy M.Yu. Inson anatomiyasi: Jismoniy madaniyat oliy maktablari uchun darslik / M Terra - Sport: Olympia RKE88, 2003. - 624p.
13. Zaxarov E.N., Karasev A.V., Safonov A.A. Jismoniy tarbiya entsiklopediyasi (Jismoniy fazilatlarni rivojlantirishning uslubiy asoslari) / Ed. A.V. Karasev. M.: Leptos, 1994.368 b.

# MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI

AMALIY SAN'AT VA RANGTASVIR KAFEDRASI

3-kurs, RTS-AU-21-gurux talabalari uchun

**CHIZMATASVIR**

Mazkur mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar oliy vao`rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagi 286-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "talaba mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha" yo`riqnoma hamda namdu ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi bo'yicha" yo`riqnoma asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:**



**A.Amanullayev**

**Taqrizchi:**

**B.Ruzinov**

Ushbu mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar Amaliy san`at va rangtasvir kafedrasining 2023 yil “28”avgustdagi “1”-son yig`ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

© Namangan davlat universiteti

### **1.Mustaqil ta`limning tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil shi o`zbekiston respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining “talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to`g`risida”gi 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonlibuyrug`i va “talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo`yicha yo`riqnoma” asosida tashkil etiladi.

Talaba mustaqil ishi (tmi) – muayyan fandan o`quv dasturida belgilangan bilim, ko`nikma va malakaning ma`lum bir qismini talaba tomonidan fan o`qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o`zlashtirilishiga yo`naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar bo`yicha fan boblari va mavzularini o`rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- mavzuga oid karta-sxemalar va turli chizmalar tayyorlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari

## **2. Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo'yicha topshiriqlarni qabul qilish shakllari**

Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo'yicha topshiriqlarni quyidagi shakllarda qabul qilish tavsiya etiladi.

- ◆ Mavzu asosida qoramalar
- ◆ Eskizlarni yig'ish yakuniy qismi
- ◆ slaydlar
- ◆ tarqatma materiallar
- ◆ mavzuni tahlil qilish

Talabalarni mustaqil ishlarini baholash har bir mustaqil ish mavzusini yakunlab topshirilgandan keyin amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim jarayonida ajratilgan topshiriqlarni talaba Universitet, fakultet kutubxonalari yoki internet tarmog'laridan topib tayyorlaydi va qisqacha mazmunini qayd etib boradi hamda ko'rsatilgan shakllarda topshiradi. Bunda talaba har bir mavzu bo'yicha ishni bajarib, o'qituvchiga ko'rsatgan mustaqil ishi uchun ball oladi. To'planadigan ballar reyting nazorati turlariga (oraliq va joriy nazorat) qo'shiladi.

**Talabaning har bir mustaqil ishini baholashda quyidagi me'zonlarga amal qilish mumkin.**

- ◆ Mavzuning yoritilishi:
- ◆ Kutubxona va internet ma'lumotlaridan foydalanganligi-
- ◆ Ishni tushuntirishda talabaning nutqi
- ◆ Ishga ilmiy jihatdan yondoshganligi
- ◆ Imloviy va uslubiy xatolar
- ◆ Savollarga og'zaki javob:
- ◆ Berilgan barcha savollarga javob berish
- ◆ Qisman xatoga yo'l qo'yish
- ◆ Qisman to'g'ri javob berish
- ◆

### **TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING SHAKLI VA HAJMINI BELGILASHDA**

#### **QUYIDAGI JIHALTLAR E'TIBORGA OLINISHI LOZIM:**

- O'qish bosqichi;
- Muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- Talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- Fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- Talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

#### **TALABA MUSTAQIL ISHINING VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

- Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Elektron o'quv adabiyotlari va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

- Berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- Ma`lumotlar bazasini belgilash;
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- Ishlab chiqilgan loyiha yoki g`oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;
- darslik va o`quv qo`llanmalarining (ularning to`la ta`minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o`rganish. Tarqatma materiallar bo`yicha Ma`ruza qismlarini o`zlashtirish. O`qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizmlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash;
- fandan nazariy va amaliy mashg`ulotlar o`tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo`naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o`rgatish, mashqlar bajarish.
- Fanga oid masalalarni, materiallarni tahlil qilish, mantiqiy mulohazalar ustida ishlash.
- Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o`rganish.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib boradi. Fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;

- ❖ Amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- ❖ Muayyan mavzu bo`yicha referat tayyorlash;
- ❖ Rasm chizish;
- ❖ Amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ❖ Ilmiy maqola, tezis va ma`ruzalar tayyorlash;
- ❖ Uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

## **MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLASHLARI UCHUN**

### **QO`YILADIGAN TALABLAR:**

- Maqsadning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o`zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish) aniq asoslanishi;
- Vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- Topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo`lishi;
- Maslahat va boshqa yordam turlarining to`g`ri belgilanishi;
- Hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- Nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

Talabalar bilimini baholashda reyting tizimini qo`llash maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ish soatlari, ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar bo`yicha taqsimlanadi va mos ravishda baholanadi. Talabalar mustaqil ishlarini baholash ajratilgan soatlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Ma`ruza soatlari uchun ajratilgan mustaqil ta`lim soatlarida ma`ruzada berilgan o`quv materiallarini chuqurlashtirilgan tarzda mustaqil o`rganish va konspekt yozish nazarda tutiladi.

### **Rangtasvir (dastgohli) yo`nalishi talabalari uchun Mustaqil ishi mavzulari:**

#### **3-kurs; Chizmatasvir fani**

<b>MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI</b>			
<b>№</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>TMI shakli</b>	<b>Soati</b>
<b>3-kurs, V- Semestr</b>			
1	<b>Odam qomatini tahlili. (kontropost)</b>	O`tilgan dars mashg`ulotlari	14

	<b>holatida, kekxa chayir kishi). Inson qomatining turli holatlarida o'rganish.</b>	asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	
2	<b>Xar-xil ruxiy xolatlardagi inson portreti. (Murakkab xolatlardagi)</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	14
3	<b>Tik turgan holatdagi inson qomati. Inson qomatini tik turgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	14
4	<b>Inson qomatining murakkab harakatdagi tasviri.</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	16
5	<b>Ikki kishi ishtirokida murakkab holatdagi odam qomatni tasvirlash. (Anatomik taxlil asosida)</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	16
6	<b>Odam qomatining o'tirgan xolatdagi tasviri. (Kekxa chayir kishi) Inson qomatini o'tirgan holatini turli ko'rinishlarda o'rganish.</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	16
<b>Jami</b>			<b>90</b>
<b>3-kurs VI-semestr</b>			
1	<b>Inson qomatining tayanch nuqtalarini aniqlangan holda tasvirlash. (Anatomik taxlil asosida)</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	18
2	<b>Inson bosh suyagi, yuz qismi bo'laklarining o'ziga xosligi va tuzulishiga oid tasvirlar ishlash.</b>	Mustaqil ijodiy ishlar bajarish	18
3	<b>Yarim qomatli portret qo'llari bilan (yosh ayolning, konstruktiv yechimda). Ayol qomati va qo'llari tuzilishining karakterini o'rganish.</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	18
4	<b>Inson qomatining murakkab holati. Inson qomati harakat holatlarini kuzatish va tasvirlash.</b>	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida mustaqil ijodiy ishlar bajarish	18
5	<b>Interyerda ikki va undan ortiq inson qomati ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya yaratish.</b>	Mustaqil ijodiy ishlar bajarish	18
<b>Jami</b>			<b>90</b>
<b>3-kurs bo'yicha jami</b>			<b>180</b>

**Mustaqil ishlarni bajarish uchun o'quv-uslubiy adabiyotlar ro'yxati.**

<b>№</b>	<b>Muallif</b>	<b>Adabiyotning nomi</b>	<b>ARMda gi soni</b>	<b>Nashr yili</b>
<b>Asosiy adabiyotlar</b>				



1.	Boymetov B.	Qalamtasvir o`qitishning ilmiy asoslari. T., 1995.	5	T-2008
2.	Boymetov B.	Qalamtasvir asoslari. T., 2000	5	T-2018
3.	Boymetov B.	Portret qalamtasvir. T., 2001	5	T-2014
4.	Rostovtsev N.N.	Akademicheskii risunok. M., 1981	1	T-2006
5.	Safaraliev S.	Uchebno`y risunok v Akademii xudojestv M., 1990.	1	T-2014
6.	Nabiyev M.	Rasm chizishni o`rganish metodikasi. T., 1998	5	
7.	B.Tojiyev N. Isaxojayeva	Qalamtasvir rangtasvir va kompozitsiya asoslari	-	T-2011
8.	B.Boymetov, O'.Nurtayev	Tasviriy san`at texnologiyasi va nusxa ko'chirish	-	T-2007
9.	A.Sulaymonov	Tasviriy san`atda oqim va yo`nalishlar	4	T-2019
10.	Bulatov S	Rangshunoslik	2	T-2016
11.	Xasanov R	Amaliy bezak san`ati mashg'ulotlari metodikasi (ukuv kullanma)	1	T-2007
12.	Xasanov R	Amaliy bezak san`ati mashg'ulotlari metodikasi (ukuv kullanma)	1	T-2007
13.	H.Sultanov N.Mansurov	Chizmatasvir (O`quv qo`llanma)	-	T-2014
14.	B.Boymetov	Haykaltaroshlik va plastik anatomiya	-	T-2007
15.	Botir Boymetov	Qalamtasvir (O`quv qo`llanma)	-	T-2007
16.	A. Kalonov	Qoralama va xomaki chizgilar	-	T-2013
17.	M.Ketti Toshmurodov_	Chizmatasvir	-	T-2012
18.	G Artiqov	Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi	-	T-2007
19.	R. Xudayberganov	Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi	-	T-2015
20.	A. Лаптев	Рисунок пером	-	M-2000
1.	<a href="http://www.rsl.ru">www.rsl.ru</a> ;			
2.	<a href="http://www.person.ru">www.person.ru</a> ;			
3.	<a href="http://www.mf.uz">www.mf.uz</a> ;			
4.	<a href="http://www.tdiu.uz">www.tdiu.uz</a> ;			

# GLOSSARIYA

## Glossariya

<b>№</b>	<b>O'zbekcha</b>	<b>Inglizcha</b>	<b>Izoh</b>
----------	------------------	------------------	-------------

<b>1.</b>	<b>Assimetriya</b>	Asymmetry	qar. Simmetriya
<b>2.</b>	<b>Blik</b>	Glare	(nemis. - nigoh) soya va yorug`lik elementi. Buyumdagi eng yorug` nur tushgan, asosan jilolanib va yaltirab turgan qismi. Odatda bu dog` yorqinligiga ko`rabuyumning umumiy ko`rinishidan yaqqol farqlanib turadi.
<b>3.</b>	<b>Vatman</b>	Whatman	(angl whatman) – qalin qattiq qog`oz. Juda sifatli, yuzasi ga`dir - budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog`oz. Qog`oz nomi ingliz qog`oz korxonasi egasi J.Vatman sharafiga qo`yilgan.
<b>4.</b>	<b>Uyg`onish davri</b>	Renaissance	(Renesans) XIV – XV asrlarda Yevropa madaniyatida san`at davri. Oqsuyaklarga hos fe`l-atvor, gumanistik dunyoqarash, tarixga murojat. O`rta asrlardan so`ng uningdiniy yo`nalishi va madaniy ko`rinishi - go`zallik va uyg`unlikka intilish, hissiyotlarning boyligi va dunyoning turli-tumanliklariga, inson qiyofasiga tabiat toji deb qaralgan.
<b>5.</b>	<b>Grafika</b>	Graphics	(grek.graphike, grapho yozaman, chizaman) 1. Tasviriy san`at turi bo`lib, asosiy tasviriy vositalar: qog`ozga tushirilgan chiziqlar, shtrixlar, dog` va nuqtalar bilan rasm chiziladi. Grafika ikki turga bo`linadi: tasviriy (rasm), muallif tomonidan chizilgan rasm va nashr qilingan: o`yma naqsh, toshbosma. 2. Asosi shunday rasmdan iborat bo`lgan nashr qilingan badiiy tasvirlar (o`yma naqsh, toshbosma). Ranglar grafikada

			yordamchi vazifasini bajaradi.
<b>6.</b>	<b>Grafit</b>	Graphite	(grek.grapho – yozaman). 1. To'q kulrang yoki qora rangdagi mineral, uglerodning tabiiy turi. Qalam o'zagini tayyorlashda qo'llaniladi. Grafit matodan yoki boshqa materialdan qilingan qog'ozga tushganda kumush iz qoldiradi. Grafit qalam XVIII asr oxirlaridan qo'llanila boshladi, ilk marotaba u qattiq bo'lishi uchun grafit va loyni kuydirish yo'li bilan tayyorlandi. 2. Toshqalam, o'zak qalamning ichida joylashgan.
<b>7.</b>	<b>Yakunlanish</b>	Completeness	asar ustidagi ishning shunday bosqichiki, unda
<b>8.</b>	.		ijodiy fikrlarning eng yuqori bisqichiga erishiladi yoki, qisqa ma'noda, belgilangan tasviriy vazifa bajariladi
<b>9.</b>	<b>Tasviriy san'at</b>	Art.	badiiy ijodning bir turi, badiiy obrazlarni tekislik va makonda namoyon etadi. Bu tushunchalar tasviriy san'at, grafika va me'morchilik, shuningdek arxitekturaning har xil turlarini birlashtiradi.
<b>10.</b>	<b>Tasvir</b>	Item image	belgilangan obyektни tasvirlovchi buyum, obraz, rasm. Tasviriy san'atda yaratilayotgan asarlar (rasmda, kompozitsiyada va b.) haqiqiy dunyoning subyektiv tasviri hisoblanadi.
<b>11.</b>	<b>Rasm</b>	Illustration	(lot.illustratio – yoritish, tasvir), matnни to'ldiruvchi (rasm, gravyuralar, foto suratlar, xarita, chizmalar va b.) tasvir. Adabiyot va ilmiy asarlarning tasviriy yoritilishi.

<b>12.</b>	<b>San'at</b>	Art	1. Ijodiy tasvir, butun borliqni badiiy obrazlarda yetkazib berish. San'at – jamoat fikri shakllaridan biri va ham bir insonning, ham butun odamzod madaniyatining bir qismi, barcha avlodlarning ijodiy faoliyatining turli natijalari. Tasviriy san'at, dekorativ san'at. 2. Mohirlik, ustalik, ishni chuquur bilish. 3. Shunday mohirlik talab qiluvchi ish
<b>13.</b>	<b>Qalam</b>	Pencil	chizish, bo'yash va chizmachilikka mo'ljallangan buyum yoki yozuv quroli, ichi loyga o'xshash grafitli moddadan iborat bo'lgan yog'och tayoq, ichi ko'mir, qo'rg'oshin, grafit yoki quruq presslangan bo'yoqlardan (rangli qalamlar) iborat bo'lishi mumkin, odatda ustki qismi yog'och yoki metaldan bo'ladi.
<b>14.</b>	<b>Rasm</b>	Picture	tugallangan (eskiz va etyuddan farqli) va mustaqil badiiy ma'noga ega tasviriy san'at asari. Freska va kitob miniaturasidan farqli rasm belgilangan interyer yoki belgilangan bezak tizimi bilan bog'lanishi shart emas.
<b>15.</b>	<b>Karton</b>	Cardboard	(fran.carton, ital.cartone, carta – qog'oz). 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog'oz, oddiy qog'ozdan qalin. Qog'ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o'zakka tushiriladi (mato, devor, yog'och yoki metal tekislik).
